



Toshkent
davlat
sharqshunoslik
universiteti

DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNI



SHARQ TILLARINI O'QITISHNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

Oliy ta'lif tizimi
kadrlarini qayta
tayyorlash va
malakasini oshirish
instituti

WWW.LIB.BIMM.UZ

2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
TIL, TARJIMA VA KONSALTING MARKAZI**

**“SHARQ TILLARINI O'QITISHNING NAZARIY VA AMALIY
MASALALARI” MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yo‘nalishlari:
Filologiya va tillarni o‘qitish (arab, fors, dariy, pushtu va turk tillari)**

**Filologiya va tillarni o‘qitish (koreys, xitoy, yapon, hind, urdu, malay va
indonez tillari)**

**Tinglovchilar kontingenti:
Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlari**

Toshkent-2023

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagи 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

X.V.Mirzaxmedova - DSc, dots.
S.A.Nazarova - PhD, dots.

**Taqrizchilar:
professor**

Sh.G.Shamusarov - filologiya fanlari doktori,
U.T.Saydazimova – filologiya fanlari doktori,
professor

O‘quv-uslubiy majmua oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(“ ” 2023-yildagi ___ -sonli bayonoma)

MUNDARIJA

- I. ISHCHI DASTUR**
- II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL
TA’LIM METODLARI**
- III. NAZARIY MATERIALLAR**
- IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI**
- V. KEYSALAR BANKI**
- VI. GLOSSARIY**
- VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

ISHCHI DASTUR

Kirish

Ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son, 2020 yil 16 apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4680-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamlı texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarida “Sharq tillarini o‘qitishning nazariy va amaliy masalalari” fanidan nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalar, lisoniy hodisa va jarayonlarga nazariy yondashuvlari hamda ularning lingvistik tafakkurini shakllantirish vazifalarini bajarish, tilning aloqa xususiyatlari, til vaziyati va ularning turlari, chet tilini o‘qitishning nazariy va kommunikativ yondashuv asoslari, madaniyatlararo muloqotning shakllanishi va rivojlanishi, uning maqsadi va vazifalari to‘g‘risida ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Modulning vazifalari:

- ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishslash;
- o‘rganilayotgan mamlakatda til siyosatining vazifalari va til islohotlarini o‘rganish;
- CEFR (til bilish darajasini aniqlash milliy imtihon tizimlari) darajalari uchun til o‘qitish tamoyillarini tahlil qilish;
- o‘quv materiallarini extiyojga moslash, o‘zgartirish, autentik materiallarni qo‘llash;
- til materiallarini yig‘ish va taxliliy ishlov berish;
- qo‘ylgan masalalarga oid yechimlarni topish bo‘yicha vazifalarni belgilash va hal qilish;
- shaxs, milliy va hududiy xarakter, stereotiplar, gender, yosh va diskurs xususiyatlarini bilish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Sharq tillarini o‘qitishning nazariy va amaliy masalalari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida: tinglovchi:

- Sharq tillarini o‘qitishning nazariy va amaliy masalalari ***to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;***
- Sharq tillarini o‘qitishning nazariy va amaliy masalalarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- Sharq tillarini o‘qitishning nazariy va amaliy masalalarini tavsiflay olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***
- Sharq tillarini o‘qitishning nazariy va amaliy masalalarini ta’limda qo‘llay olish kompetensiyalarni egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Sharq tillarini o‘qitishning nazariy va amaliy masalalari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis- so‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyiligi

“Sharq tillarini o‘qitishning nazariy va amaliy masalalari” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish”, “Tadqiqotlar olib borishda lingvistik metod va yondashuvlar” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliv ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ilmiy tadqiqot uslublari bilan tanishtirish, shu bilan birga ularga ilmiy manbalar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini singdirish, hamda ilmiy ish mavzusini ishlab chiqishga oid malakalarni xosil qilish, sababi bu bilim va tasavvurga ega bo‘lish uchun boshqa bir tizim, ya’ni malaka va bilimlarni qabul qilish tizimi zarur bo‘ladi, ilmiy tadqiqotga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy maslig‘ ulot
1.	Sharq mamlakatlarida til vaziyati, ularning turlari, til vaziyatining o‘zgarishda ta’sir yetuvchi omillari	2	2	
2.	Sharq mamlakatlarida etnolingvistik vaziyat masalalari	2		2
3.	XX asrda Sharq mamlakatlaridagi lingvistik jarayonlar	2		2
4.	Sharq tillarinini o‘qitish metodikasining zamonaviy xorijiy tendentsiyalar	2	2	2
5.	CEFR darajalari uchun til o‘qitish tamoyillari. Kommunikativ yondashuvda til o‘qitish.	2	2	2
6.	Lingvistik kompetensiya til materiali fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozish)	2	2	
7.	Sotsiolingvistik kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, autentik nutqning milliy xususiyatlari	2		2
8.	Talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirishga oid masalalar	2		2
9.	Onlayn resurslardan foydalangan holda oliv ta’lim talabalarning nutq kompetensiyasini takomillashtirish	2		2

10.	Sharq tillaridan zamonaviy darsliklar, o‘quv qo‘llanma ishlab chiqish: xorijiy tajriba	2		2
11.	Madaniyatlararo muloqotning shakllanishi va rivojlanishi. Sharq tili o‘rgatishda madaniyatlararo muloqotning o‘rni.	2	2	2
12.	Til, madaniyat, madaniyatlar tipologiyasi va kommunikatsiya. Kommunikativ faoliyat	2	2	
13.	Madaniyatlararo to‘sıqlar va to‘qnashuvlar, madaniy va lisoniy shok hodisalar.	2		2
14.	Shaxs, milliy va hududiy xarakter, stereotiplar, gender, yosh va diskurs xususiyatlari	2		2
15.	Kodlar aralashuvi hamda interferensiya masalalari. O‘rganilayotgan tilni o‘qitishda turli madaniyat vakillari muloqotidagi qiyinchiliklar	2		2
	Jami:	36	12	24

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: SHARQ MAMLAKATLARIDA TIL VAZIYATI, ULARNING TURLARI, TIL VAZIYATINING O‘ZGARISHDA TA’SIR ETUVCHI OMILLARI (2 soat)

Tilning aloqa xususiyatlari. Tillarning paydo bo‘lishi. Zamonaviy dunyoda o‘rganilayotgan til. O‘rganilayotgan mamlakatda etnolingvistik vaziyatning rivojlanishiga migratsiya va urbanizatsiya jarayonining ta’siri, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning chegaralangan leksikaga ta’siri. Til vaziyati, ularning turlari. Til vaziyatining o‘zgarishiga ta’sir yetuvchi omillari. Tilning zamonaviylashtirish shart-sharoitlari. Leksik fondni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.

2-MAVZU: SHARQ TILLARININI O‘QITISH METODIKASINING ZAMONAVIY XORIJIY TENDENTSİYALAR (2 soat)

Jahon hamjamiyati va O‘zbekiston Respublikasida ertangi chet tili ta’limini shakllantirishning bosqichlari va o‘ziga xosliklari, o‘qitishning har bir bosqichidagi paradigmal transformatsiyalar. OTM talabalariga sharq tilini chet tili sifatida o‘qitish bo‘yicha jahon tajribasini o‘rganish, xorijiy tillarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, psixologik-pedagogik va yosh xususiyatlari. Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy yondashuv va pedagogik texnologiyalar.

Talabalarga chet tilini o‘rgatish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish, jahon hamjamiyatining ta’lim tizimini dunyo iqtisodiyoti globalizatsiyasi va taraqqiyoti talablariga javob beradigan tendensiyalarni tahlil qilish, til siyosatida islohotlar o‘tkazish, chet tillarini o‘qitishda va ta’lim tizimida sifatini oshirish tendensiyalar.

3-MAVZU: CEFR DARAJALARI UCHUN TIL O‘QITISH TAMOYILLARI. KOMMUNIKATIV YONDASHUVDA TIL O‘QITISH

(2 soat)

CEFR darajalari uchun til o‘qitish tamoyillari. Kommunikativ yondashuvda til o‘qitish. Kommunikativ tilshunoslik tushunchasi. Kommunikativ kompetensiya tamoyillari. CEFR va uning doirasida 4 kompetensiya: lingvistik, kommunikativ, sosiolingvistik, tarjima kompetensiyalar. Chet til kommunikativ kompetensiya tushunchasining genezisi; Nutq faoliyati turlarini takomillashtirishning metodologik asoslari; nutq faoliyati turlarini takomillashtirishga ta’sir yetuvchi omillar; chet tillari nutq faoliyati darajasini CEFR (xalqaro standart) talablari bo‘yicha o‘rganish; Yevropa malaka tizimida kompetensiya tushunchasi kognitiv, funksional, shaxsiy va axloqiy tarkibiy qismlarning birligi. Butun dunyo ta’lim muassasalarida talabalarning xorijiy til kompetensiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish, shaxsning xususiyatlari va fazilatlari, zarur shart-sharoitlari.

4-MAVZU: LINGVISTIK KOMPETENSIYA TIL MATERIALI FONETIKA, LEKSIKA, GRAMMATIKA) HAQIDA BILIMLAR VA NUTQ FAOLIYATI TURLARI (TINGLASH, GAPIRISH, O‘QISH VA YOZISH)

(2 soat)

Lingvistik kompetensiya til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozish) bo‘yicha ko‘nikmalarni egallash.

Lingvistik kompetensiyani aniqlash, yondashuvlar va usullarni aniqlash. Tamoyillari, usullari va ularning tavsifi, ta’lim maqsadi va o‘ziga xos xususiyatlari. “Xorijiy til” kursini joriy etishning turli bosqichlarida til lingvistik kompetensiya haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Lingvistik kompetensiya haqidagi turli vaqtarda turli tadqiqotchilarining ta’riflari. 80-yillarning oxiri - 90-yillarning boshlarida olim A. L. Berdichevskiy til, lingvistik va madaniy-kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish g’oyasi. Kommunikativ kompetensiyani o‘zlashtirishning asosiy tarkibiy qismlari til, lingvistik va madaniy kompetensiya haqidagi g’oyalari.

5-MAVZU: MADANIYATLARARO MULOQOTNING SHAKLLANISI VA RIVOJLANISHI. SHARQ TILI O’RGATISHDA MADANIYATLARARO MULOQOTNING O’RNI. (2 soat)

Madaniyatlararo muloqotning shakllanishi va rivojlanishi, uning maqsadi va vazifalari. Til, madaniyat, madaniyatlar tipologiyasi va kommunikatsiya. Kommunikativ faoliyat. Kommunikativ faoliyat darajalari va kommunikatsiya turlari. Verbal va noverbal kommunikatsiya vositalarining talqini.

Madaniyatlararo muloqot (MM) fanlararo fan sifatida.

Madaniyat va o‘zini tutish. Madaniy me’yorlar va madaniy qadriyatlar. Madaniy qadriyatlarning mohiyati va ularning XMKdagi o‘rni. Madaniy normalar va ularning madaniyatdagi o‘rni.

6-MAVZU: TIL, MADANIYT, MADANIYATLAR TIPOLOGIYASI

VA KOMMUNIKATSIYA. KOMMUNIKATIV FAOLIYAT (2 soat)

Dunyoning madaniy sur'ati va dunyoning lingvistik sur'ati. Mahalliyning prizmasi orqali "begona" madaniyatni idrok etish.

Etnosentrismning mohiyati va uning MMdagi roli. Madaniy o'ziga xoslikning mohiyati va shakllanishi.

Madaniyatni o'zlashtirish: madaniyat va ijtimoiylashuv etishtirish.

Kommunikativ faoliyat darajalari va kommunikatsiya turlari. Qarashlarni tushunchasi mohiyati va turlari. Qarashlarni so'zlash va o'zgartirish muammolari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: SHARQ MAMLAKATLARIDA ETNOLINGVISTIK VAZIYAT MASALALARI (2 soat)

Sharq mamlakatlari tillari. Ularning mamlakatlar hayotidagi roli. Sharq mamlakatlari tillari leksikasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. Tillarning funksional lingvistik vaziyati.

Zamonaviy o'rganilayotgan tilning yozuv mezonlari va qoidalarining o'zgarishi. O'rganilayotgan mamlakatda til siyosatining vazifalari va til islohatlari, til siyosatining konsepsiysi, ta'lif tizimining rivojlanishi, davlat tiliga munosabati, ularni amalda ishlatish darajasi haqidagi ma'lumotlar.

2-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: XX ASRDA SHARQ MAMLAKATLARIDAGI LINGVISTIK JARAYONLAR (2 soat)

XX asrda Sharq mamlakatlaridagi lingvistik purizmga urinishlar purizm oqimlarning paydo bo'lish tarixi ochib beriladi. Qadimgi davrda va hozirgi bosqichlarida tili o'rganilayotgan mamlakatlarida purizmning xususiyatlari yoritiladi.

O'rganilayotgan mamlakat tili (tillari) bo'yicha mamlakat ijtimoiy-siyosiy xayotiga oid matnlar. Matbuot tili xususiyatlari. Jamiyat xayotida tilning o'rni va ahmiyati. Matbuot sahifalarida chop etilgan ijtimoiy-siyosiy matnlar leksikasi va ularni to'g'ri tarjima va tahlil qilish xususiyatlari. Mamlakat matbuoti tarixi va taraqqiyot bosqichlari. Yangi davr matbuoti. Mamlakatdagi matbuot agentligi, nashriyot va uning turlari.

3-AMALIY MASHG'ULOT

SHARQ TILLARINI O'QITISH METODIKASINING ZAMONAVIY XORIJIY TENDENTSIYALAR (2 soat)

Sharq tillarini o'qitish metodikasiga jahonda yuz berayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, integratsiyalashuv jarayonlarini ta'siri. Oliy ta'lif muassasalarida chet tillarni o'qitish tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlar. Zamnaviy ta'lif texnologiyalari asosida oliy ta'lif muassasalarida sharq tillarini o'qitish mazmuni. Zamnaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish orqali talabalarning

chet tili kompetensiyasini rivojlantirish. Oliy ta'lif muassasalarida chet tillar kompetensiyasini zamonaviy ta'lif texnologiyalari asosida rivojlantirish. Sharq tillarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Sharq tillarini o'qitish metodikasining ilmiy va metodik ahamiyati.

4-AMALIY MASHG'ULOT **CEFR DARAJALARI UChUN TIL O'QITISH TAMOYILLARI.** **KOMMUNIKATIV YONDASHUVDA TIL O'QITISH (2 soat)**

Chet tilini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiya, kompetentlilikga berilgan ta'riflar va ularning o'zaro bog'liqligi, xorijiy tillarni o'qitishda CEFR talablarining tutgan o'rni, ta'lif jarayonida uchrayotgan kamchiliklar haqida ma'lumotlar.

Chet tili ta'lifida kompetensiyaviy yondashuv muayyan natijalarga erishish va muhim kompetensiyalarni egallash. Kompetensiyalar bo'lajak kasbiy faoliyatga qarab shakllanishi.

Kompetensiyaviy yondashuv hayotiy vaziyatlarda ortib borayotgan murakkablik va dinamika. Fanlarni o'qitish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv keng tatbiq etish. Talabaga fan bo'yicha bilim, ko'nikma berish, bilimni amaliyotda qo'llay olish zarurati ustuvorligi. Kommunikativ yondashuv haqida mavjud qarashlar va fikrlar.

5-AMALIY MASHG'ULOT **MAVZU: SOSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYA, IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYANI, AUTENTIK NUTQNING MILLIY XUSUSIYATLARINI (2 soat)**

Sosiolingvistik kompetensiya. So'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash. Sosiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o'z ichiga qamrab olgan. Autentik nutqning milliy xususiyatlari. O'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish.

M.Kanale, L.Baxman va A. Palmerlarning sotsiolingvistik kompetensiya modellari. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya va sotsiolingvistik kompetensiya. So'zlovchini ijtimoiy va madaniy kommunikatsiya konteksti doirasida xabarni tegishli ravishda ifoda etish o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan pragmatik omillar. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya tarkibiy qismlar.

6-AMALIY MASHG'ULOT **MAVZU: TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM OLISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA OID MASALALAR (2 soat)**

Mustaqil bilim olish kompetensiyasini rivojlantirishda xalqaro tajribadan

foydalanimish. Dunyoning eng samarali mustaqil ta'limni qabul qilish standartlarni qo'llash. Pedagogning kasbiy kompetensiyasini, talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish. Ta'lim tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko'tarishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish. Jahon miqyosida ta'lim tizimida o'qitishni zamonaviy talablar va yangi strategiyalarga moslashtirish. Ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida mustaqil ta'lim jarayonini ischillashtirish. Talabalarda mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos jixatlari.

7-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: ONLAYN RESURSLARDAN FOYDALANGAN HOLDA OLIY TA'LIM TALABALARNING NUTQ KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (2 soat)

Tizimliligi va autentivligi bilan ajralib turuvchi turli ochiq onlayn kurslar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o'qitishning ilg'or usullarini joriy etgan holda bo'lajak pedagoglarning xorijiy tillar bo'yicha bilim, malaka, ko'nikmalarini oshirish. Og'zaki va yozma nutqidagi xatoliklar asosida mavzularni tanlash. Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish. Zoom videokonferensiya platformasi orqali muloqot o'rnatish bilan birga mashqlar bajarish va videodarslar tomosha qilish, Telegram messenjeri orqali axborot, fikr almashish, chet tili og'zaki va yozma nutq kompetensiyasini takomillashtirish vositasi MOOC (Massive Open Online Course – Ommaviy ochiq onlayn kurslar). MOOC kursini ongli va individual tanlash. Veb texnologiyalar va MOOC kurslaridan samarali foydalangan holda mustaqil ravishda o'z-o'zini rivojlantirishga o'rgatish. Metodologik komponentini takomillashtirish.

8-AMALIY MASHG'ULOT

8-MAVZU: SHARQ TILLARIDAN ZAMONAVIY DARSLIKLER, O'QUV QO'LLANMA ISHLAB CHIQISH: XORIJIY TAJRIBA (2 soat)

O'quv adabiyotini ishlab chiqishda jahon ilm-fani, texnika va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlarini ko'rib chiiqish. Soha va fanga oid milliy va xorijiy tajriba va ma'lumotlar mantiqiy bir tizimda zamonaviy darsliklar va o'quv qo'llanmalarda bayon etish. O'quv adabiyotining ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik shifri), nomi va ixtisoslikka hamda o'quv reja va fan dasturlariga to'la mos kelishlarini tahlil qilish. O'quv adabiyotida nazariy va amaliy ma'lumotlar.

O'quv adabiyotini loyihalashning ilmiy asoslari. O'quv adabiyotini ishlab chiqishda asosiy tamoyillar.

Zamonaviy o'quv adabiyotini ishlab chiqish metodikasi. O'quv adabiyot kasbga yo'naltirilgan tamoyili asosida ishlab chiqish. Asosiy kompetensiyalarning o'zaro bog'liq rivojlanishi tamoyili.

Talabaning kommunikativ shaxs (chet tilida olib boriladigan madaniyatlararo muloqot kontekstida) va xalqaro xorijiy va ko'p tilli kontekstda o'zini o'zi belgilash sub'ekti sifatida shakllanishini belgilash.

O‘quv adabiyotida assosiy tushuncha va xulosalarning ta’riflari aniq va ravshan yozilshi, talabalarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olinganligi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi, mustaqil ta’lim olishga qiziqish uyg‘otish.

9-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: MADANIYATLARARO MULOQOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. SHARQ TILI O‘RGATISHDA MADANIYATLARARO MULOQOTNING O‘RNI (2 soat)

“Madaniyatlararo muloqot” fanining maqsadi. Muloqot masalalari; Til va madaniyat tahlili, madaniyatlar orasidagi kommunikatsiyani osonlashtirish va to‘qnashuvlarni oldini olishdi.

Turli xalqlar, tillar, madaniyatlar aralashgan bir paytda, boshqa madaniyatlarga qiziqish, ularni hurmat qilish, ularni tushunishga harakat qilish, ularga sabr-toqat bilan yondashishni o‘rganish masalalari. Madaniyatlararo, xalqaro muloqot masalalari.

Kommunikatsiyaga yordam beradigan omillar, unga to‘sinqinlik qiladigan omillar. Til va madaniyat munosabati. Tilning shaxsning shakllantirishidagi ta’siri. Tilda individual va jamoaviy mentalitet, mafkura, madaniyat aks etishi. Milliy xarakter va u til bilan shakllanish jarayoni. Chet tillarini o‘rganishda ijtimoiy-madaniy omilning roli. Ona tilidagi birlamchi dunyo manzarasi va boshqa tillarni o‘rganish jarayonidagi ikkilamchi dunyo manzarasi. Til va madaniyat vujudga kelishi masalasi.

Xitoylik olimlarning Shu Jongven, Shi Jongying xorijiy tilni o‘qitishda tilning milliylik xususiyatlari va til bilan bog‘liq madaniy to‘sinqilar haqidagi fikrlari.

10-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: MADANIYATLARARO TO‘SIQLAR VA TO‘QNASHUVLAR, MADANIY VA LISONIY SHOK HODISALAR (2 soat)

Madaniyatlararo to‘sinqilar va to‘qnashuvlar, madaniy va lisoniy shok hodisalar. Kommunikatsiya turlari, verbal va noverbal muloqot, kommunikatsiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, kommunikatsiyadagi to‘sinqilar va ularni bartaraf etish yo‘llari, til va madaniyat munosabati, mentalitet, milliy xarakter, mafkura, olam manzarasining madaniyat va tilda ifodalaniши, madaniyatlararo to‘qnashuvlar, diskriminatsiyalar, stereotiplar, turli madaniyatlardagi ramzlar, tabular va evfemizmlarning talqini, gender va h.k. masalalari. Madaniyatlarning o‘zaro aloqasi, yirik guruhlar (madaniyatlar va submadaniyatlar) orasidagi munosabatlar. Zamonaviy rivojlanish sharoitida madaniy aloqalar inson hayotining turli sohalarida – turizm, sport, shaxsiy aloqalar va h.k.da.

Amerikalik tadqiqotchilar Judit Martin va Tomas Nakayamaning “Madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida” nomli asaridagi madaniyatlararo muloqot masalalari.

11-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: SHAXS, MILLIY VA HUDUDIY XARAKTER, STEREOTIPLAR, GENDER, YOSH VA DISKURS XUSUSIYATLARI

(2 soat)

Madaniyatlararo muloqot jarayonlarining tadqiqi. Shaxs, milliy va hududiy xarakter, stereotiplar, gender, yosh va diskurs xususiyatlari. Kodlar aralashuvi hamda interferensiya masalalari. O‘rganilayotgan tilni o‘qitishda turli madaniyat vakillari muloqotidagi qiyinchiliklar.

Milliy xarakterning elementlari. Milliy xarakter tushunchasi. XX asr o‘rtalarida Amerika etnopsixologik maktabi vakillari. (R. F. Benedikt, A. Kardiner, R. Linton, R. Merton, M. Mead va boshqalar). Milliy-etnik guruhning "o‘rtacha shaxsi" modeli. Milliy xarakter o‘rganish va turli xil sharoitlarda va turli xil konseptual va nazariy pozisiyalar. Gollandiyalik olimlar Dyuyker va N. Frid tomonidan milliy xarakterga oid qarashlar. Yu V. Bromlining etnogenez nazariyasi, L. N. Gumilyov etnosining biologik va geografik konsepsiyasi, G.U. Ksoeva-Soldatovaning millatlararo taranglikni o‘rganish. Xalq va millat etnoforlarining qadriyat yo‘nalishlarini rivojlantirish va faoliyatining psixologik konsepsiyasi mintaqadagi etnoforlarning qiymat yo‘nalishlari tizimi.

11-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: KODLAR ARALASHUVI HAMDA INTERFERENSIYA MASALALARI. O‘RGANILAYOTGAN TILNI O‘QITISHDA TURLI MADANIYAT VAKILLARI MULOQOTIDAGI QIYINCHILIKLAR

(2 soat)

Kodlar aralashuvi hamda interferensiya masalalari. O‘rganilayotgan tilni o‘qitishda turli madaniyat vakillari muloqotidagi qiyinchiliklar.

XX asrning 70-yillarida ingliz tilshunosligida kodlar aralashuvining paydo bo‘lishi. Kodlar aralashuvi hodisasi R.Yakobson, Auer (1998), Mayers-Skotton (1993), Poplak (1980), MsCormick (2002), Mahotian i Santorini (1996), Rampton (1995) kabi olimlarning qarashlari.

Kommunikatsiya sharoitidagi so‘zlovchining bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish muammosi.

Insonning kodlarni almashtirish qobiliyati. Kodlarning aralashuvi mexanizmi. Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish jarayoni.

Bilingvlarning nutqida tillarning o‘zaro ta’siri.

Interferensiya ikki tillilik sharoitida til sistemalarining o‘zaro ta’siri; ikki tilli shaxslar nutqida u yoki bu til me’yorining buzilishi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL METODLAR

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo’llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Namuna: Muammoli ta’lim yondashuvlarining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Muammoli ta’lim yondashuvlarining kuchli tomonlari	
W	Muammoli ta’lim yondashuvlarining kuchsiz tomonlari	
O	Muammoli ta’lim yondashuvlarining imkoniyatlari (ichki)	
T	Muammoli ta’lim yondashuvlarini amalda qo’llashdagi to’siqlar (tashqi)	

2.“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so’z bo’lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «study» o’rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil qilish asosida o’qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

Mazkur metod muammoli ta'lif metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma- bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish individual va guruhda ishlash; va o'quv topshirig'ni belgilash	muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiyindividual va guruhda ishlash; muammoni tahlil etish orqalimuqobil echimyo'llarini ishlab chiqish; o'quv topshirig'ining yechimini har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni izlash, hal etish yo'llarini ishlabtahlil qilish; chiqish	muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechiminiyakka va guruhda ishlash; shakllantirish va asoslash,muqobil variantlarni amalda qo'llash taqdimot.	imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Keys-stadi” metodining o'ziga xos xususiyatlari

Izlanishga doir faoliyatning mavjud bo'lishi.

Jamoaviy va guruhlarda o'qitish.

Individul, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi.

O'quv loyihalarini ishlab chiqish.

Muvaffaqiyatga erishish uchun ta'lif oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish

Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilar savollar bo'yicha faoliyatni qamrab oladi:

Kim? (Who?),

Qachon? (When?),
Qaerda? (Where?),
Nima uchun? (Why?),
Qanday?/ Qanaqa? (How?),
Nima? (natija) (What?).

Keys. 1 kurs darsligining sizga taqdim etilgan bitta mavzusi materiallari bo'yicha keys topshirig'ini tuzing;

Bu keys asosida o'tiladigan darsni loyihalashtiring; U bo'yicha taqdimot tayyorlang va uni namoyish eting.

3.«FSMU» metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Metodni amalgalash tartibi:

qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:



ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna. Zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish samarali natija beradi.

Topshiriq. Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali bildiring. "Tushunchalar tahlili" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalgalash tartibi:

ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lган so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.
Namuna: "Radioaktivlik mavzusidagi tayanch tushunchalar tahlili".

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot

Izoh: Ikkinci ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi.

Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

Venn diagrammasi metodi

Venn diagrammasi - grafik ko'rinishda bo'lib, olingen natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetlarni (ko'rinish, fakt, tushuncha) taqqoslash, tahlil qilish va o'rganishda qo'llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo'ladi.

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan

muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Kichik guruhlarda ishlash metodi

Kichik guruhlarda ishlash orqali o'rganish - ma'lum muammoning yechimini topishga va tinglovchilar faolligini oshirishga qaratilgan darsdagi ijodiy hamkorlikdagi ish. Bosqichlari: guruhlarga bo'lish, muammoni guruhlarda muxokama qilish, muammoning yechimlari taqdimoti, xulosalash.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra tinglovchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. Tinglovchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

Tinglovchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976 yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq tinglovchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi. Tinglovchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimланади. Shunday qilib, har bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z xissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi.

Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va talabalar o'rtasida o'z ijodiy izlanishlari natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara tinglovchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sindf jamoasining har bir o'quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarni, umuman sindf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llanib, yangi bilimlarning o'zlashtirishiga bog'liq bo'ladi.

Muammoli ta'lim metodi

Ta'lim jarayonida tinglovchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning intellektual imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish quyidagi umumiy omillarga bog'liq bo'ladi:

O'rganilayotgan mavzu yuzasidan muammoli savollar tizimi tuzish;

Qo'yilgan muammoli savollar tizimi asosida suhbat metodi orqali tushuntiriladigan tema materiallarini o'rgatish va uning tub mohiyatini ochib berish;

Muammoli savol asosida izlanish xarakteridagi o'quv vazifalarini qo'yish.

Yuqoridagi bosqichlar asosida o'quv materiali tushuntiriladiganda tinglovchilar o'zлari darrov tushunib yetmaydigan fakt va tushunchalarga duch keladilar. Natijada o'rganilayotgan mavzu materiali bilan tinglovchilar orasida muammoli vaziyat hosil bo'ladi.

Muammoli vaziyatning roli va ahamiyatini aniqlash tinglovchilarning aktiv fikrlash faoliyatini psixologik, pedagogik qonuniyatlarini hisobga olish

asosida o'quv jarayonini qayta qurish muammoli ta'limning asosiy g'oyasini belgilab beradi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish asosida hosil qilingan dars jarayoni muammoli ta'lim deyiladi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi faoliyati shundan iboratki, u zarur hollarda eng murakkab tushunchalar mazmunni tushuntira borib o'rganilayotgan mavzu materiali bilan tinglovchilar orasidagi muntazam ravishda muammoli vaziyatlar vujudga keltiriladi, tinglovchilarni faktlardan xabardor qiladi, natijada tinglovchilar bu faktlarni analiz qilish asosida mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar va umumlashtiradilar.

Evristik ta'lim metodi.

Evristik degan so'zning ma'nosi savol javobga asosan "topaman" demakdir. Evristik metod bilan o'qitish maktablarda asosan XIX asr boshlaridan boshlab qo'llanila boshladi.

Mashg'ulotlar qiziqarli bo'lishi uchun, bu mashg'ulotlardagi har bir masala yoki topshiriq so'zma so'z quruq yodlash uchun emas balki ularning oliy faoliyatlarini ishga soladigan xarakteri bo'lishi kerak. Amerikalik olim D. Poya evristik ta'lim metodi to'g'risida shunday degan edi. Evristikani maqsadi yangiliklarga olib boruvchi metod va qoidalarni izlash demakdir. U evristik metod mohiyatini quyidagidek izchillikda tuzilgan reja orqali amalga oshirishni tavsiya qiladi:

Masalaning qo'yilishini tushunish;

Masalaning yechish rejasini tuzish;

Tuzilgan rejani amalga oshirish;

Orqaga nazar tashlash (hosil qilingan yechimni tekshirish).

Bu rejani amalga oshirish jarayonida o'qituvchilar quyidagi savollarga javob topadilar:

Masalada nima noma'lum?

Masalada nimalar ma'lum?

Masalaning sharti nimalardan iborat?

Ilgari shunga o'xshagan masalalar yechilganmi?

Agar shunga o'xshagan masalalar yechilgan bo'lsa, undan foydalaniib qo'yilayotgan masalani yecha oladimi?

Albatta yuqoridagi reja sxema tinglovchilarning ijodiy fikrlash faoliyatilarni

shakllantiradi, ammo bu reja-sxema tinglovchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi birdan bir yo'l bo'la olmaydi.

Aqliy hujum - umumiyoq muammo bo'yicha tinglovchilarni ijodiy ishga, o'zaro muloqotga chorlash; bosqichlari: muammoli vaziyatni keltirib chiqarish; uning yechimini topish uchun tinglovchilarni jalb qilish; turli yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosalash;

Mustaqil ishslash - vaqtiga-vaqti bilan o'tkazib turiladigan, tinglovchilarning mustaqil o'rganish, darslik bilan ishslash va mustaqil amalaiy faoliyat bilan shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantiradigan, har bir o'quvchiga alohida yoki umumiyoq tarzda tashkil qilinadigan topshiriqni bajartirish; tinglovchilarning amaliy faoliyatiga aralashmay, tashqaridan teskari aloqa-muloqot yordamida yo'naltirib boshqarish va nazorat qilish.

Juftlikda ishslash - biror mavzu bo'yicha yonma-yon o'tirgan tinglovchilarni o'zaro muloqotga chorlash; o'zaro fikr almashish va ularni ba'zilarini tinglash;

12.“Bahs-munozara” metodi

Metod quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: o'qituvchi munozara mavzusini tanlaydi va tinglovchilarni munozaraga taklif etadi; o'qituvchi tinglovchilarga muammo bo'yicha «aqliy hujum» o'tkazishga chorlaydi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi; o'qituvchi «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu ishni bajarish uchun tinglovchilardan birini kotib etib tayinlaydi hamda bu bosqichda o'qituvchi tinglovchilarga o'z fikrlarini bildirishlariga sharoit yaratib beradi; o'qituvchi tinglovchilar bilan bирgalikda, ikkinchi bosqichda «aqliy hujum» davomida bildirilgan fikr va g'oyalarni guruuhlarga ajratadi, umumlashtiradi va ularni tahlil qiladi. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

13.Tadqiqot metodi

Tadqiqot usuli o'zlashtirish darajasining eng yuqori cho'qisi hisoblanadi. Bu usul bilan dars o'tilganda tinglovchilar olgan bilimlari asosida hali o'rganilmagan kichik bir masala ustida yakka yoki birgalashib izlanish olib borishadi, masala yechimiga doir keltirilgan taxminni izlab topilgan dalillar asosida to'g'ri yoki noto'g'riliqini tekshirishadi va isbotlashadi.

Bosqichlari:

darsda hammaga qiziqish uyg'otadigan biror ob'ektning xossasini aniqlash yoki u haqidagi masalani qo'yish;

uni o'rganish, tadqiq qilish uchun ma'lumotlar to'plash;

muammo yoki masalaning yechishga oid taxminlar, bashoratlar qilish;

har bir bashoratning qanchalik to'g'riliqini to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil qilish va isbotlash;

xulosa chiqarish;

sinf oldida taqdimot qilish.

Klaster metodi

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar xususida erkin, ochiq o'yash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga hizmat qiladi.

«Klaster» metodidan foydalanish tavsifi:

1-bosqich. Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing.

Fikringizni sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2-bosqich. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang.

3-bosqich. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror-bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ilgunga qadar davom ettiring.

4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. Foyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

Har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozadi;

Har bir guruh o‘z taqdimotini o‘tkazadi, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi.

Trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

Trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilar tanishtiriladi, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushurilgan tarqatmalar beriladi;

An’anaviy yondashuv, kompetentsiyaviy yondashuv

afzalligi

kamchiligi

afzalligi

kamchiligi

Xulosa:

Ikki qisqli kundaliklar

Ikki qisqli kundaliklar tinglovchilarga matn mazmunini o‘z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog’lash, o‘zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, tinglovchilar qandaydir adabiyotlarni o‘quv auditoriyasidan tashqari o‘qib chiqish topshirig’ini olishganida ikki qisqli kundaliklar foydalidir.

Ikki qisqli kundalik uchun tinglovchilar yozilmagan qog’ozning o’rtasidan tik chiziq o‘tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Qog’ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko‘p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg’otar yoki hayotlarida yuz bergen voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. Yoxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg’otar. O’ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu tsitatani yozishga ularni nima majbur etdi? Ularga qanday fikrlar uyg’otdi? SHu munosabat bilan ularda qanday savol tug’ildi? Qisqasi, matnni o‘qirkан, tinglovchilar vaqtiga bilan to’xtashlari va o‘zlarining qo’shaloq kundaliklarida shunday belgilar

qo'yib borishlari kerak.

Ta'lim metodlarini samarali qo'llash me'zonlari

Metodlar	Qaysi vazifalarni yechishda bu metod samaraliroq?	Qanday o'quv materiali mazmuni uchun bu metod qulay?	Tinglovchilarning qanday xususiyatlari uchun bu metodni qo'llash foydali?	Bu metodni qo'llash uchun o'qituvchi qanday hislatlarga ega bo'lishi kerak?
Og'zaki bayon metodi	Nazariy bilimlarni shakllantirish uchun asosan nazariy va axborot ko'rinishida bo'lgan holda	O'quv materialilining axborot ko'rinishida o'zlashtirishga tayyor bo'lganda	Tinglovchilar o'quv materialining axborot ko'rinishida o'zlashtirishga tayyor bo'lganda	O'qituvchi bu metodni boshqa metodlardan ko'ra yaxshiroq egallagan holatda
Ko'rgazmali metod	Tinglovchilarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish vako'zgazmali o'rganiladigan masalalarga bo'lgangavdalantirish diqqatni oshirish mumkin bo'lgan uchun	O'quv materiali mazmunini vositalar bilan bo'lganda holatlarda	Tinglovchilar uchun ko'rgazmali vositalar yetarli bo'lganda	O'qituvchi qo'il ostida barcha ko'rgazmali vositalar yetarli bo'lganda yoki ularni o'zi mustaqil tayyorlay olganida
Reproduk- tiv (o'zlashti- rilgan bilim- larni qaytauchun bayon qilish)	Bilim ko'nikmalarni shakllantirish uchun	O'quv materiali mazmuni yoki o'tamavzuni muammoli murakkab yoki juda qilib sodda bo'lgan holda	Tinglovchilar bu mavzuni muammoli qilib o'rganishga hali tayyor emas	O'qituvchining bu mavzuni muammoli qilib o'rgatishga vaqt yo'q bo'lgan holda
Tadqiqot- izlanish	Mustaqil fikrlash, tadqiqot olib borish va masalaga ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun	O'quv materiali mazmuni o'rtacha murakkablikda bo'lganda	Tinglovchilar mazkur mavzuni muammoli tarzda tayyor bo'lgan hollarda	O'qituvchi izlanish metodini yaxshi egallagan va o'rganishga tayyor mavzuni muammoli o'rganish uchun yetarli vaqtga ega bo'lganda

Amaliy	Amaliy ko'nikma va malakalarni ravojlantirish uchun	O'quv materiali mazmuni mashqlar, o'tkazish va amaliy topshiriqlarni bajarishni qilsa	Tinglovchilar mazkur tajribaboyicha amaliy faoliyatlibajarishga bo'lsa talab	Tinglovchilar mavzumashg'ulotlarni amaliyo'tkazish yetarlicha o'quv va tayyorididaktik materiallar, mashqlar to'plami va o'quv qo'llanmalariga ega bo'lsa	O'qituvchi amaliy mashg'ulotlarni uchun yetarlicha o'quv va didaktik materiallar, mashqlar to'plami va o'quv qo'llanmalariga ega bo'lsa
Mustaqil ishlash metodlari	O'quv faoliyatida mustaqil ishslash shakllantirish ularni rivojlantirish uchun	O'quv materiali mustaqil o'rganish uchun imkoniyatini vabersa	Tinglovchilar mazkur bo'yicha mustaqil ishlashga bo'lsa	Tinglovchilar mazkur bo'yicha mustaqil bo'yicha yetarlicha tayyoro'quv va didaktik materiallar ega bo'lsa	O'qituvchi mustaqil ishlarni tashkil qilish bo'yicha yetarlicha tayyoro'quv va didaktik materiallar ega bo'lsa
Induktiv	Umumlashtirish va induktiv xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun	O'quv materiali darslikda induktiv tarzda berilgyn yokichiqarishni uni induktiv tarzdabilib, bayon qilish samarali bo'lgan holda	Tinglovchilar induktiv xulosa chiqarishga deduktiv xulosa chiqarishga	Tinglovchilar induktiv xulosa chiqarishga deduktiv xulosa chiqarishga	O'qituvchi ta'limning induktiv metodlaridan yaxshi xabardor bo'lsa
Deduktiv	Tahlil qilish va deduktiv xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun	O'quv materiali darslikda deduktiv tarzda berilgyn yoki yuritish va uni deduktiv tarzdachiqarishga bayon qilish samarali bo'lgan holda	Tinglovchilar deduktiv fikr xulosametodlaridan yaxshi tayyor xabardor bo'lsa	Tinglovchilar deduktiv fikr xulosametodlaridan yaxshi tayyor xabardor bo'lsa	O'qituvchi ta'limning deduktiv fikr xulosametodlaridan yaxshi tayyor xabardor bo'lsa

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI



III. NAZARIY MATERIALLAR

1- MAVZU: SHARQ MAMLAKATLARIDA TIL VAZIYATI, ULARNING TURLARI, TIL VAZIYATINING O'ZGARISHDA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI (2 SOAT)

Reja:

1. XXRda yashovchi millatlar va elatlar haqida ma'lumotlar
2. Til siyosati tushunchasi
3. Til vaziyati tushunchasi
4. Til vaziyati va til siyosati aloqadorlik masalasi
5. Til va etnolingvistik vaziyat tushunchasi
6. Til va etnolingvistik vaziyat o'rtaqidagi farqlar
7. Til vaziyatining tiplari (turlari)

Tayanch so'z va iboralar: *til vaziyati, til siyosati, Putonghua, mahalliy til, Konfutsiy, Etnos, etnolingvistik vaziyat, til vaziyati, umum davlat, rasmiy, kundalik hayot tarzi, ijtimoiy tabaqa, polietnik muomala, monoetnik davlatlar, bilingvizm, diglossiya, umum davlat, mintaqaviy, mahalliy.*

Tilning aloqa xususiyatlari. Tillarning paydo bo'lishi. Zamonaviy dunyoda o'rganilayotgan til. O'rganilayotgan mamlakatda etnolingvistik vaziyatning rivojlanishiga migratsiya va urbanizatsiya jarayonining ta'siri, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning chegaralangan leksikaga ta'siri. Til vaziyati, ularning turlari. Til vaziyatining o'zgarishiga ta'sir yetuvchi omillari. Tilning zamonaviylashtirish shart-sharoitlari. Leksik fondni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

1.1. XXRda yashovchi millatlar va elatlar haqida ma'lumotlar XITOY, Xitoy Xalq Respublikasi (xitoycha Chjunxua jenmin gunxego) , XXR — Markaziy va Sharqiy Osiyoda joylashgan davlat. Dunyoda aholisi eng ko'p va maydoni jihatidan uchinchi o'rinda turuvchi davlatlardan biri. Sharqda Tinch okeanning Sariq, Sharkay Xitoy va Jan. Xitoy dengizlari bilan o'ralgan. Mayd. 9,6 mln. km2. Aholisi 1 mld. 292 mln. 750 ming kishi (2003). Poytaxti — Pekin sh. Ma'muriy jihatdan 23 provinsiya (Xitoy Taypeyi ham shu hisobga kiradi), 5 muxtor rayon va markazga bo'ysinuvchi 4 shahar (Pekin, Shanxay, Tyanszin, Chunsin)ga bo'linadi.

Aholisi. Xitoy — ko'p millatli davlat. Jami aholining 95% i xitoylar; qolgan qismi turli til guruhi va oilalariga mansub bo'lgan 55 xalqdan iborat. Xitoylarning ko'pi mamlakatning sharkiy qismida yashaydi. Xueylar (7 mln. ga yaqin) ham xitoy tilida so'zlashadi. Xitoyning shim. g'arbida turkiy tillar guruhiga mansub xalqlar — uyg'urlar, qozoqlar, qirg'izlar, salorlar va bosh. shim. va shim. sharqidagi dasht va chala cho'llarda mongol guruhiga kiruvchi xalqlardan mongollar, dunsyanlar, tular, shim. sharqida tungus manjur xalqlari, g'arbi (Tibet) va jan. g'arbida tibet-birma xalklari, jan, day, tai tillarida so'zlashuvchi xalqlar va

b. yashaydi. Sinszyanning jan. g‘arbida pomir tojiklari xam bor.

Dindor xitoylar buddizm (shim. tarmog‘i), daosizm va konfutsiychilikka e’tiqod qiladi. Tibetlar va mongollarning dini — buddizm-lamaizm. Xueylar va turkiy guruhga kiruvchi xalqlarning ko‘pchiligi islom dinining sunna mazhabiga e’tiqod qiladi (pomir tojiklari ismoiliya mazhabida). Rasmiy til — xitoy tili. Yirik shaharlari: Shanxay, Pekin, Tyanszin, Lyuyda, Uxan, Chunsin va b. —

Ushbu ensiklopedik ma’lumotlar orqali Xitoy davlatida yashovchi xalqlar va ularning jug‘rofiy-hududiy joylashuvlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish mumkin.

Xitoyda yashovchi 55 ta etnik guruuhlar nomlari quyidagilar: : chjuanlar, xueylar, uyg‘urlar, ilar, myaolar, manchjurlar, tibetlar, mongollar, tutsyalar, builar, koreyslar, dunlar, yaolar, baylar, xanilar, qozoqlar, taylor, lilar, lisular, shelar, laxular, valar, shuylar, dun-syanlar, nasilar, tular, qirgizlar, syanlar, daurlar, szinpolar, mulaolar, sibolar, salarlar, bulanlar, gelaolar, maonanlar, tojiklar, pumilar, nular, achanlar, evenklar, szinlar, benlunlar, o‘zbeklar, szi-nolar, yugurlar, baoanlar, dulunlar, orochonlar, tatarlar, ruslar, gaoshanlar, xechjelar, menbalar, lobalar va hozirga qadar ro‘yxatga kiritilmagan Tibetda yashovchi kichik millat vakillari mavjud.

Bular orasida eng ko‘p sonli etnik guruh chjuanlar bo‘lib, ularning aholi soni 13,38 mln.kishini tashkil etadi. Eng kichik etnik guruh vakillari — lobalar bo‘lib, ularning soni 1 ming kishini tashkil etadi .

Xitoyda yashovchi etnik guruhlarni istiqomat qilayotgan manzillari bo‘yicha nisbatan quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Xanlar-butun mamlakat bo‘ylab tarqalgan, biroq asosiy ko‘pchiligi Xuanxe, Yanszi i Chjutszyan daryolari bassseynlarida va Sunlyao tekisligida(shimoli sharqda) yashashadi.

Kichik etnik guruh vakillari Ichki Mongoliya, Tibet, Sinszyan-Uyg‘ur avtonom rayonida, Guansi-Chjuan i Ninsya-Xuey avtonom rayonlarida, shuningdek Xeylunszyan, Szilin, Lyaonin, Gan-su, Sinxay, Sichuan, Yunnan, Guych-jou, Guandun, Xunan, Xebey, Xubey, Futszyan va Tayvan provinsiyalarida yashaydilar. Yunnan provinsiyasida 20 mln.ga yaqin turli kichik millat vakillari yashaydi. Koreys millitatiga mansub aholi Szilin provinsiyasining Yanbyan okrugida yashashadi,Tutszya va Myao vakillari Xunan provinsiyasining sharqi qismlarida yashaydilar, Lilar Xaynan orolida, Guandun provinsiyasida istiqomat qilishadi. Xitoyda kichik millat jamoalarining katta millat guruhlari orasida aralashib,yoki alohida-alohida bunday joylashtirilishi davlat siyosatining o‘ziga xos shakli hisoblanadi.

Til siyosati tushunchasi

Til siyosati davlatning ichki siyosati, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’naviy jarayonlari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, shu ko‘rinishlarga teskari ta’sir etish qudratiga ham egadir. Til siyosatining asosiy mazmuni – davlat tili (yoki tillari)ni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Davlatdagи hamma muloqot turlariga xizmat qiluvchi funksional taqsimlangan tillar tizimi va ularni faoliyat shakllari o‘ziga xos so‘zlari va ifodalari bilan umumiyl farq qiladigan sheva adabiy til vaziyati, deb ataladi1.

1) Til vaziyati jamiyatining til hayoti bilan bog‘liq xususiyatlarini, xususan, tillarning shakli va faoliyat shartlarini, ularning ijtimoiy ishlatish sohalarini tartibga soladi. Ayrim hollarda u tillarni har tomonlama rivojlanishiga ko‘maklashadi. Boshqa hollarda aksincha til siyosati, tillarning rivojlanishini sun’iy to‘xtatadi, ularni normal faoliyatiga to‘sinqilik qiladi, bu esa madaniy turg‘unlakka, millatlararo nizolarga, hukmron millat tili tomonidan diskriminatsiya ostidagi millat tillarini zo‘rlik bilan siqib chiqarishga olib keladi. Shuning uchun til vaziyati lingvistlarning diqqat va chuqur tahlil obyektiga aylangan. XXRda biror – bir millatning tili rasmiy til sifatida e’tirof etilmagan bo‘lsa-da, ammo Umum milliy (xan millat nomidan) davlat tili vazifasini bajaradi.

Til vaziyati tushunchasi

2) Til vaziyati – sotsiolingvistikani o‘rganishdagi asosiy tushuncha va tadqiqot predmetlaridan biri hisoblanadi. Zero, keyingi paytlarda global-lashuv jarayonlarining kuchayib borayotganligi bois til vaziyatiga faol ta’sirini o‘tkazuvchi asosiy omilga aylanmoqda.

3) Til vaziyati bu mavjudlikning o‘ziga xos shakli (shuningdek ko‘rinishi) bo‘lib, bir tilning yoki o‘ziga xos o‘xhash tillarning hududiy ijtimoiy munosabatlar va alohida belgilangan geografik hududlar yoki ma’muriy-siyosiy ta’limdagi funksional o‘zaro ta’sirlaridir.

L.B. Nikolskiyning alohida til vaziyatiga nisbatan bergen soddalashtirilgan ko‘rgazmasi bo‘yicha, til vaziyati deb tillarning funksional tarqalishi va mavjud bo‘lish shakllari (adabiy til, dialekt, jargon va h.k)ga nisbatan aytilib, ular mamlakatdagi butun muloqotga xizmat qiladi. Uning paydo bo‘lishi va keyingi shakllanishi turli vaziyatlarga bo‘ysunib, jumladan, o‘zaro til munosabatlari va notil (ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, psixologik, tarixiy, geografik va boshqa) omillariga ham bog‘liq bo‘ladi. Tillarning funksional tarqalishi va ularning saqlanib qolish shakllari (unisi ham, bunisi ham bundan keyin qisqacha tarzda til ta’limi deb ataladi) bu – muomala muhitiga aloqa=dordir. (masalan, umumdavlat rasmiy til va norasmiy kundalik til, kasb-hunarga doir va kundalik – maishiy til).

Til ta’minotining qancha va qanday muloqot tizimlarida ishlatilishiga qarab, quyidagilarga bo‘linadi.

a) etnik guruhlararo tillar (ko‘pmillatli davlatning etnik guruhlari muloqotini ta’minlovchi) ya’ni umumdavlat tillari (bir millatli davlatning dialektual jamoalararo muloqotida ishlatiluvchi tillar);

b) hududiy tillar (mamlakatning hududiy qismlaridagi dialektual jamoalarining etniklararo muomalasi yoki kommunikatsiyasida ishlatila=digan tillar);

v) mahalliy tillar (dialektual jamoalar ichidagi ichki etnik muloqotni ta’minlovchi vosita yoki kommunikatsiya).

Shuningdek, kasb - hunarga oid tillar ta’limi (jumladan fan tillari) va ma’lum dinga xizmat qiluvchi alohida tillarga (Qur’on, arab, hozirda o‘lik pari tili, islom, buddizm, induizmga aloqador sanskrit tillari) ham bo‘lin=gan holda alohida ko‘rsatilishi mumkin.

Tillar ta’limi – muloqot vaziyatidagi komponentlar sifatida – qabul qilingan atamashunoslik aks etgani kabi ishlatilish darajasi bilan farqlanadi. Masalan, etnik

guruhlararo tillar barcha etnik muomalada, mahalliy til esa etnik jamiyatning faqat kundalik - maishiy muomala sidagina foydalaniladi.

Til – ijtimoiy fenomen sifatida rivojlanib boradi va mavjud bo‘ladi. Uning asosiy vazifasi odamlar jamiyatining ehtiyojini ta’minlash, ayniqsa, birinchi galda kichik va katta ijtimoiy jamoalar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni ta’minlash, shuningdek, mazkur jamoaning jamoaviy xotirasini shakllashtirishdan iboratdir. Ayrim bir shaxsning tiliga doir va umumiy xulqi va axloqining o‘ziga xosligi bilan ijtimoiy dalillarga alohida bog‘liq holda ko‘rinadi.

Til va jamiyatning o‘zaro munosabatlari muammosi o‘zida tilning ko‘plab qirralari bilan bog‘liq jihatlarini o‘zida qamrab oladi. Va ularni quyidagicha guruhash lash mumkin.

1. Tilning ijtimoiy birligi: «Tilning jamiyatdagi vazifasi», «Tillarning ijtimoiy taraqqiyotdagi asosiy yo‘nalishlari», «Til va xalqning tarixi»;

2. Tilning jamoatchilik institutlari va jarayonlariga munosabati: «Til va madaniyat»; «Til va din», «Til va ilmiy-texnik taraqqiyot»; «Til va maktab», «Til va ommaviy axborot vositalari»; «Til va mafkura», «Jamiyatning tilga ta’sir etish imkoniyatlari» va h.k.

3. Tilning jamiyatda variantlashuvi: «Funksional variantlar (tilning mavjudlik shakli), «Til va jamiyatning hududiy differensiyasi», «So‘z-lashuvchilarining tili va ijtimoiy roli» va h.k.

4. Tilning ko‘p etnik guruhli jamiyatidagi o‘zaro ta’siri: «Tillar va etnoslar», «Tilli vaziyatlar», «Milliylik va til siyosati», «Tillararo alo-qalar», «Ijtimoiy aspektidagi ko‘ptillilik.

Mazkur muammolar tadqiqi bilan sotsiolingvistika shug‘ullanadi, shuningdek, etnolingvistika, stilistika, ritorika, til muomalasi nazariyasi, nutq etnografiyasi va hakozolar natijasida yuzaga kelgan vaziyatlarni ham sotsiolingvistika o‘rganadi.

Har bir tilning tarixi shu tilda so‘zlashuvchi xalq tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Til millatning shakllanishida alohida muhim o‘rin tutadi. O‘zaro munosabatlar tasvirlanayotganda, ya’ni asl ijtimoiy jamoadagi turli tillarning variantlari yoki turlari xususida so‘z borganda, til vaziyatlari to‘g‘risida so‘z boradi.

Til vaziyati va til siyosati aloqadorlik masalasi

Til vaziyati va til siyosatining aloqadorlik masalasi deganda, ko‘proq davlatning boshqaruv doiralari, siyosiy partiyalarning til siyosatiga bevosita ta’siri nazarda tutiladi.

Til siyosati atamasi mohiyatida esa, til vaziyatini o‘zgartirish yoki saqlab qolishga yo‘naltirilgan choralar tizimi tushunilib, unda iste’moldagi lingvistik me’yorlarni o‘zgartirish yoki barqarorlashtirish, adabiy tillarni me’yorashtirish, uni leksika va atamashunoslik bilan boyitish masalasi ham tushuniladi.

Boshqacha aytganda, til siyosati – jamiyat nuqtai nazaridan qaraganda davlatning til muammolarini hal qilishga doir mafkuraviy tamoyillar va amaliy tadbirlar birligidir.

Ko‘p millatli davlatda til siyosatining alohida murakkabliklar bilan

farqlanishi shundaki, bunda ko‘ptillilik, milliy tarkib va millatlararo munosabatlarning o‘ziga xosligi, alohida tillar va ularni jamiyatda so‘zla—shuvchilarning roli kabi omillarni ham albatta hisobga olmay bo‘lmaydi.

Til siyosati tizimidagi mafkuraviy tamoyillar va amaliy tadbirlar o‘zaro bog‘liq va ajralmasdir, chunki til siyosati milliy siyosatning tarkibiy qismi hisoblanib, u asosiy jihatlari bilan keyingi umumiylarga bog‘liq bo‘ladi.

Zamonaviy bosqichdagi til siyosati muammolarning murakkablik darajasiga qarab ishlab chiqiladi – bu esa umum davlat va etnik guruhlararo tillarni tanlashdan tortib amaliy normalizatorlik va so‘z yasovchilik faoliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Til siyosati davlatning ichki siyosati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy-siyosiylik va madaniy-mafkuraviy jarayonlarga bog‘liq holda ularga teskari ta’sir ham eta oladi.

Til siyosati jamiyatning tilga nisbatan ongli munosabati bilan bog‘liq bo‘lib, shu nuqtai nazardan o‘zida uslubiy va ijtimoiy tarkibning umumiyligi ifodasi bo‘lib, u yoki bu davlat siyosiy tizimining funksionallashuvi, rivojlanishi va tillarni o‘zaro ta’siri, ularning ma’lum bir xalq yoki xalqlar hayotidagi rolini belgilaydi. Til siyosatining diqqat markazida esa keng ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga ega yirik muammolar turadi; tez-tez o‘zgartirishlar va islohotlarning hammasi ham (masalan, orfografiya, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar va h.k.) unga ta’sir etish tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lavermaydi.

Til siyosati eng avvalo leksik semantik tizimga, ayniqsa umumiyligi-siyosiy leksika, shuningdek, adabiy tilning stilistik differensiyalashuvi, tilning dialektik umumlashuvi va dialektik farqning yo‘qolib borishiga davlat tomonidan ishlab chiqilgan orfografik islohotlarga ta’sir qiladi.

Madaniyat sohasidagi mafkuraviy maqsadlarga muvofiqlashgan holda sinflarning belgilanishida til siyosati rejali bo‘lishi mumkin (sobiq sho‘ro ilmiy adabiyotida bunday siyosat til qurilishi deb atalardi; g‘arbiy yevropa va amerika adabiyotida «tilni rejalashtiruv» termini ishlatilgan) va retrorejali (til va nutq madaniyati) ko‘rinishida bo‘ladi. Hozirgi zamonda bunday masalalar yechimi birinchi navbatda millatlar, xalqlar va ularning tillaridagi amaliy teng huquqlilikni ta’minlaydi. Shuningdek, u iste’moldagi milliy tildan milliy davlatchilikni yaratish, ona tili asosidagi milliy madaniyatni rivojlantirish va buning uchun zarur bo‘lgan shartnomalarni ta’minalashni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari u ona tilida ommaviy kommunikatsiya (matbuot, radio, televide niye, kino), shuningdek, rasmiy ro‘yxatga olish va ish yuritishni qabul qiladi.

Ko‘p tilli davlatda til vaziyati va til siyosati bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikkita o‘zaro ta’sir ehtiyojlarini ifodalaydi, ya’ni identik (birxillashtirish) va o‘zaro tushunish ehtiyojlarini.

Birinchi ehtiyoj har bir insonning har qanday vaziyatda ham o‘z ona tilidan foydalanish istagi – ya’ni, erta bolalikdan ongsiz ravishda o‘zlashtirilgan tilni ifodalaydi. Identiklik bilan bog‘liq bo‘lgan ideal vaziyat bu – bir tillilikdir. Ikkinci ehtiyoj esa istalgan kishisi bilan hech qanday muammosiz muloqotda bo‘lishda tushuniladi. O‘zaro tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan ideal vaziyat – butun ijtimoiy jamoada bitta umumiylarga tildan foydalanishdan iborat.

Feodal davrida yuzaga keltiriladigan til siyosati xalqlarni mavh etganlar

tomonidan o‘rnatilardi (o‘zga tillik hududlarda o‘rtalashtirishni arab yoki fors tillarining tarqalishi).

Burjua mafkurasiga asoslangan turli tarixiy o‘zgarishlar davridagi til siyosatiga davlat tizimi e’tiboridan tashqari bo‘lgan milliy kamchilikni tashkil etuvchilarining dialekti va tillari amaliyoti yotib, bu esa o‘z o‘rnida tillar va dialektlarning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lgan, bir so‘z bilan aytganda, faqat milliy ko‘pchilikni tashkil etuvchi millat tiliga nisbatangina til ixtiyoriligi siyosati kam sonli xalqlar tilidan foydalanishning chegaralanganligi siyosa-tida ezilgan xalqlarning madaniyati va tillariga nisbatan e’tiborsiz munosa-batdagi siyosiy «vesternizatsiya»ni keltirib chiqaradi. (masalan rivojlangan davlatlarning sobiq kolonial tizimlar tiliga asoslangan holda ularning kengaytirilgan tizimlarda saqlanib qolishiga urinishi).

Amerikalik sotsiolingvistlar AQSHga nisbatan til xilma xilligi haqida emas, aynan tilning mahalliyligi haqida gapirishni afzal biladilar; bunday til siyosati millatning madaniyati, xalqning umumiy-siyosiy hayotiga nisbatan tilning roli va unda so‘zlashuvchilar hayotiga doir masalalarga illyuzion erkin yondashuvni yaratish ekan, aslida esa davlatni mute xalqlarning tili to‘g‘ri-sidagi siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy g‘am-xo‘rligidan ozod qilib keladi hamda davlatni milliy kamchilikni tashkil etuvchilar, shu tilni ishlatuvchilar hayotidagi roli va ahamiyatiga nisbatan to‘g‘ri baho bermaslik, bu tillarning rivojlanishiga, ularning ijtimoiy funksiyalarining kengayishiga ta’sir etish jarayonlariga qarshi raddiyani yuzaga keltiradi.

Davlatning til siyosati bir muncha yoki nisbatan qattiq bo‘lishi mumkin, ammo uning asosiy mazmuni – davlat tili (yoki tillar)ni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Hozir ko‘pgina mamlakatlarda siyosat ma’lum ma’noda yumshagan, kamchilikning til huquqlari qonunchilik tomonidan quvvatlana boshlangan. Biroq shunday bo‘lsa-da, asosiy vazifa davlat tilini keng joriy qilishdan iborat bo‘lib qolmoqda.

Turli davlatlardagi til siyosati ham bir-biridan farqlanadi.

Ammo til vazifyatlarini o‘rganish – rasional til siyosatini tanlashdagi muhim yo‘nalishidir, ta’sirchan davlat til siyosatini ishlab chiqish esa mavjud til vaziyatiga nisbatan bir xil baho berilishini talab etadi.

Jahondagi mavjud tillar albatta qaysidir bir xalq, el, elat, millat, qabila, hech bo‘limganda biror urug‘ning tili ekanligi shubhasiz. Dunyo xaritasi Yer sharining insoniyat istiqomat qiluvchi quruqlik qismini aks ettiradi. Bu xaritaga nazar tashlanar ekan u insoniyatning necha ming yillik ko‘hna tarixini yodga soladi.

Til siyosati davlatning ichki siyosati, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’naviy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularga ijobjiy yoki salbiy ta’sir etish kuchiga egadir. Xitoyda til vaziyati quyidagicha tasniflanishi mumkin:

1. Xitoyda yashovchi kichik millatlar tillarining rasmiy lashmaganligi.
2. Putungxua tilining Xitoy davlat tiliga asos etib olinganligi.

Til vaziyati deyilganda “Bir til yoki bir necha tillar majmuasining o‘zları mavjud bo‘lib turgan territoriyada ijtimoiy-hududiy, ma’lum jug‘rofiy yoki ma’muriy-siyosiy tashkilotlar hududida esa ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda

bo‘lib turishi tushuniladi”

Ko‘pmillatli davlatda til siyosati – uning milliy siyosatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Jamiyatning til hayoti xarakterini, jumladan tillarning mavjudligi shakllari va shartlarini, ularning ijtimoiy qo‘llanilish sohalarini tartibga solar ekan, til siyosati til vaziyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi payt u tillarning rivojlanishiga ,til egalarining madaniyat darajasi o‘sishiga yordam bersa,ayrim paytlarda aksincha tillarning taraqqiyotiga sun‘iy to‘siflar yaratadi hamda ularning normal holatda bor bo‘lishiga xalal beradi, bundan madaniy turg‘unlik,millatlararo nizolar,kichik millatlar tillarini hukmron millat tili tomonidan haqsizlantirib,siqib chiqarilishi kabi noxushliklar kelib chiqadi .

XXRda til vaziyati va til siyosati xususiyatlari

Xitoy tili tarqalgan hududda til vaziyati ikkita asosiy unsurdan iborat:

1. Xitoyda uzoq davr mobaynida feodalizm hukmronligi sabab bo‘lgan xitoy tili shevalarining ko‘pligi.

2. Putunxua rivojlanayotgan umumxalq milliy xitoy tili. Ayrim hudud-larda shevalararo muloqot vositasini bajaruvchi yirik siyosiy markaz shevalari (Pekin, Shanxay, Guanchjou va hokazo) Xitoy tili vaziyatida aniq o‘rinni egallagan. Xuddi shu ahamiyatga uyezd shevalari ham ega bo‘lib, ushbu uyezdga kiruvchi hamma qishloqlar aholisi uchun muloqot vositasini bajaradi2.

Rivojlangan Xitoy davlati 21- asrga kelib Sharqning buyuk mamlakatiga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu mamlakatning samarali tajribasini o‘rganib, undan kerakli xulosalar chiqara olish bugungi qo‘shni davlatlar afkor ommasi oldidagi vazifalardan hisoblanadi. Ulkan tarixiy merosga ega bo‘lgan Xitoyni bemalol bugungi kunda Sharq taraqqiyoti va sivilizatsiyasi bo‘yicha ustoz deya olish mumkin. Zamonaviy kremniy vodiysiga asos solib, eng rivojlangan Na-Na texnologiyalar asrida peshqadamlilik qilayotgan bu davlat amalda boshlagan ishlari maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsata olgan ilg‘or siyosat egasi bo‘lib turibdi. Bugungi Xitoydagi til vaziyati masalasida to‘xtalar ekanmiz, avvalo mavzuning quyidagi jihatlariga nazar qaratishni o‘z oldimizga vazifa qilib olsak va shu masalalarga atroflicha to‘xtalsak, degan umiddamiz. G‘arb va Sharq sinologlarining jamlagan materiallari, yozgan ilmiy ishlari, tadqiqotlari hamda maqolalaridan iqtiboslar keltirib, ko‘pfikrlilik tamoyili asosida fikr yuritishga urinamiz. Amalda u yoki bu masala bo‘yicha to‘g‘ri xulosaga kelish uchun birgina shaxsiy fikr yetarli bo‘lmaydi. Bu masalaga yondoshganda o‘z ilmiy salohiyati va tafakkuri imkoniyatlaridan kelib chiqib, amalda o‘zi yashab turgan davlatda muayyan masalaga munosabat nuqtai nazardan kelib chiqqan holda fikr bildiradi. Tarixda dunyo siyosati dasturilamallari darajasiga ko‘tarilgan ilmiy ishlar borligi ayon. Davlat rahbarlarining tashqi va ichki siyosatlari ham ana shunday ilmiy asarlardagi fikrlarni inobatga olgan holda yuritilganlik holatlariga ko‘p misollar topsa bo‘ladi. Xitoydagi zamonaviy til vaziyati mavzusiga oydinlik kiritishda quyidagi masalalarga to‘xtalish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Xitoy mamlakati va unda yashovchi millatlar va elatlar haqida ma’lumotlar.

2. Xitoy til vaziyati masalasiga to‘g‘ri yechim topishda Xitoyda mavjud bo‘lgan an’anaviy falsafiy-ilmiy maktablar, ta’limotlar, institatlarning ijobiyl

ahamiyati.

3. Xitoy davlatining ko‘pmillatlilik va ko‘ptillilik vaziyatida tutgan pozitsiyasi.

4. XXRda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy-siyosiy islohotlarning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni.

5. Xitoy iqtisodiy yuksalishining iqtisodiy omillarini jahon arenasiga olib chiqishda xitoy tilining o‘rni, uni yanada takomillashtirish uchun Xitoy davlati va hukumati amalga oshirayotgan dasturlarni o‘rganish saboqlari.

6. O‘zbekiston Respublikasida ko‘p millatlilik, baynalmilal aloqalarini barqarorlashtirishda G‘arb va Sharq amaliy tajribalarini umumlashtirish metodi va uning ijobiy natijalari.

Xitoy til vaziyati masalasi va uning ijobiy ahamiyati

Xitoy dunyodagi eng ko‘p aholiga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. 2019- yil ma’lumotlari bo‘yicha ushbu mamlakatda 1mlrd.400 mln.50 ming kishi istiqomat qiladi. Aholining 60,6 foizi shaharlarda va qolgan 39,4 foiz qismi qishloqlarda yashaydi. Xitoy aholisining 51,1 foizi erkaklardan iborat .

Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etilganga qadar u yerda yashovchi kichik millatlar tillari funksional rivojlanishini tadqiq etish masalasiga unchalik e’tibor qaratilmagan va shu sababli kichik millatlar til vaziyati borasida ma’lumotlar yetarli emas edi. XXR tashkil topgandan keyingi dastlabki yillarda, ya’ni 1956-1960- yillarda mamlakatda yashovchi millatlarning til vaziyatini o‘rganish borasida keng salmoqli tadqiqot ishlari boshlandi. Hozirgi vaqtida xitoylik sotsiolingvistlar har yillik hisobot ishlarini olib borishmoqda. 2012-2014-y.y.da Day Sinsya rahbarligida Pekin Millatlar markaziy Universitetida Xitoyning Yunnan provinsiyasida kichik milliy tillarni tadqiq etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda .

1.2. XXRning dunyodagi ta’sirini oshirishga qaratilgan madaniy-ta’lim vositalari

Hozirda XXRning dunyodagi ta’sirini oshirishga qaratilgan madaniy-ta’lim vositalari ta’siri nuqtai-nazaridan Xitoyning dunyodagi ta’sirini belgilab beruvchi savdo-iqtisodiy, siyosiy vositalar bilan birga boshqa davlatlarning xorijdagi madaniy-ta’lim vositalariga o‘rnini bo‘shatib beradi. 2010 yilda “Xitoy” jurnaliga bergen intervyusida Xitoyning Rossiyyadagi elchisi Lyu Guchan: “Rossiyada Xitoy madaniyatining tarqalishi hozircha yetarli darajada emas... Biz hozircha rus xalqini qiziqtiradigan, o‘ziga tortadigan madaniyat mahsulotini yetkazib bera olmayapmiz”, -degan fikrlarni aytib o‘tgan edi. Bu borada Xitoy uchun madaniyatni xorijda targ‘ib qilishdan ko‘ra ko‘proq davlat ichida madaniyatni saqlab qolish masalasi ko‘proq dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Hozirda xitoyda foydalanilayotgan quyidagi madaniy-ta’lim vositalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Xitoy tilining tarqalishi. Xitoy tili – dunyoda eng ko‘p foydalaniladigan tildir. U 1,5 mlrd.dan ortiq odamlar uchun birinchi til hisoblanadi (ispan tili – 500 mln.dan ortiq, ingliz tili esa – 400 mln.ga yaqin odamlar uchun). Xitoy tilida XXRning o‘zini aholisidan tashqari Indoneziya, Singapur va Malayziya

davlatlarining ko‘pchilik aholisi ham gaplashadi. Xitoy tilining murakkabligiga qaramasdan oxirgi yillarda undan foydalanuvchilarning soni ortib bormoqda, bu esa avvalo Xitoy bilan iqtisodiy aloqalarning o‘sayotganligi bilan bog‘liqdir. Shu munosabat bilan obyektiv ravishda xitoylik mutaxassislarni jalg qilgan holda xitoy tilini o‘rgatishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. XXR dunyodagi xitoy tiliga bo‘lgan ehtiyojni markaziy va hududiy mahalliy hokmiyat organlarining homiyligi ostida amalga oshiriladigan turli ta’lim dasturlari orqali qondirib kelmoqda. XXR hukumati har yili xitoy tilini o‘rganmoqchi bo‘lgan xorijiy talabalar uchun stipendiyalarni tashkil qilib kelmoqda. Bundan tashqari, ko‘plab odamlar Xitoyga o‘z hisoblaridan til o‘rganish uchun kelmoqdalar. 2008 yilda XXRda 189 ta xorijiy davlatdan 223 mingta talaba (2007 yilda – 195 mingta) ta’lim oldi.

2. Konfutsiy instituti. Xitoy madaniyati va tilini xorijiy davlatlarda tarqalishini ta’minlash maqsadida Xitoy hukumati madaniy-ta’lim markazlari – Konfutsiy institutlariga moliyaviy va texnik yordam ko‘rsatib kelmoqdalar. Ilk bora tajriba tariqasida Konfutsiy instituti Toshkent shahrida 2004 yilda tashkil etilgan edi. 2009 yilga kelib 88 ta davlatda 282 ta Konfutsiy instituti faoliyat ko‘rsatayotgan edi. Xitoy Ta’lim vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra 2020 yilga kelib 500 dan ortiq Konfutsiy institutini ochib rejalashtirilmoqda.

3. Xorijda ta’lim. Xitoyda professional kar’era qilish uchun xorijda ta’lim olib kelish foydali, deb hisoblashadi. Sinxua informatsion agentligi tomonidan nashr etilgan ma’lumotlarga muvofiq, Xitoy institutlari rektorlarining 77,7%ni, Xitoy Fanlar akademiyasining 84% a’zolari, Xitoy injenerlik akademiyasining 75 %ni, barcha Xitoy fan doktorlarining 62%ni xorijda stajirovkani o‘tashgan. Bu sohadagi Xitoy uchun eng katta muammo shundaki, shu yo‘nalishda xorijga ketganlarning ko‘pchiligi qaytib kelmayapti. 1978 yildan 2008 yilgacha vaqt oralig‘ida hammasi bo‘lib xitoyliklardan 1,4 mln. odam xorijda ta’lim olgan bo‘lsa, undan 390 mingtasi qaytib kelgan. Shu bilan birga, xorijga o‘qish uchun ketayotgan talabalarning soni kundan kunga ortiq bormoqda. 2001 yilda 25 mingta xitoylik talabalar xorijga o‘qish uchun ketgan bo‘lishsa, 2008 yilda 180 mingta talaba ketgoan, ulardan 90%ni o‘z hisobidan ta’lim olishgan. Xitoylik talabalar orasida eng ko‘p tarqalgan xorijiy o‘qish joylari asosan AQSH (deyarli yarim xitoylik talabalar ta’lim olmoqda), Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Yaponiyada joylashgan.

4. Xitoy diasporasi. Xitoydan kim va qachon immigratsiya qilgan bo‘lishidan qat’iy-nazar, hammasi vatanparvar bo‘lib, o‘zлari yashaydigan oilada, hududda o‘z madaniyatini saqlab qolishga harakat qilishadi. Turli xil fikrlarga ko‘ra, dunyoda xitoylik disaportalarning soni 40 mln.ga yaqin, ulardan 78,7%ni Osiyoda, 15,4%ni – Amerikada, 4,1%ni – Yevropada, 1,7%ni – Okeaniyada, 0,3%ni esa – Afrikada istiqomat qiladi. Xitoy hukumati xitoylik xorijdagagi diasporalar orqali avvalo xorijiy davlatlardagi o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun tayanchni hosil qilishda foydalanishga harakat qilishmoqda.

5. Ijtimoiy tadbirdilar. Xitoyga va Xitoy madaniyatiga bo‘lgan qiziqishni oxirgi yillarda XXRda bo‘lib o‘tgan va o‘tayotgan madaniy-ijtimoiy va sport tadbirdilari orqali ham rag‘batlantirishga harakat qilinmoqda. Xitoylik sportchilarning 2008 yilda Pekinda bo‘lib Olimpiadadagi muvaffaqiyatlari, 2009

yildagi XXRning tashkil etilishiga 60 yil to‘lishi munosabati bilan Tyananmenda bo‘lib o‘tgan namoyish, Shanxaydagi EKSPO-2010 ko‘rgazmasi kabilar doimiy ravishda dunyo hamjamiyatining Xitoy va xitoyliklarga bo‘lgan qiziqishini oshirib bormoqda.

Xitoyning dunyodagi ta’siri oshib borishi turli davlatlarda turlicha reaksiya uyg‘otmoqda. Pekin uchun ushbu jarayon o‘ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi.

Birinchidan, XXR uchun o‘zining ta’sirini dunyoda oshirish borasidagi eng asoyi va birinchi navbatdagi masala bo‘lib Xitoyning o‘zini “bir davlat” prinsipiga muvofiq birlashishi hisoblanadi. Bu o‘rinda markaziy muammo Tayvanning qo‘silishi masalasidir. Bunning uchun Xitoy hukumati faqatgina svado-iqtisodiy vositalardan foydalaniib, Xitoy-Tayvan munosabatlarida savdo va moliyaviy aloqalarini oshirishga harakat qilinmoqda, bu esa o‘z navbatida Tayvan uchun Xitoymga qo‘silishni yanada foydali ekanligini ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, 1997 yilda Xitoy tarkibiga noyob tarzda “bir davlat – ikki tizim” prinsipi asosida Gongkongning, 1999 yilda Makaoning kirishi amaliy jihatdan quyidagicha tavsiflanishi mumkin. Xususan, XXR tarkibiga kirgandan so‘ng Gongkong va Makaoning milliy xavfsizlik masalalari Pekin tomonidan hal qilina boshlandi. Gongkong va Makaolar Xitoyning maxsus ma’muriy hududiy birliklari maqomini oldilar va o‘zlarining siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy tizimlarini, yurisdiksiyalari (Gongkongda – anglosakson huquqiy tizimi amal qilsa, Makaoda – Portugaliya huquqiy tizim amal qiladi), valyuta, boj chegaralarini (masalan, XXR fuqarolariga Gongkong va Makaoga borish uchun viza talab qilinadi) saqlab qoldilar.

Ikkinchidan, Xitoyning dunyodagi ta’sirini oshirish jarayoni – bosqichma-bosqich olg‘a boruvchi ko‘rinishga ega bo‘lgan jarayondir. Pekin o‘zining ichki ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilib bo‘lgachgina tashqi dunyoga o‘zining ta’sirini oshirishga bo‘lgan harakatlarini boshlaydi. Hozircha esa, keltirilgan savdo-iqtisodiy, siyosiy va madaniy vositalar Xitoyning ko‘proq butun dunyodagi emas, balki hududiy darajadagi (masalan, Osiyo, Afrika, Okeaniya va Lotin Amerikasi) ta’sirni oshirishga doir eksperimental vositalar sifatida ko‘rilishi mumkin.

Uchinchidan, oxirgi vaqtarda Xitoy uchun dunyodagi ta’sirini oshirish o‘zining YAIM oshishi barqarorligini saqlab qolish uchun zaruriy holat edi. Biroq Xitoy jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida milliy iqisodiyotni tarkibiy o‘zgartirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshira boshladи, xususan iqtisodiy o‘sishning tashqi manbalaridan ichki iste’molni rag‘batlantirish yo‘li bilan ichki manbalariga o‘ta boshladи. Bundan tashqari, xom-ashyoga bo‘lgan qaramlik Xitoyni iqtisodiyotni innovatsiyalarga asoslantirishga, YAIMda xizmatlar hissasini ko‘paytirishga majburlaydi. Ushbu siyosat Xitoyning dunyodagi ta’sirini oshirish jarayoni tezligini kamaytiruvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, funksional taqsimlangan tillar tizimi va ularning mavjud shakllari (adabiy til, dialekt, jargon va h.k.) til vaziyati deb ataladi. Til tuzilmalari qancha va qaysi muomala sohalarida ishlatalishiga qarab ular a) o‘zaro etnik yoki umumdavlat; b) mintaqaviy (mamlakatning ma’lum bir qismida qo‘llaniladigan); v) mahalliy (o‘zaro etnik yoki sheva guruhlari orasida

Til vaziyatining tiplari (turlari)

muomala vasitasi hisoblangan) qismlarga bo‘linadi. Kasb-hunar til tuzilmalari (jumladan, ilm-fan tili) va ma’lum bir din uchun hizmat qiladigan marosim, urf-odat tillariga ham ajralishi mumkin. Quyidagi til vaziyatlari tip (tur)lariga ajraladi:

Birinchi tipda rasmiy tan olingan va hali rasmiy tan olinmagan makrovasitachi hisoblangan avtoxton tillar (ya’ni, o‘zaro etnik muomala uchun qo‘llanilgan til) til vaziyatlarida birlashadilar. Bu tillar mazkur davlat hududida yoki biron bir etnos tilining butun mintaqada o‘z-o‘zidan tarqalishi natijasida yuzaga kelib, u asosan, o‘zaro etnik iqtisodiy aloqalarni tiklanishi sababli vujudga keladi. Til vaziyatining bu tipi til-makrovositachisining tarqalish darajasi bo‘yicha bir qancha turda namoyon bo‘ladi.

A) Agar ustunlik qiluvchi etnosning makrovositachi rolini bajaruvchi til bu rolga talabgor bo‘lgan boshqa avtoxton til bo‘lmasa til vaziyatlari hisoblanadi.

B) Agar til-makrovositachi biron bir yirik etnos tili bilan to‘g‘ri kelsa til vaziyatlari hisoblanadi. Mazkur turdagি til vaziyatlarida ba’zan makrovositachi sifatida yirik miqdordagi etnos tili birlamchi bo‘lmasligi mumkin. Ushbu tipning til vaziyatini ajralmas komponenti sobiq mastamalakachi davlat tili hisoblanadi. Funksionallik nuqtai nazaridan avtoxton makrovositachi va G‘arbiy Yevropa tili teng emas.

V) Til-makrovositachi sifatida aholining ozchilikni tashkil qiluvchilar tili faoliyat olib boruvchi mamlakatlardagi til vaziyatlari.

Birinchi tipdagi til vaziyatlariga turg‘unlik xos. Ularda ozmi ko‘pmi miqdorda til-makrovositachi mavqega ega bo‘ladi. Lekin ularni mutloq barqaror deb aytolmaymiz. Hozirgi vaqtda avtoxton tillarning rolini yanada oshib borishi kuzatilmoqda.

Til vaziyatining **ikkinci tipida** sobiq mustamlakachi davlat tili yagona makrovositachi hisoblanadi. Bu tipdagi vaziyatning mavjudligi asosan mustamlakachilik natijasi hisoblanib, imperialistik bo‘linishda etnik chegaralar e’tiborga olinmagan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustamalaka boshqaruvi tufayli bu davlatdagi barcha etnoslar uchun majburan mustamlakachi davlat tili joriy etilgan. Avtoxton tilning tarqalishi amaliy jihatdan rasmiy muomaladan chiqarilgan. Shunday qilib, sobiq mustamlaka davlatlarida butun davlat bo‘yicha qo‘llaniladigan avtoxton til yo‘q bo‘lgan.

Mamlakatdagi til tuzilmalarining tarqalishiga ta’sir etuvchi etnik omillar va jarayonlardan tashqari, qator boshqa omillar ham mavjud bo‘lib, ular til vaziyatlariga bevosita ta’sir etadi va ularni o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

1) Bunday omillarga birinchi navbatda, til siyosati, ya’ni davlat, jamiyat, partiya tomonidan til vaziyatini saqlash yoki o‘zgartirish uchun, mavjud lingvistik mezonlarni barqarorlashtirish yoki o‘zgartirish uchun qo‘llanilgan chora-tadbirlar tizimi kiradi. Har qanday davlatda til siyosati birinchi navbatda o‘zaro etnik muomala tilni tanlash va tasdiqlashga duch keladi. Bunday tilning muammolarida bir qancha jihatlar mavjud.

Birinchi – kommunikativ. Ko‘p millatli har bir davlatda muomala vositasi uchun o‘zaro milliy va umum davlat tiliga talab mavjud bo‘lib, bu o‘rinda, mazkur davlatda istiqomat qiluvchi barcha xalqlarning tillaridan foydalanish imkoniy yo‘q. Shuning uchun ham xorijiy Sharq davlatlarida eng qulay yo‘l bir tildan

foydalishdir. Bunday tilning tanlanishi milliy raxbariyatni tashkillashtirish, iqtisodiyot, jamiyat va ommoviy axborotni boshqarish, milliy kadrlarni tayyorlash lozimligi bilan bog‘liq. Shuning uchun ham mamlakatdagi juda ko‘p etnoslar so‘zlashadigan o‘zaro etnik vazifani bajarishi mumkin bo‘lgan mavjud bir qancha avtoxton tillar orasidan etnik hudud doirasidan tashqarida ancha keng tarqalgan til tanlanadi. Shu bilan birga, bu ancha keng tarqalgan tillar ko‘p yillar davomida mustamlaka boshqaruvi, ta’lim, zamonaviy ilm-fan hamda rasmiy ravishda o‘zaro etnik muomala sifatida foydalilanigan biron bir G‘arbiy Yevropa tili bilan raqobatda bo‘ladi. Shu sababli, norasmiy muomala doirida mavjud bo‘lib, eng keng tarqalgan avtoxton tillar ham sobiq mustamlaka davlatlari tilini tezda o‘zgartirish uchun lingvistik jihatdan to‘liq tayyor bo‘limgan. Faqat ba’zi bir davlatlarda (SRV, Indoneziya Respublikasi) G‘arbiy Yevropa tilini muomaladan butunlay chiqarib tashlashga tuyassar bo‘lganlar.

Bu muammoning **ikkinchi jihat** – siyosiydir. G‘arbiy Yevropa tili o‘rniga umumdavlat va o‘zaro milliy muomala uchun avtoxton tilni tanlash mamlakat raxbariyatining til sohasidagi izchillik va qat’iylik bilan mustamlaka qoldiqlarini yo‘q qilish bo‘yicha o‘tkazgan chora-tadbirlari avvalo, hukumat tepasidagi sinf, ijtimoiy tabaqa va guruhlar manfaati orqali belgilanadi. Shunday qilib, mazkur masalani hal etilishi demokratik (aksariyat aholi manfaati bo‘lgan) va demokratik bo‘limgan (faqat yuqori sinf manfaatlariiga javob beradigan) turga (tilga) bo‘linadi. O‘zaro etnik muomala uchun avtoxton tilning tanlashni siyosiy ahamiyati avvalo, bu tilning milliy masala bilan bog‘liqligi bilan chambarchas bog‘liq. Ko‘pgina etnoslarning birini tili rasmiy ravishda davlat tili darajasida ishlatilishi, bu tilning tarqalishi hamda o‘zaro etnik aloqalarda qo‘llanilishining uzoq muddatiga qaramasdan, bu til ona tili hisoblangan etnosni imtiyozli o‘ringa qo‘yadi. Boshqa etnoslar esa o‘zlarini kamsitilgan sezadilar va mana shu sababdan etnik ziddiyatlar kelib chiqadi. Shuning uchun ham o‘zaro etnik muomala uchun til tanlanganda etnik xolislikka (betaraflik) katta ahamiyat berish lozim.

Bu muammoning **uchinchi jihat** – g‘oyaviy (mafkuraviy)lik. Til tanlash va mafkuraning o‘zaro aloqasi, avvalo, u yoki bu din tilini bu o‘ringa qo‘yilishi bilan namoyon bo‘ladi. (Sobiq Buyuk Britaniya Hindistoni Pokiston va Hindistonga bo‘lingandan so‘ng, Pokiston islom davlatining rasmiy tili musulmonlarning tili sifatida urdu tili deb e’lon qilingan. Chunonchi, bu til aholining kam sonli qismining ona tili bo‘lgan. Hindistonning davlat tili sifatida hindiy tilining tanlanishi, ehtimol buddaviylik (induizm) tili sifatida e’tirof etilgandir).

Umumdavlat va o‘zaro etnik muomala uchun til tanlashdagi mafkuraviy ta’sir ikkinchidan, mamlakatda istiqomat qiluvchi etnoslarni madaniy-siyosiy birlashtirish, fuqarolik tuyg‘usini tatbiq etish, millatparstlik, mintaqaparastlikni shubha ostida ushslash, separatizmni kelib chiqishini to‘xtatish uchun mamlakatdagi hukmron doiralar odatda, biron bir avtoxton tilni tanlashga urinishlarida namoyon bo‘ladi. Aynan shu maqsad yo‘lida, mustaqil bo‘lgan ko‘p millatli davlatlarda “yagona davlat – yagona millat – yagona milliy til” mafkurasi tashviq-targ‘ib etiladi. Biroq, boshqa tomondan esa, ichki davlat integratsiyasida ustunlik qiluvchi etnosning tilini qo‘llanilishi bu etnosda shovinizm ruhini vujudga keltirib, etnik etnoslar bo‘ysunish holatida bo‘lib qoladi va keyinchalik ularning

huquqi poymol etiladi va bu narsalarga javoban millatparastlik kayfiyatlar va separatistik g‘oyalar kuchayishi kelib chiqadi (Bunga yorqin misol: Sharqiy Pokistondagi bengallarni milliy mustaqillik uchun harakati va uning natijasida tuzilgan Bangladesh davlati). Qator davlatlarda hatto, “milliy ittifoq tili” deb hisoblangan G‘arbiy Yevropa tillarning saqlanib qolishi ham aynan, o‘zaro milliy ziddiyatlarni kelib chiqishi uchun xavf tug‘dirmoqda.

Umum davlat tilini tanlashning **to‘rtinchı** jihatı – ijtimoiylik. Mustaqil bo‘lgan davlatda aholining juda kam qismi G‘arbiy Yevropa tillarini biladi. Chunonchi, G‘arbiy Yevropa tilidan asosan mulkdor sinf va ziyoli oqsuyaklar foydalanadilar. Bu tillarni aholi o‘rtasida tarqalishi uchun o‘n yil, balki bir qancha avlodlar hayoti kerak bo‘ladi. Shu munosabat bilan qoloqlik, ommoviy savodsizlikni yo‘qotish muammosi dolzarb bo‘lib qolib, ilmiy-texnika inqilobi sharoitidagi yo‘nalish G‘arbiy Yevropa tillari yordamida hal qilinmay qolib ketadi. Vujudga kelgan ahvolda avtoxton tildan foydalanish uchun urinadilar (Buning uchun Osiyo davlatlarida boshlang‘ich va o‘rta maktablarda, mahalliy radio va televizion ko‘rsatuvlarda foydalanish uchun yozuv (alifbo) tashkil etiladi). G‘arbiy Yevropa tillari mahalliy oqsuyaklarning muomala vositasi bo‘lib qolganligi uchun ular va keng xalq ommasi o‘rtasida bo‘shliq hosil bo‘lishiga olib keladi. G‘arbiy Yevropa tillari ko‘pincha mulkdorlar tili sifatida tavsiflanadi.

Shunday qilib, umum davlat va o‘zaro etnik muomala uchun tilning tanlanishi o‘zaro ta’sirda bo‘lgan omillar yig‘indisini hisobga olish bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z navbatida, mamlakatdagi etnolingvistik, ijtimoiy-siyosiy, milliy vaziyatga aksincha ta’sir etadi.

O‘zaro etnik muomalada til tanlash va tasdiqlashning ikkinchi til muammosi eng avvalo, rasmiy va o‘zaro etnik muomala uchun taklif etilgan yoki etilayotgan avtoxton tillarning normallashtirish va zamnaviylashtirish hisoblanadi. Birinchi navbatda, bu tillarning lug‘at tarkibini yangi leksika (so‘zlar) va ilmiy-texnik atamalar bilan to‘ldirish vazifasi qo‘yilib, shunda, bu til to‘liq darajada unga yuklatilgan funksional va kommunikativ vazifani bajaradi. Bunday tillarning, eng avvalo leksik tarkibini zamnaviylashtirishga qaratilgan umumiyo yo‘nalishi mustaqil davlatlarda mazkur jarayonning maqsad va turli yo‘nalishi tufayli bir xilda qabul qilinmaydi. Muvofiqlik yo‘nalishi bilan bir qatorda leksikani to‘ldirish uchun barcha manbalardan (xalq so‘zlashuv, eski yozuv hamda shu bilan birga, mustamlakaga qadar bo‘lgan davr tilidan, G‘arbiy Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan resuslar) foydalaniladi va bunda puristik yo‘nalishi yorqin ifoda topganligi ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, ba’zi davlatlarda leksikani to‘ldirish til siyosati ta’sirini boshqaruvchi organlardan erkin holda yuz beradi va buning natijasida avtoxton davlat tillarida Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar oqimi ko‘payib ketadi, chunonchi bu so‘zlarning aksariyatini keragi ham yo‘q, chunki bunday so‘zлarni anglatadigan milliy ekvivalntlar mavjud (Janubiy Koreyada 3 mingdan ortiq amaerikalashtirilgan so‘zlar ishlataladi).

Til uchun puristik faoliyat ahamiyatini baholash ikki xildir. Tilni zamnaviylashtirishning birinchi davrida bu faoliyat muhim ijobiy rol o‘ynaydi, chunki bu faoliyat tilning xususiy resurslaridan imkoniboricha foydalanishni ta’minlaydi. Lekin bu resurslar cheksiz emas, tilning yangi vazifasi uning

leksikasini doimiy to‘ldirib turishni talab etadi, shuning uchun keyingi etapda boshqa tillardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita kalka (so‘z yoki iborani bir tildan ikkinchi tilga so‘zma-so‘z, aynan tarjima qilish) qilish muqarrar hisoblanadi. Shunda purizm til rivojlanishing to‘xtatuvchisi (tormozi) bo‘lib qoladi.

Zamonaviy davrda til siyosati umum davlat va o‘zaro etnik muomala uchun til tanlashdan to amaliy normallashtirish va so‘z ijodi faoliyatiga bo‘lgan turli mushkul muammolarni hal etishni ishlab chiqmoqda. Til siyosati davlatning ichki siyosati, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-mafkuraviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularga aksincha (teskari) ta’sir etishga qodir.

Nazorat uchun savollar:

1. Til siyosati tushunchasi.
2. Til vaziyati tushunchasi.
3. Til vaziyati va til siyosati aloqadorlik masalasi
4. XXRda til vaziyati va til siyosati xususiyatlari
5. Xitoy til vaziyati masalasi va uning ijobiy ahamiyati
6. XXRning dunyodagi ta’sirini oshirishga qaratilgan madaniy-ta’lim vositalari
7. Til vaziyatlari tip (tur)lari haqida ma’lumot bering
8. Til siyosati birinchi navbatda o‘zaro etnik muomala tilni tanlashda qanday muammolarga dush keladi?
9. Til vaziyatining birinchi tipi til-makro vositachisining tarqalish darajasi bo‘yicha qanday turda namoyon bo‘ladi.
10. Ikkinchi til muammosi haqida ma’lumot bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. “SHARQ MAMLAKATLARIDA TIL VAZIYATI” mavzusida referat yozish.
2. “TIL VAZIYATINING O‘ZGARISHDA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR” mavzusida taqdimot tayyorlash.

Adabiyotlar

1. Shazamanov Sh. Xitoyda til vaziyati va siyosati (sotsiolingvistik tahlil). T. 2020. 150 b.
2. Shazamanov Sh., I.N. Bekmuratov. Xitoy matbuot tarixi va tili. T., 2012. 120b.
3. Bekmuratov I.N. Xitoyda til vaziyati va siyosati sotsiolingvistik tahlil). T. 2010. 110b.
4. Каплунова М.Я. Языковая политика и функциональное развитие языков КНР М. 2017.
5. Завьялова О.И. Китайские диалекты и современное языкознание в КНР// вопросы языкознания №6. 2009. Стр. 102-
6. Беликов В.И. Социолингвистика: М.: РГГУ, 2001. 436 с.
7. Швейцер, А.Д. Современная социолингвистика: Теория, проблемы, методы. А.Д. Швейцер. М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2011. 176 с.

Қўшимча адабиётлар

8. Маслова В.А. Современные направления в лингвистике : учеб. пособие для студ. Высш.учеб. заведений / В.А. Маслова. М.: Издательский центр «Академия», 2008. 272 с.
9. Мечковская Н.Б. Социальная лингвистика. М.: Аспект Пресс, 2000. С. 30 -48.
10. Белогуров А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. — М.: МАКС Пресс, 2016. — 116 с. ISBN 978-5-317-05412-0.
11. Беликов В.И. Социолингвистика. М.: РГГУ, 2001. С.239-246, 328-
32. Социолингвистика вчера и сегодня: Сб. науч. Тр. М.: ИНИОН РАН, 2004. С. 8 – 74.

2-MAVZU: SHARQ TILLARININI O'QITISH METODIKASINING ZAMONAVIY XORIJIY TENDENTSIYALAR

Reja:

1. Sharq tillar o'rgatish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish
2. Sharq tillarini o'qitishda talabalarining o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish
3. Sharq tillarini o'qitishda innovatsion ta'lif sharoitining ahamiyati

Tayanch so'z va iboralar: *metodika, tendensiya, xalqaro tajriba, innovatsion ta'lif, STEAM, zamonaviy ta'lif texnologiyalari*

Jahon hamjamiyati va O'zbekiston Respublikasida ertangi chet tili ta'lmini shakllantirishning bosqichlari va o'ziga xosliklari, o'qitishning har bir bosqichidagi paradigmal transformatsiyalar. OTM talabalariga sharq tilini chet tili sifatida o'qitish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish, xorijiy tillarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, psixologik-pedagogik va yosh xususiyatlari. Chet tili o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy yondashuv va pedagogik texnologiyalar.

Talabalarga sharq tillar o'rgatish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish, jahon hamjamiyatining ta'lif tizimini dunyo iqtisodiyoti globalizatsiyasi va taraqqiyoti talablariga javob beradigan tendensiyalarni tahlil qilish, til siyosatida islohotlar o'tkazish, chet tillarini o'qitishda va ta'lif tizimida sifatini oshirish tendensiyalar.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha yangi ta'lif Konsepsiyasida ta'lif taraqqiyotning asosiy harakatlanuvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga etkazuvchi muhim faoliyat1 sifatida tan olingan. Bugungi kunda butun jahonda bo'lajak o'qituvchilarining individual, ijodiy faoliyatini yanada takomillashtirish, loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishda funksional texnologik faoliyat, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarining texnologik loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish modellari va mexanizmlarini raqamli texnologiyalar vositalari asosida takomillashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda. Jahon ta'lif tizimida bo'lajak o'qituvchisining funksional texnologik bilimlarini texnologiya fanlari integratsiyasi asosida shakllantirish metodikasini rivojlantirish, kreativ shaxsni

rivojlantirish, talabalarni zamonaviy texnologiya fanlari rivojlanishiga funksional hamda intellektual jihatdan sezgirligini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar haqidagi tushunchalar va amaliy jarayonlar natijalarini umumlashtirish, tadqiqotda o'rganilayotgan ob'ektlarning muhim belgilarni bilish, shaxsning bilim olishiga oid kreativ faolligini rivojlantirish, variativ ta'lif orqali talabalarning bilimlarini oshirish hamda qobiliyatlarini shakllantirish, bilim olish motivlarini vujudga keltirish qobiliyatlarini rivojlantirishga ustuvorlik berish asosida nazariy qoidalar ishlab chiqilmoqda.

Xalqaro baholash dasturlari standartlaridan foydanib Germaniya, Frantsiya hamda Finlandiya davlatlarida bo'lajak o'qituvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirish va kreativ, ijodiy fikrlaydigan mutaxasislarni tayyorlash, tanqidiy mustaqil fikrlashni rivojlantirish, amaliy salohiyatlarini oshirish, bilim va ko'nikmalarini kuchaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o'quv vaziyatlarini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jaryon modelini takomillashtirish, kognitiv xarakterdagi maxsus innovatsion jarayonlarda bo'lajak o'qituvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik vaziyatlarni takomillashtirish so'ngi yillarda oliy ta'lif muassasalarida bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash, iqtidorli, ijodkor, ma'nan yetuk, ilmga chanqoq yoshlarni pedagoglik kasbiga tayyorlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish" masalasi ustuvor etib belgilandi. Innovatsion ta'lif sharoitida bo'lajak o'qituvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018 yil 14 avgustdagi "yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3907-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosiga muayyan darajada xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli farmon.

L.X.Bektursunova o'zining "Pedagogik fasilitatsiya vositasida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish" mavzusidagi tadqiqot ishida o'quv-bilish faoliyatiga quyidagicha munosabat bildirib o'tgan. O'quv-bilish faoliyati o'zida

uchta hissiy-yo'naltirilgan, jarayonli, nazorat-baholovchi bo'g'inni qamrab oladi. Shunga muvofiq, o'quv faoliyatida quyidagi asosiy tarkibiy qismlar aniqlandi: motivlar va o'quv vazifalari, o'quv xarakatlari, talabalarning xarakatlarini nazorat qilish va baholash. To'liq ma'onoda o'quv faoliyati xar doim ushbu barcha tarkibiy qismlarning birligi va o'zaro bir-biriga o'tishidir. Yana bir tadqiqotchi S.Ya.Botirov ilmiy bilishda fanlararo yondashuvning metodologik muammolarini o'rganib chiqqan va talabalarda ilmiy bilishning nazariy va metodik jihatlarini ko'rsatib bergan. M.Q.Niyazmbetov hozirgi zamon ilmiy bilishda modellashtirish muammosini o'rgangan. Hozirgi zamon ilmiy bilishda sharq tillari modellarga turlicha ta'riflar berish zamonaviy va xorijiy tendentsiyalarining kuchayishi, zamonaviy bilimning taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan tabiiy va qonuniy jarayondir. Model haqida yagona fikrning bo'limganligi, shuningdek fan va texnikada ushbu tushunchaning turlicha ishlatalishi bilan ham bog'liq. E.V.Korotaeva bilish faoliyati tushunchasi ko'p qirrali va ko'p ma'noli ekanligini, "Talabalarning bilish faoliyati" talabalarning kognitiv faoliyatining tushunchasining mohiyati, nazariy asoslarini ko'rib chiqib quyidagi natijaga keladi: bilish faoliyati kognitiv motivlar orqali amalga oshiriladi va u shaxsni faollikka undaydi; bilish motivlari-o'rganishning mazmuni yoki jarayonining o'zi bilan bogoliq bo'lgan o'rganish motivlari hisoblanadi; bilish faoliyatini amalga oshirish uchun kognitiv jarayonlar oqimi kerak; bilish jarayonlari-bu jarayon va natija sifatida bilishni bevosita ta'minlaydigan aqliy xodisalardir deb baholagan. Ushbu mavzu doirasida "innovatsion ta'lim sharoiti" tushunchasining mazmuni va "ta'lim innovatsiyalari" tushunchasining mazmuni asosida rivojlantirildi. Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim soxasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar majmuidir. Bo'lajak o'qituvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirishda Innovatsion ta'lim sharoitini vujudga keltirish jarayonida innovatsion ta'limning mohiyatini inobatga olish zarur. Innovatsion ta'limning asosida tizimga yangilik kiritish aks etadi. Innovatsion ta'lim sharoitini bizning fikrimizcha yangi g'oya, aniq maqsad, noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'limgan tashabbuslar, ilg'or ish uslublari uchun yaratilgan maxsus tashkillangan jarayon deb aytishimiz mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirishda Innovatsion ta'lim sharoitini tashkil etuvchi asosiy komponentlar ushbu mavzu doirasida quyidagi komponentlar deb baholandi: innovatsion ta'limni tashkil etuvchi, innovatsion g'oyani amalyotga tadbiq eta oluvchi innovator subekt; innovatsion ta'lim sharoitida ta'lim oluvchi obektlarning faolligi va yangilikni qabul qilishga tayyorligi; innovatsion ta'limni amalga oshirishdagi zaruriy muhitning mavjudligi, ya'ni barcha shart-sharoitlarning yangi g'oya uchun mutanosibligi.

Bo'lajak o'qituvchilarining bilish faolligini shakllantirishda innovatsion ta'lim sharoitining ahamiyati ushbu mavzu doirasida quyidagicha ochib berildi: o'quv bilish faoliyatining yangi g'oyalar asosida namoyon bo'lishi, ya'ni ta'lim mazmunini talabaga bilish materiali sifatida taqdim etishda yangi g'oyalar bilan taqdim etish; o'quv jarayonida talabalar bilish faolligi motivatsion o'zgarishi, bu jarayonda talabalarda yangilikni bilish ehtiyoji vujudga keladi, innovatsion ta'lim

sharoiti esa bu xolatda ehtiyoj va motivlarni yanada ortib borishini ta'minlaydi; talabalar faoliyatining yangilanishi, bu jarayonida an'anaviy faoliyatni yangi faoliyatga almashtirish asosida talabaning faoliyat mazmuni, xarakeri o'zgaradi; innovatsion ta'lim sharoitida pedagogning talabalar bilish faolligiga ta'sir etish imkoniyatlari yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligi; talabalar bilish mustaqilligini ortishi, ya'ni yangilikni tezroq o'zlashtirish ehtiyoji natijasida, mustaqil fikrlash, mustaqil bajarish, mustaqil izlanish ko'nikmalari vujudga keladi; o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi natijasida bilish faolligining intensivligining ortishi; o'quv faoliyatini amalga oshirishda innovatsion sharoitning maxsuldarligi.

Bo'lajak o'qituvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar talabaning yon atrofini qamrab olgan ijtimoiy muhit: ijtimoiy ehtiyojlar; ijtimoiy maqqom; ta'lim muassasining xususiyati kabi qator omillarni o'z ichiga olib, talabalarning bilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Talaba taxsil olayotgan guruh talabalarining bilish faolligi qanchalik yuqori bo'lsa talabada ham bilish extiyoji va motiv jaryoni ortib boradi

Bo'lajak o'qituvchilarining sharq tillarini bilish faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar sifatida quyidagi omillarga tayanadi: bilish faoliyatini rivojlantirishda talabalarning individual xususiyatlarni inobatga olish zarur, ya'ni talabaning qobiliyat, xarakter, temperamenti bilish jarayoni bilan uзви bog'liq; bilish jarayoni psixik xodisa sifatida emottsional ijobiy kayfiyatni talab qiladi. Bu esa talabalarda ko'tarinki kayfiyatga asoslangan barqaror bilish faoliyatini vujudga kelishini ta'minlaydi, qiziqishlar, motivlar uchun zamin tayyorlaydi; uchinchidan-talabalarda bilish faolligini rivojlantirish ta'limda raqobat tushunchasi va omiliga tayanadi. Tadqiqot jarayonida ma'lum bo'ldiki psixologik muhitning barqarorligi bilish jarayonining ixtiyoriy-maqsadli rivojlanishida muhim omil vazifasini bajaradi. Bo'lajak o'qituvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar manbai bir-biriga tizimli bog'langan bo'lib, bu omillar quyidagilardan iborat: ta'limning mazmunini tanlashga bo'lgan alovida yonoshuv; mahoratli innovator pedagog; faol ta'lim usullari; ta'limning zamonaviy vositalari; Innovatsion ta'lim sharoitida ta'limning samaradorligini kuchaytirishning strategik yo'nalishi hamda o'rganishning mazmundorligini ta'minlash uchun didaktik va psixologik shart-sharoitlarni yaratish, bu jarayonga talabalarni nafaqat intellektual, balki ijtimoiy va shaxsiy faolligini optimal darajada tashkil qilishda keng didaktik imkoniyatlarga egadir.

Faol o'qitish usullari o'qituvchidan darsga faol tayyorgarlik ko'rishni taqozo etadi, ammo mashg'ulotlar samaradorligi yuqori bo'lishi bilan o'z samarasini beradi, o'qituvchining ijodiy salohiyatini oshiradi va talabalarning bilish faolligini oshiradi. Kasbiy faoliyatni muammolilik va modellashtirish tamoyillari asosida mutaxassislarini tayyorlashni takomillashtirishning eng istiqbolli usullaridan biri bo'lgan faol o'qitish usullari an'anaviy, passiv, majburiy o'qitishdan ajratib turadigan xarakterli xususiyatlarga ega: faol o'qitish usullari o'quv jarayonining o'ziga xos texnologiyasi bilan o'quvchilarining tafakkurini zo'rlik bilan faollashtiradi; faol o'qitish usullari usullari bilan o'qitiladigan faollik uzoq va barqarordir; faol o'qitish usullari talabalar tomonidan o'z mazmuni bo'yicha ijodiy, hissiy jixatdan rangangan va motivatsion asoslangan xarakatlar va

qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilishga xizmat qiladi; faol o'qitish usullaridan qaysi biri qo'llanilishidan qat'i nazar, bu holatlarda o'quv jarayoni kollektiv asosga ega (o'qituvchi va boshqa talabalar bilan o'zaro munosabat) va ma'lum bir algoritm bo'yicha quriladi; faol o'qitish usullari intensiv usullar bo'lib, ular qayta ishlangan axborot hajmini oshirish orqali emas, balki uni qayta ishlash chiqurligi va tezligi bilan o'rganish samaradorligini oshiradi. Bo'lajak o'qituvchilarda bilish faoliyatini individual rivojlantirish vositalarining ahamiyati, zamonaviy ta'lim tizimida va talaba bilish faoliyatini rivojlantirishda rad etib bo'lmas darajada dolzarb masala deb xisoblandi

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yoshlarga ta'lim berishda asosiy maqsadni belgilash borasida o'zgarishlarni taqazo qildi. "Texnologiya" fanini ta'lim sohasiga joriy qilishda bo'lajak o'qituvchilari o'zlashtirishi lozim bo'lgan loyihalash kompetensiyalari texnologiyada faoliyatli yondashuvni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish kerakligini anglatadi. Texnologiya (yunoncha "technologia" so'zidan olingan) – bu mahsulot yaratish va rivojlantirish hamda bilim olish uchun ishlatiladigan san'at, mahorat yoki qobiliyat. Sh.S.Sharipov va N.A.Muslimovning ilmiy ishlarida "texnologiya" o'zida to'rtta mohiyat xususiyatlarini birlashtirgan ko'p jihatli tushuncha – ob'ekt, bilim, jarayon va iroda (motivatsiya, ehtiyojlar, niyatlar, qadriyatlar) sifatida ta'riflanadi. Bu usullar o'zaro aloqador bo'lib, ularning natijasi inson yaratgan moddiy olam hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarining texnologik ko'nikmalarga ega qo'l mehnati reproduktiv usul bilan foydali narsalar yasashga mo'ljallangan hamda yo'naltirgan sharoitlarda ijodiy shakllangan kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismi sanaladi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Texnologiya" fanini o'qitishga texnologik jihatdan tayyorgarlik ko'rmagan, fanning o'quv dasturi mohiyati, o'qitish maqsadini bilmaydigan boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarining zamonaviy texnologik ta'limi uchun shart-sharoitlarni yarata olmaydi. Texnologiyani o'rganishni takomillashtirishni bo'lajak o'qituvchisining texnologik loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishdan boshlash zarurligi shubhasiz. Texnologiya fani o'quv dasturi doirasida texnologik loyihalash kompetensiyalarini amalga oshirish jarayonini loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish o'rganildi. Texnologik ta'lim bo'lajak o'qituvchilarining keng madaniy saviyasi, unumli ijodiy tafakkuri, ijodiy qobiliyatları, imkonи boricha individual rivojlanishi, insonning o'zgartiruvchilik, loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish qonuniyatları bilan tanishish hamda eng oddiy texnologik bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy xislatlarini shakllantirish jarayonini ta'minlashi lozim bo'ladi. "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanining mazmuni bo'lajak o'qituvchilarining ijtimoiy ahamiyatlari shaxsiy xislatlarini rivojlantirish, eng oddiy kreativ qobiliyatları, loyihalash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish vositasi sifatida qabul qilinadi. Fan mazmunida bilimlar va qobiliyatlar, texnologik madaniyat asoslari aks etgan bo'lib, bu insonning har qanday amaliy faoliyati uchun xos bo'lgan dastlabki umumiyl tekniq bilimlar va ijodiy qobiliyatlaridir. Demak, texnologik bilimlar va ijodiy qibiliyatlar kamchiliklari kengaytirish tamoyiliga ko'ra o'rganiladi. Bu bilimlar, avvalo, texnologik amallar, usullar va

jarayonlar, shuningdek, ishlab chiqarish iqtisodi va tashkillanishi hamda umumiy mehnat madaniyatining ular bilan bog‘liq masalalaridir. Bo‘lajak o‘qituvchilarining texnologik bilimlar doirasi kengaytirilib, mehnatning yangi usullari hamda asbob-uskunalar, materiallar turlarini o‘zlashtiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarining faoliyati o‘quvchilarga atrofdagi borliqning variativ usul va vositalarini egallash, boshqa fanlarni o‘rganishda o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” o‘quv fani mehnat ta’limidan texnologik ta’limga o‘tishni yakunlaydi. Loyihalashtirilgan mehnat faoliyati asosida yaratilgan ushbu fan bo‘lajak o‘qituvchilarining texnologik, amaliy, iqtisodiy va ekologik tayyorgarligi, ularni kasbga yo‘naltirish borasidagi ijobiy mahalliy va xorijiy tajribani sifat jihatidan yangi darajada amalga oshirishga undaydi. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani integratsiyalashgan xususiyatga ega. Integratsiya moddiy olamning turli hodisalari bilan tanishishdan iborat. Bu hodisalar ularga xos bo‘lgan, inson faoliyatini amalga oshirish usullarida, yog‘och, xom ashyo, harakat va axborotning variativ texnologiyalarda namoyon bo‘ladigan umumiy qonuniyatlari bilan birlashgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarining texnologik loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish mazmuniga nisbatan quyidagi talablarni taklif qilamiz:

1. Texnologiya ta’limning zamonaviy maqsadlari – har bir o‘quvchi shaxsini rivojlantirishni – aks ettirishi lozim.
2. Texnologik loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni zamonaviy texnologik ta’limga yo‘nalgan bo‘lishi lozim. Bu quydagilarni nazarda tutadi: talabalar ongida olamning yaxlit texnologik manzarasini shakllantirish; kreativ faoliyatning umumiyl uslublari va vositalari, ya’ni texnologiyalarni o‘rganish va ularni o‘zlashtirish; talabalarning texnologik tafakkurini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
3. Texnologik loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish mazmunining texnologik komponenti o‘rganilayotgan materialni umumlashtirish darajasini oshirishga asoslanishi lozim: mazmun bir xillashtirilgan texnologik amallarni o‘rganish ketma-ketligi sifatida tuziladi. Talabalar variativ faoliyat texnologiyalari sohasida tarqoq bilimlarni emas, balki umumlashgan bilimlarni o‘zlashtiradi.
4. Texnologik loyihalash mazmuni talabalarning nafaqat texnologik, balki kasbiy-pedagogik mahoratini ham shakllantirish vositasiga aylanishi lozim.

Texnologik ta’limni o‘qitish jarayonini shakllantirishga nisbatan yuqorida bayon qilingan yondashuvlarga asoslanib, tizimga solish maqsadida texnologik ta’lim mazmunini shakllantirishning ishchi modeli takomillashtirildi. Model talabalar texnologik loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish maqsad va mazmuni; metodik yondashuvlar va tamoyillar; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari texnologik loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish shakl, vosita, texnologiya, metodikasini o‘z ichiga olgan tarkibiy tuzilmasi; nazorat va uni amalga oshirish shartlari; texnologik mazmuni; talabalar texnologik loyihalash kompetensiyasining rivojlanganlik natijasi bo‘lajak o‘qituvchining boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanining asoslarini o‘qitishga tayyorligi bo‘ladi, bu kasbiy mahoratlar majmui orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu modelda texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining kirish va bu fanning asosiy tushunchalarini o‘rganishdan boshlaymiz. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘qitish

jarayonlarida bo‘lajak o‘qituvchilar ya’ni etuk kadrlarning shu fan yuzasidan va texnologik loyihalash kompetensiyasiga ega bo‘lishi, zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi va o‘z kasbiy faoliyatida foydalana bilishi, mehnat xavfsizligi talablari va ishlab chiqarishni nazorat qilish hamda zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o‘quv materiallarini modellashtirish lozim. Talabalar texnologik loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish mazmunini ida qo‘yilgan talablar asosida shakllantirilgan. Bular, quyidagilar: loyihalash asosida o‘quv jarayonini boshqarish texnologiyalarini tizimli tashkil etish; mashg‘ulotlarni loyihalashtirish jarayonini tashkil etishni bilish; o‘quv materiallar asosida ish rejasini tuzishi, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash; ta’lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etishi, o‘quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o‘quv materiallarini modellashtirish. Talabalar texnologik loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish mazmunini amalga oshirish shartlari asosida OTM o‘qituvchisi va o‘qituvchilar bilan birgalikdagi mahsulli faoliyatda texnologik kompetensiyalarini shakllantirish asosida boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘quv-uslubiy ta’mindan texnologik amaliy ishlarni o‘tkazish uchun kerakli uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish, ta’lim jarayonida “STEAM educational model 3” dan foydalanish hamda “Creative space” (Ijodiy makon)ni yaratish. Model asosini bo‘lajak o‘qituvchilarining zamonaviy qobiliyatları, me’yoriy hujjatlar hamda avval belgilangan talablarni hisobga olgan holda shakllantirilgan bo‘lajak o‘qituvchilarining texnologik loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni tashkil etadi hamda bu model asosida o‘qitish albatta ta’lim samaradorligini oshirmasdan qolmaydi.

Sanoat 4.0 deb nomlangan so‘nggi texnologik inqilob ta’limning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zgartirmoqda va ta’limning yangi modellarini yuzaga keltirmoqda. A.M.Aleksankovning fikricha, ushbu modellarni yaratish uchun quyidagi innovatsion jarayonlar asos bo‘ladi: ta’limni raqamlashtirish, ta’limni shaxsiylashtirish, loyiha asosida o‘qitish, rasmiy va norasmiy ta’lim turlarini integratsiyalash, talabalarning birgalikdagi faoliyati uchun ijodiy maydonlarni yaratish. Iqtisodiyot va sanoatning real sektori vakillari bilan ilmiy va ta’lim markazlari shaklida universitetlararo markazlar yaratish. Ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirmasdan turib, bu jarayonlarni amalga oshirish mumkin emas. Bugungi kunda bir qator mamlakatlarda (Avstraliya, Buyuk Britaniya, Isroil, Kanada, Xitoy, Singapur, AQSH va h.k.) STEAM-ta’lim keng tarqalmoqda. Uning konsepsiysiSTEM ta’limi (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) g‘oyasiga asoslanadi, lekin u ijodiy fanlarni (art - san’at) o‘z ichiga oladi, bu nafaqat ta’lim mazmunini boyitadi, balki talabalarni tayyorlash sifatini sezilarli darajada oshiradi. STEAM o‘qituvchilarini loyiha asoslangan o‘quv dasturlarini amalga oshirishi mumkin. Pedagogik amaliyotda STEAM ta’limining ajoyib namunasi maktab o‘quvchilariga “Texnologiya” fani doirasida texnologik ta’lim berishdir. Bu fanni o‘rganishdan maqsad texnosferaning tarkibiy qismlari, zamonaviy ishlab chiqarish va unda keng tarqalgan texnologiyalar haqida tasavvur hosil qilishdan iborat. Texnologiya bugungi kunda o‘quv predmeti sifatida maktab o‘quvchilarining mehnat bozorida kasbiy o‘zini o‘zi belgilashiga yordam beradi, ularni loyihalash va tadqiqot, dizayn

va ilmiy-texnik faoliyatdan foydalanishga yo‘naltiradi. “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha talabalarning o‘quv va bilish faoliyati tabiatshunoslik, ilmiy-texnikaviy, texnologik, tadbirkorlik va gumanitar bilimlarga asoslanadi. Zamonaviy sharoitda ustuvor vazifa ilmiy va ta’lim markazlari formatida fanlararo ilmiy va ta’limiy “ijodiy makonni” yaratish va rivojlantirish, buyurtmalar bo‘yicha maktab o‘quvchilari, talabalar, bo‘lajak o‘qituvchilarning samarali fanlararo loyiha ishlari uchun muhit yaratishga qaratilgan.

O’tgan o’n yilliklarda Sharq tilini o‘qitish metodida quyidagi o‘zgarishlar ro‘y berdi:

1. Texnologiyalar integratsiyasi: Internet va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan o‘qituvchilar til o‘rgatish uchun onlayn resurslar, ilovalar, interfaol doska va kompyuter dasturlaridan faol foydalana boshladilar. Bu talabalarga keng assortimentdagi materiallardan foydalanish, ona tilida so‘zlashuvchilar bilan onlayn muloqot qilish va interaktiv va qiziqarli tarzda o‘rganish imkonini beradi.
2. Madaniy jihatlarni hisobga olgan holda: hozirda sharq tili qo‘llaniladigan mamlakatlar madaniyati va tarixini o‘rganishga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Bu talabalarga tilning konteksti va xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, shuningdek, ularning madaniyatlararo kompetentsiyasini rivojlantiradi.
3. Kommunikativ yondashuvdan faol foydalanish: asosiy e’tibor grammatikani rasmiy o‘rganishdan muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga o’tdi. Talabalar amaliyotda tildan foydalanishni tobora ko‘proq o‘rganmoqdalar, ko‘p vaqtlarini ona tilida so‘zlashuvchilar bilan gaplashish va muloqot qilish uchun sarflashadi.
4. Ta’limni individuallashtirish: o‘quvchilarning turli xil o‘rganish uslublari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o‘qituvchilar har bir o‘quvchi uchun o‘quv jarayonini individual ravishda sozlash imkonini beradigan yanada moslashuvchan usul va yondashuvlardan foydalana boshladilar.
5. Tilni amaliy qo‘llashga e’tibor kuchayishi: Endi tilni real hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Talabalar til ko‘nikmalarini amalda qo‘llash uchun ko‘pincha loyihalar, rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar o’tkazadilar.

Sharq tilini o‘qitish metodikasidagi bu o‘zgarishlar o‘rganishning yanada samarali va qiziqarli bo‘lishiga qaratilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning tilni yaxshiroq o‘zlashtirish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xorijda sharq tillarini o‘qitishning qanday zamonaviy usullari qo‘llaniladi?
2. Sharq tilini o‘qitishning an‘anaviy va zamonaviy usullarining asosiy farqlari nimada?
3. Xorijda sharq tillarini o‘qitishda qanday yangi texnologiyalar qo‘llaniladi?
4. Sharq tilini o‘qitishning zamonaviy metodlarida qanday rolli o‘yinlar va interfaol mashqlardan foydalilaniladi?
5. Sharq tillarini o‘qitishning zamonaviy usullari o‘quvchilarning tilda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qanday yordam beradi?
6. Sharq tilini o‘qitishning qaysi zamonaviy usullarida ushbu til qo‘llaniladigan mamlakatlar madaniyati va tarixiga e’tibor qaratilgan?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. “Sharq tillarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi sohasida tadqiqotlar” mavzusida referat yozish.
2. “Sharq tilini o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari” mavzusida taqdimot tayyorlash.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

- 1.Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. Avtoref. ... kan. ped. nauk. T.:2018.
- 2.Tolipova, J., To‘raev, A.B., Imomov, M.P. “Pedagogik kvalimetriya” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua. Toshkent-2019.3.
- 3.Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: Дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. 209с.
- 4.Чанилова Н.Г. Система проектного обучения как инструмент развития самостоятельности старшеклассников: Автореф. дис. . канд. пед. наук. Саратов, 1997. - 25 с.
5. Шафиков М.Т. Научно-образовательный потенциал как социальный феномен : дис. ... д-ра филос. наук. Уфа, 2006.
6. Джусупов М. Социолингвистические и лингвистические проблемы языка как средства общения и предмета изучения. Электрон ресурс: http://bilingual online.net/index.php?option=com_content&view=article&id=1967%3Ab ilingual-polilingual-russian-world (мурожаат санаси: 04.03.2019);
164. Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования.: Дис. докт. фил.наук. – Ташкент, 2016. 266 с.;
165. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. –B.430

3-MAVZU: CEFR DARAJALARI UCHUN TIL O‘QITISH TAMOYILLARI. KOMMUNIKATIV YONDASHUVDA TIL O‘QITISH (2 SOAT)

Reja:

1. CEFR darajalari uchun til o‘qitish tamoyillari
2. CEFR me’yori bo‘yicha til ko‘nikmalari
3. Til ko‘nikmalari haqida dunyo olimlarining qarashlari

Tayanch so‘z va iboralar: *CEFR, kommunikatsiya, til, ko‘nikma, kompetensiya*

CEFR darajalari uchun til o‘qitish tamoyillari. Kommunikativ yondashuvda til o‘qitish. Kommunikativ tilshunoslik tushunchasi. Kommunikativ kompetensiya tamoyillari. CEFR va uning doirasida 4 kompetensiya: lingvistik, kommunikativ, sosiolingvistik, tarjima kompetensiyalar. Chet til kommunikativ kompetensiya tushunchasining genezisi; Nutq faoliyati turlarini takomillashtirishning metodologik asoslari; nutq faoliyati turlarini takomillashtirishga ta’sir yetuvchi omillar; chet tillari nutq faoliyati darajasini CEFR (xalqaro standart) talablari

bo‘yicha o‘rganish; Yevropa malaka tizimida kompetensiya tushunchasi kognitiv, funksional, shaxsiy va axloqiy tarkibiy qismlarning birligi. Butun dunyo ta’lim muassasalarida talabalarning xorijiy til kompetensiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish, shaxsning xususiyatlari va fazilatlari, zarur shart-sharoitlari.

CEFR darajalari uchun til o‘qitish tamoyillari. Kommunikativ yondashuvda til o‘qitish. Kommunikativ tilshunoslik tushunchasi. Kommunikativ kompetensiya tamoyillari. CEFR va uning doirasida 4 kompetensiya: lingvistik, kommunikativ, sosiolingvistik, tarjima kompetensiyalar. Chet til kommunikativ kompetensiya tushunchasining genezisi; Nutq faoliyati turlarini takomillashtirishning metodologik asoslari; nutq faoliyati turlarini takomillashtirishga ta’sir yetuvchi omillar; chet tillari nutq faoliyati darajasini CEFR (xalqaro standart) talablari bo‘yicha o‘rganish; Yevropa malaka tizimida kompetensiya tushunchasi kognitiv, funksional, shaxsiy va axloqiy tarkibiy qismlarning birligi. Butun dunyo ta’lim muassasalarida talabalarning xorijiy til kompetensiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish, shaxsning xususiyatlari va fazilatlari, zarur shart-sharoitlari.

Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasinig 124-sonli qaroriga asosan 2013 yil 8 mayda o‘zgartirishlar kiritildi. Mazkur o‘zgarishlar — Chet tilini bilishning umumevropa kompetensiyalari o‘rganish, o‘qitish va baholash to‘g‘risidagi hujjatga asoslanganligi sababli, bu hujjatning maqsad, vazifalari va chet tilini bilishning belgilangan darajalari haqida ma’lumot berishni lozim topdik. Yevropa Kengashining — Chet tilini bilishning umumevropa kompetensiyalari-o‘rganish, o‘qitish va baholash to‘g‘risidagi hujjati umume’tirof etilgan xalqaro me’èrlardan biridir. Ushbu hujjat chet tilini o‘qitish kontekstida o‘quv va ishchi dasturlar, o‘quv qo‘llanmalari, imtihonlarning Yevropa bo‘ylab umumiylarini tuzilmasini ishlab chiqish uchun asos yaratadi. Chet tilini o‘rganuvchilar shu tilda samarali faoliyat va muloqot yuritishlari uchun bilim va malakani qay darajada rivojlantirishlari kerakligi haqida keng qamrovda ta’rif beradi. Shu ta’rif o‘rganilaётган tilning madaniy kontekstini ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, dastur o‘quvchilarning bilimlarini oshirishga va nazorat qilib borishga imkon beradigan malakalar darajasini ham belgilaydi. Shu bilan birga, ushbu hujjat cheti til mutaxassislariga muloqot uchun sharoit yaratadi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun —Chet tillarni bilishning umumevropa kompetensiyalari keng qamrovli, shaffof va izhil bo‘lishni taqozo etadi. Hujjatning keng qamrovligi – CEFR chet til bilimi, malaka va ko‘nikmasini keng qamrovda foydalanishga tatbiq etishi va barcha foydalanuvchilar unga murojaat etganda aniq va tushunarli maqsad va vazifalarni belgilay olishlari lozim. CEFR til malakasini shakllantiruvchi va oshiruvchi turli hajmlarni farqlashi kerak, chunki taqdim etilgan daraja èxud bosqichlar til bilish taraqqietini ta’minlaydi. Shaffoflik ma’lumotning aniq shakllanganini va foydalanuvchilar uchun oson va tushunarli bo‘lishini taqozo etadi. Izchillik ichki qarama-qarshiliklardan xoli, ya’ni ta’lim tizimi va uning tarkibiy qismlari uyg‘un bo‘lishini talab qiladi. Chet tilini o‘rganish jaraёnida uni amaliyotda qo‘llashda qator kompetensiyalarni, ya’ni umumiylarini va kommunikativ kompetensiyalarni

rivojlantirish taqozo etiladi. Ular tilni qo'llash jaraènida turli kontekstlarda ish-harakatni bajarish uchun amalda qo'llanadi. Ushbu amallar monitoringi kompetensiyalarni o'zgartirish èxud mustahkamlashga undaydi. Davlat ta'lim standarti chet tillarining barcha bosqichlari uchun quyidagilarni belgilaydi; o'quv fanini o'rghanishning maqsad va vazifalari; o'qitish mazmuni; barcha turdag'i ta'lim muassasalari bitiruvchilari tayèrgarligiga qo'yiladigan majburiy talablar. O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim turlarida chet tilini o'qitishdan maqsad ta'lim oluvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda maishiy, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat yuritishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyani (uning tarkibiy qismlari hisoblanuvchi lingvistik, ijtimoiy lingvistik, diskursiv, strategik) shakllantirishdan iborat. Chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi shu kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.¹

Kompetensiya – nafaqat olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarining majmuasi, balki olingan nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarining majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasidir.

Kompetensiya – ma'lum bir faoliyatni muvafaqqiyatli omilkorlik, mohirlilik bilan eplay olishlik, qila olishlik qobiliyatlari bo'lib, u egallangan nazariy va amaliy bilimlar, malakalar va ko'nikmalar asosida namoyon bo'ladi.

Til kompetensiyasi (lingvistik kompetensiya) - bu til tizimi, nutqdagi til birliklarining ishlash qoidalari to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish, shuningdek, ushbu bilimlar yordamida boshqa odamning fikrlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish va o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda ifoda etish qobiliyatidir.

Til ko'nikmalari integratsiyasi CEFR me'yori bo'yicha til o'rghanishning to'rt ko'nikmasi: o'qish va yozish, so'zlashish, tinglab tushunish bo'yicha ko'nikmalarni integrallashgan holda rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, og'zaki nutq amaliyotiga alohida urg'u beriladi. Yevropa Kengashining "Chet tilini egallah umumevropa kompetensiyalari: o'qitish, o'rghanish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR) bo'yicha chet tillarini bosqichma-bosqich S1 darajasiga yetkazib, amalda qo'llash xorijiy tilni o'rghanishdagi yuqori bosqich hisoblanadi.

CEFR darajalari tilning og'zaki va yozma shakllarini integrallashgan holda o'rgatish, ularning turli kontekstlardagi muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan, o'rghanilayotgan chet tili ko'nikmalari to'g'risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy faoliyatda erkin qo'llay olishni talab qiladi.

Kompetentlik tushunchasi deganda, ma'lum bir sohada talaba (masalan, bo'lajak o'qituvchi) tomonidan egallangan kompetensiya, ya'ni ma'lum bir sifatlarning to'liq shakllangan majmui tushuniladi. Kompetentlilik tushunchasi (lotinchadan competenlia, compete so'zidan olingan bo'lib — "birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman" degan ma'noni bildiradi) lug'atlarda esa "nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega

¹ Мурадкасимова К.Ш.Инглиз тилини ўқитишда талабаларнинг кўникма ва малакаларни баҳолаш хусусиятлари. Дис. ... пед. фан. док. – Т.: 2019. – 45-56 б.

bo‘lish”, “xabardor bo‘lmoq, huquqli bo‘lmoq” degan ma’noni bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda asosiy e’tibor pedagoglarni tayyorlash va ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga qaratilgan. Pedagog kadrlarning o‘quv-uslubiy va ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishning mavjud me’yoriy-huquqiy asoslari muttasil takomillashtirib borilmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalar faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarning xorijiy tillar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini, kompetentliklarini muntazam ravishda rivojlantirib borish hisoblanib, ularni xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlarga aylantirish yuzasidan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ko‘zlangan maqsadlarga erishish, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning malakasini uzlusiz oshirib borish markaziy masalalardan bo‘lib turibdi. Zamonaviy mutaxassisdan chet tilni shunchaki o‘rgana qolmasdan, balki nutqiy faoliyatning barcha turlarida erkin qo‘llay olishni ta’minlovchi kommunikativ kompetensiyaga ham ega bo‘lish talab etilmoqda. Hozirda ta’limda kompetentiv yondashuv keng qo‘llanilmoqda. Bu esa “kompetensiya” va “kompetenlik” tushunchalarining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. “Kompetensiya” tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u ma’lum soha bo‘yicha yaxshi tayyorgarlikni, shu sohaga oid bilimlarga ega bo‘lish, omilkorlik va layoqatlilikni o‘z ichiga oladi. “Kompetensiya” atamasi tilshunoslikda ilk bor amerikalik mashhur olim N.Xomskiy tomonidan qo‘llanilgan. Keyinchalik bu atama rus olimlari I.A.Zimnyaya, O.E.Permyakov, A.V.Xutorskiylar tomonidan ijodiy 27 o‘rganilib, tahlil qilindi va uning yangi qirralari ochib berildi. G.K.Selevkoning fikricha, kompetensiya ta’lim natijasida shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar bo‘lib, u shaxsning integral xususiyatlarini ifodalaydi. “Chet til so‘zlarining qisqacha lug‘at”ida kompetensiya so‘zi ma’lum soha bo‘yicha bilimdonlikni va shu sohadagi biror muammoning yechimi yuzasidan hukm chiqara olish huquqiga ega bo‘lishlikni ifodalashi ta’kidlangan. “Katta ensiklopedik lug‘at”da esa ma’lum sohadagi bilimdonlik bilan birga shu sohadagi katta tajribaga egalik ham ko‘rsatib o‘tilgan. Zamonaviy jamiyat oldida turgan vazifalarning xarakteri kompetentlik muammosining ham kasbiy faoliyatdagи, ham kasbga doir bo‘lмаган faoliyatdagи dolzarbligini keskin oshiradi. Shu bilan birga, sotsiologlar, madaniyatshunoslar, psixologlarning ko‘psonli tadqiqotlari nafaqat oddiy fuqarolarga, balki rahbarlarga ham taalluqli bo‘lgan turlituman bir-biriga o‘xshamagan qarashlar, orzu-umidlar, qadriyatlar va qoidalar mavjudligidan dalolat beradi. Ko‘p hollarda ma’lum bir xorijiy davlat vakili bilan muloqot qilinganda, u internetdan olingan ma’lumotlar yoki kitobiy bilimlarga qanchalik chuqr ega bo‘lishiga qaramay, undagi bilimlar oddiy xalqona ijtimoiy madaniyatdan ancha farq qilishi ma’lum bo‘ladi. Bevosita muloqotga kirishish jarayonida boshqa mamlakatga xos urf-odatlar, o‘zga xalq madaniyati va tilini yuzaki bilish chet tili vakilida aniq va noaniq fikrlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. “Kompetentlik” so‘zining lug‘aviy ma’nosi olimlar tomonidan turli yondashuvarlar asosida aniqlashtirilgan va unga sohalar hamda yo‘nalishlar xususiyatlaridan kelib chiqib, ta’riflar keltirilgan. “Kompetentlik” so‘zining lug‘aviy ma’nosi lotincha – “sompeterе” layoqatli, munosib bo‘lmoq ma’nosini bildirib, shaxsning biror sohadan xabardorlik, shu sohani bilish

darajasini anglatadi. “Kompetentlik” – sub’ekt va uning faoliyatiga berilgan tavsif bo‘lib, u ko‘pincha, turli ma’lumotlar beradigan lug‘aviy-me’ yoriy adabiyotlarda “biror-hodisa haqida fikr yuritish, o‘z fikr-mulohazasini bildirish imkonini beradigan bilimlarni chuqur egallash”, deya ta’riflanadi. Xorijiy tillar lug‘atida “kompetent” (lot. Sompetence – mos, qobiliyatli) tushunchasi kompetentlikka ega; ma’lum sohani biluvchi, xabardor, kompetensiya (lot. sompetentia – qonuniy egalik) esa, biror lavozim egasi yoki organ vakolati doirasi; mazkur shaxs ega bo‘lgan bilim va malaka doirasidagi savollar, deya ta’riflanadi. “Kompetentlik” so‘zi o‘z ichiga “kompetensiyalar tizimi”ni qamrab olib, bunda pedagoglarning har qanday vaziyatlarda faol bo‘lishi va muammoli holatlarning yechimini professional tarzda izlab topishda o‘zini-o‘zi samarali boshqarish qobiliyatini shakllantirish lozimligini bildiradi. “Kompetentlik” tushunchasi to‘g‘risidagi dastlabki fikrlar Buyuk Britaniyalik mashhur psixolog olim Djon Raven tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u kompetentlikning xususiyatlari to‘plamini yagona bir tizimga birlashtiradi hamda kompetentliliklar ham intellektual, ham emotsional xususiyatni kasb etgan holda, ular o‘zaro almashinuvchanlik xarakterini “motivatsiyalashgan qobiliyatlar” asosida namoyon qilishini ta’kidlaydi. “Kompetensiya” u yoki bu kasb egasiga zarur bo‘lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me’yorlar yig‘indisini anglatadi. “Kompetentlik” so‘zi keltirilgan ilmiy adabiyotlardagi – ma’lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, dalil va isbotli fikr yuritish, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama, deb ham qarashimiz mumkin. Agarda kompetentlik – shaxs xususiyatlari va holatini e’tiborga oladigan bo‘lsa, uni ma’lum 29 sohadagi bilim, ko‘nikma va malakani mujassamlashtirish sifatida ham qarash mumkin. Aslida kompetentlik umumiyligi xususiyatlarni ifodalaydigan bo‘lsa, insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma’lum qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish yoki mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi. E.G.Azimov va A.A.Shukin kompetentlik deganda hayotiy tajriba va olingan bilimlar asosida shakllangan ko‘nikma va malakalardan ma’lum bir faoliyatni bajarishda foydalana bilish qobiliyatini o‘z ichiga olishini ta’kidlashadi. Kompetensiya deganda esa biror fanni o‘qitish jarayonida shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar birligini tushunadilar. T.Sattarov chet til o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish xususida so‘z yuritganda ham chet til o‘qituvchisining faoliyati bilan bog‘liq kompetensiyani nazarda tutadi. A.V.Xutorskiy “kompetentlik” tushunchasini amaliyotga kiritish talabiga nazariy bilimlarni egallash, aniq maqsad, vazifa yoki vaziyatlarda muammoli holatlarni hal qilish, ularni amaliyotga joriy etish kabilarda duch keladigan jiddiy qiyinchiliklarni bartaraf qilishdan iborat va u ushbu vaziyatlarda katta ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi. Olim o‘z ilmiy-tadqiqotida kompetensiyalarning ta’lim olish orqali o‘rganish, izlab topish, fikr yuritish, hamkorlik qilish, kasbiy faoliyatini amalga oshirish va moslashish kabi asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergen. Uning ilmiy izlanishda hamkorlik qilish borasidagi fikri muhim bo‘lib, nafaqat kasbiy faoliyat jarayonida, balki umumiyligi ravishda ijtimoiy munosabatlar atrofdagi insonlar bilan muloqot o‘rnata olish, o‘z fikrini bayon qilish orqali ularni ishontirish, jamiyat a’zolarini yagona g‘oya atrofida

harakatlantira olish qobiliyatlarini o‘z ichiga qamrab olib, bevosita pedagogning kasbiy kompetentligi tizim sifatida ko‘riladi. A.Xutmaxerning takidlashicha “kompetentlik” atamasini “men bilamanki, bu...” ma’nosiga nisbatan “men bilamanki, ... sababli” 30 tushunchasi yaqinroq ekanligini ta’kidlaydi va u Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan beshta asosiy kompetentlikni keltiradi: - mas’uliyatni his qilish, guruh bo‘lib, qaror qabul qilishda ishtirok etish, ziddiyatlarni hal qilish, demokratik institutlarni qo‘llabquvvatlash va rivojlantirish qobiliyati kabi siyosiy va ijtimoiy kompetentliklar; - jamiyatda kundalik turmush bilan bog‘liq kompetentliklarni misol qilish mumkin. Masalan, ta’limda millatlararo notolerantlikning oldini olish maqsadida, yoshlarning fikrlarini qabul qilish, boshqa millatga mansub kishilar madaniyati, tili va dinini hurmat qilish kabi madaniyatraro omilkorlik xususiyatlari va h.k. I.Zimnyaya esa kompetentlikning asosiy uchta hayot faoliyati sub’ekti hisoblanuvchi shaxsning o‘ziga taalluqli bo‘lgan kompetentligi; insonning boshqalar bilan o‘zaro aloqalariga taalluqli bo‘lgan kompetentligi va inson faoliyatining barcha turlari va shakllarida namoyon bo‘ladigan kompetentlik guruuhlariga ajratib ko‘rsatadi. Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlariga tayangan holda, o‘z qoidalarimizni yaratamiz: tahlil qiladigan bo‘lsak, kompetentlik – bu xorijiy tillar bo‘yicha pedagoglarning kasbiy bilim va ko‘nikmasi, ularning shaxsiy xususiyatlari va professional tayyorgarligidir. Metodik adabiyotlarda “kompetensiya” atamasi bilan bog‘liq ko‘plab atamalarni uchratish mumkin: lingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, pragmatik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, strategik kompetensiya, lingvokulturologik kompetensiya va h.k. Til o‘rganishni amaliy nuqtai nazardan tashkil qilishga qaratilgan kommunikativ yondashuvda quyidagi omillarni alohida ta’kidlash mumkin: - til o‘rgatish jarayonida bilimlarni o‘qib yoki tinglab, eslab qolishga yo‘naltirilgan ta’limdan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga, shunga mos ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan ta’limga o‘tish;³¹ - ta’lim shaklini ta’lim jarayonidagi fanlararo integrallashuvni hisobga olgan holda ishlab chiqish; - kasbiy tayyorgarlikni ijtimoiy va kundalik hayotda uchraydigan turli nutqiy vaziyatlarni hisobga olgan holda mustaqil ta’lim, o‘z-o‘zini boshqarish, bilim olishga yondashish talablaridan kelib chiqib tashkil qilish. Kommunikativ kompetensiya – o‘rganilayotgan til vositalari orqali muloqot maqsadi va vaziyatiga mos tarzda u yoki bu faoliyat sohasi doirasida nutqiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati. Uning zamirida nutqiy muloqotning produktiv va retseptiv turlarida ishtirok etish imkonini beruvchi ko‘nikmalar mujassam. Kommunikativ kompetensiya boshqa bir qator malaka va ko‘nikmalarga asoslanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. CEFR darajalari uchun til o‘qitish tamoyillari.
2. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi.
3. Kommunikativ yondashuvda til o‘qitish.
4. Kommunikativ kompetensiya tamoyillari.
5. CEFR me’yori bo‘yicha til o‘rganishning ko‘nikmalari.
6. Dunyo olimlarining kompetensiya tushunchasiga ta’riflari.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. “KOMMUNIKATIV YONDASHUVDA TIL O‘QITISH” mavzusida referat yozish.
2. “CEFR darajalari va imtihoni” mavzusida taqdimot tayyorlash.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

- 1.Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. Avtoref. ... kan. ped. nauk. T.:2018.
- 2.Tolipova, J., To‘raev, A.B., Imomov, M.P. “Pedagogik kvalimetriya” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua. Toshkent-2019.3.
- 3.Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: Дис. докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. 209с.
- 4.Чанилова Н.Г. Система проектного обучения как инструмент развития самостоятельности старшеклассников: Автореф. дис. . канд. пед. наук. Саратов, 1997. - 25 с.
5. Шафиков М.Т. Научно-образовательный потенциал как социальный феномен : дис. ... д-ра филос. наук. Уфа, 2006.
6. Джусупов М. Социолингвистические и лингвистические проблемы языка как средства общения и предмета изучения. Электрон ресурс: http://bilingual online.net/index.php?option=com_content&view=article&id=1967%3Ab ilingual-polilingual-russian-world (мурожаат санаси: 04.03.2019);
164. Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования.: Дис. докт. фил.наук. – Ташкент, 2016. 266 с.;
165. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. –B.430

4-MAVZU: LINGVISTIK KOMPETENSIYA TIL MATERIALI FONETIKA, LEKSIKA, GRAMMATIKA) HAQIDA BILIMLAR VA NUTQ FAOLIYATI TURLARI (TINGLASH, GAPIRISH, O‘QISH VA YOZISH) (2 SOAT)

Reja:

1. Lingvistik kompetensiya tushunchasi
2. Kompetentlik tushunchasi
3. Lingvistik kompetensiya bilan bog‘liq bilimlar

Tayanch so‘z va iboralar: lingvistik kompetensiya, sintaktik kompetensiya, semantik kompetensiya, kompetentlik.

Lingvistik kompetensiya til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozish) bo‘yicha ko‘nikmalarni egallash.

Lingvistik kompetensiyani aniqlash, yondashuvlar va usullarni aniqlash.

Tamoyillari, usullari va ularning tavsifi, ta'lim maqsadi va o'ziga xos xususiyatlari. "Xorijiy til" kursini joriy etishning turli bosqichlarida til lingvistik kompetensiya haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Lingvistik kompetensiya haqidagi turli vaqtarda turli tadqiqotchilarning ta'riflari. 80-yillarning oxiri - 90-yillarning boshlarida olim A. L. Berdichevskiy til, lingvistik va madaniy-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish g'oyasi. Kommunikativ kompetentsiyani o'zlashtirishning asosiy tarkibiy qismlari til, lingvistik va madaniy kompetensiya haqidagi g'oyalari.

Lingvistik kompetensiya - bu til tizimi, nutqdagi til birliklarining ishlash qoidalari to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish, shuningdek, ushbu bilimlar yordamida boshqa odamning fikrlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish va o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda ifoda etish qobiliyatidir.

Lingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biridir. Lingvislik kompetensiya tilning bir necha sohalari: fonetik, morfologik, leksik, sintaktik, uslubiy jihatlarining O'zaro munosabatidan tashkil topadi

Lingvistik kompetensiya ijtimoiy hodisa va belgilar sistemasi sifatida til haqida, tilning qurilishi va funksiyalashishi haqidagi o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmasi hamda bulardan turli vaziyatlarda foydalanish mahorati anglashiladi

Lingvistik kompetensiya o'quvchining tilning fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya, stilistika singari bo'limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka va ko'nikmasidir.

Tilshunoslik kompetensiyasi til faoliyatini tartibga soluvchi qoidalari to'plamini amalda qo'llash qobiliyatiga asoslanadi - bu borada quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

- sintaktik kompetensiya - og'zaki va yozma nutqni grammatik jihatdan to'g'ri qurish qobiliyati
- semantik kompetensiya - bu lingvistik iboralarni talqin qilish qoidalardan foydalanish qobiliyatidir
- pragmatik kompetensiya - bu muloqotda lingvistik iboralardan to'g'ri foydalanish qobiliyatidir

Lingvistik kompetentlik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi. Eng avvalo, til fani haqidagi bilim va malaka o'rtasidagi munosabatdan iborat. Til haqidagi bilim esa tilning funksiyasi, bo'limlari, til sistemasi va uning birliklari, bu birliklarning ma'no va vazifalari, so'z turkumlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, gap bo'laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko'ra turlari, ularning uslubiy belgilari imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi.

• Lingvistik kompetentlik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi. Eng avvalo, til fani haqidagi bilim va malaka o'rtasidagi munosabatdan iborat. Til haqidagi bilim esa tilning funksiyasi, bo'limlari, til sistemasi va uning birliklari, bu birliklarning ma'no va vazifalari, so'z turkumlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, gap bo'laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko'ra turlari, ularning uslubiy belgilari imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi.

xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi.

Til kompetensiyasi kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biridir. Lingvislik kompetensiya tilning bir necha sohalari: fonetik, morfologik, leksik, sintaktik, uslubiy jihatlarining o‘zaro munosabatidan tashkil topadi.

O‘quvchining lingvistik kompetensiyasi deganda til sistemasi haqidagi bilimga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarida bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ko‘llash tajribasiga ega bo‘lgan o‘quvchining integral shaxsiy xislatlari tushuniladi.

Boshqacha aytganda, lingvistik kompetensiya ijtimoiy hodisa va belgilar sistemasi sifatida til haqida, tilning qurilishi va funksiyalashishi haqidagi o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmasi hamda bulardan turli vaziyatlarda foydalanish mahorati anglashiladi.

Lingvistik kompetensiya o‘quvchining til haqidagi bilimi va bu bilimdan amaliyatda foydalanish malaka va ko‘nikmasi bo‘lib, bu malaka va ko‘nikma maxsus dastur asosida ta’lim muassasalarida o‘qitish orqali amalgalashiladi.

Lingvistik kompetensiya o‘quvchining tilning fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya, stilistika singari bo‘limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka va ko‘nikmasidir.

Tilshunoslik kompetensiyasi til faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar to‘plamini amalda qo‘llash qobiliyatiga asoslanadi - bu borada quyidagi turlari ajratib ko‘rsatiladi:

sintaktik kompetensiya - og‘zaki va yozma nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri qurish qobiliyat

semantik kompetensiya - bu lingvistik iboralarni talqin qilish qoidalaridan foydalanish qobiliyatidir

pragmatik kompetensiya - bu muloqotda lingvistik iboralardan to‘g‘ri foydalanish qobiliyatidir

Lingvistik kompetentlilik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi. Eng avvalo, til fani haqidagi bilim va malaka o‘rtasidagi munosabatdan iborat. Til haqidagi bilim esa tilning funksiyasi; bo‘limlari, til sistemasi va uning birlklari, bu birliklarning ma’no va vazifalari, so‘z turkumlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, gap bo‘laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko‘ra turlari, ularning uslubiy belgilari imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi.

Ta’limga kompetensiyaviy yondashuv, bu – ta’limni bozor ehtiyojlariga muvofiq holga keltirishga harakat natijasi bo‘lib, ta’lim natijasi sifatida o‘quvchilarning o‘zlashtirgan axborotlari yig‘indisi emas, balki ularning turli vaziyatlarda egallagan bilimlaridan foydalana olish qobiliyati e’tiborga olinadi.

Lingvistik kompetensiya o‘quvchilarning orfografik, punktuatsion qoidalardan turli vaziyatlarda o‘rinli foydalana olish malaka va ko‘nikmasini ham o‘z ichiga oladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Lingvistik kompetensiya nima?
2. Kompetentlik deganda nima tushuniladi?
3. Lingvistik kompetensiya qaysi kompetensiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi?
4. Lingvistik kompetensiya nimalar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi?
5. Lingvistik kompetensiya qanday ko’nikmalarni o’z ichiga oladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. “Lingvistik kompetensiyaning shakllanishi xususida olimlar” mavzusida referat yozish.
2. “Lingvistik kompetensiya va nutq faoliyati turlari yuzasidan oimlarning tadqiqoti” mavzusida taqdimot tayyorlash.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

- 1.Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. Avtoref. ... kan. ped. nauk. T.:2018.
- 2.Tolipova, J., To‘raev, A.B., Imomov, M.P. “Pedagogik kvalimetriya” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua. Toshkent-2019.3.
- 3.Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: Дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. 209с.
- 4.Чанилова Н.Г. Система проектного обучения как инструмент развития самостоятельности старшеклассников: Автореф. дис. . канд. пед. наук. Саратов, 1997. - 25 с.
5. Шафиков М.Т. Научно-образовательный потенциал как социальный феномен : дис. ... д-ра филос. наук. Уфа, 2006.
6. Джусупов М. Социолингвистические и лингвистические проблемы языка как средства общения и предмета изучения. Электрон ресурс: http://bilingual online.net/index.php?option=com_content&view=article&id=1967%3Ab ilingual-polilingual-russian-world (мурожаат санаси: 04.03.2019);
164. Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования.: Дис. докт. фил.наук. – Ташкент, 2016. 266 с.;
165. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. –B.430

5-MAVZU: MADANIYATLARARO MULOQOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. SHARQ TILI O‘RGATISHDA MADANIYATLARARO MULOQOTNING O‘RNI(2 SOAT)

Reja:

1. “Madaniyatlararo muloqot” fanining maqsadi va masalalari
2. “Madaniyatlararo muloqot” tushunchasining mohiyati va o‘ziga xos xususiyati
3. Madaniyatlar o‘zaro ta’sirining darajalari

Tayanch so‘z va iboralar: madaniyatlararo muloqot, madaniyatlar kesishuvi, kommunikatsiya, til, madaniyat, diskriminatsiya, milliy xarakter, o‘zaro ta’sir, etnik daraja, milliy daraja, sivilizatsiya darajasi, donor-madaniyat, retsipyent-madaniyat.

“Madaniyatlararo muloqot” fanining maqsadi va masalalari

Inson – ijtimoiy mohiyat. Inson jamiyatda yashaydi va tabiiyki, u mazkur jamiyatning boshqa a’zolari bilan muloqot qilishi lozim bo‘ladi. *Kommunikatsiya* termini ham lotincha *communication, communis* “umumiy” so‘zidan kelib chiqqan.

Demak, so‘z insonlarni bir-biri bilan bog‘laydi, ularni muloqot vositasida birlashtiradi. Muloqotsiz jamiyat bo‘lmaydi, jamiyatsiz ijtimoiy inson, madaniy va ongli inson *homo sapiens* bo‘lmaydi. So‘z tilda mujassamlashib, insonni hayvonot dunyosidan ajratadi. Hech qaysi bir fan, hech qaysi bir ilm so‘zsiz mavjud bo‘lmaydi. Hech bo‘limganda, bilim va tajribalarni shakllantirish, ularni qayd qilib kelgusi avlodga qoldirish uchun ham so‘zlar kerak bo‘ladi. Xullas, muloqot insoniyat borligining tamali, sinchini tashkil qiladi.

“Madaniyatlararo muloqot” fanining maqsadi – insonlar muloqoti masalalarini asosan til va madaniyatga e’tibor bergen holda tahlil qilishdan, farqli madabiyatlar orasidagi kommunikatsiyani osonlashtirish va to‘qnashuvlarni oldini olishdan iborat.

Hozirgi kunda turli xalqlar, tillar, madaniyatlar aralashgan bir paytda, boshqa madaniyatlarga qiziqish, ularni hurmat qilish, ularni tushunishga harakat qilish, ularga sabr-toqat bilan yondashishni o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Aynan shu tufayli madaniyatlararo, xalqaro muloqot masalalari umume’tiborni tortdi.

Qanday omillar kommunikatsiyaga yordam beradi, nimalar unga to‘sinqinlik qiladi, turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilishni nimalar qiyinlashtiradi? Til va madaniyat bir-biri bilan qanday munosabatda bo‘ladi? Tilning shaxsning shakllantirishidagi ta’siri qanday bo‘ladi? Tilda individual va jamoaviy mentalitet, mafkura, madaniyat qanday aks etadi va qay tarzda shakllanadi? Milliy xarakter nima va u til bilan qanday shakllanadi? Chet tillarini o‘rganishda ijtimoiy-madaniy omilning roli qanday bo‘ladi? Ona tilidagi birlamchi dunyo manzarasi va boshqa tillarni o‘rganish jarayonidagi ikkilamchi dunyo manzarasi til va madaniyatda qanday vujudga keladi? Nima uchun butun dunyoni madaniyatlararo muloqot va madaniyatlararo to‘qnashuv muammolari tashvishga solib qo‘ydi? Mashhur amerikalik siyosatshunos olim Samuel Xantingtonni uchinchi jahon urushi siyosiy yoki iqtisodiy emas, balki madaniyatlar va sivilizatsiyalar urushi bo‘ladi, deb bashorat qilishiga sabab nima edi?

Demak, “Madaniyatlararo muloqot” fani yuqorida qayd etilgan savollarga javob beradi.

² Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. –М.: Слово, 2000. –С. 8-9.

Amerikalik tadqiqotchilar Judith Martin va Thomas Nakayamaning “Madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida” (Intercultural communication in contexts) nomli asarida madaniyatlararo muloqot masalalarini ko‘rsatish uchun Muhammad va Aleksning quyidagi tajribalarini keltirishadi:

Muhammad va Aleksning tajribalari madaniyatlararo muloqotning imkoniyatlari va muammolarini ko‘rsatib beradi. Madaniyatlararo munosabatlar orqali ko‘plab xalqlar va madaniyatlar, shuningdek, o‘zimiz va madaniyatimiz haqida bilib olishimiz mumkin bo‘ladi. Ayni paytda, ko‘plab muammolar bilan ham duch kelinadi. Binobarin, madaniyatlararo muloqot stereotiplar va diskriminatsiya kabi to‘sqliarni ham o‘z ichiga oladi. Mazkur munosabatlar murakkab tarixiy va siyosiy vaziyatlardan o‘rin oladi³.

Shunday qilib, “Madaniyatlararo muloqot” fani kommunikatsiya turlari, verbal va noverbal muloqot, kommunikatsiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, kommunikatsiyadagi to‘sqliar va ularni bartaraf etish yo‘llari, til va madaniyat munosabati, mentalitet, milliy xarakter, mafkura, olam manzarasining madaniyat va tilda ifodalanishi, madaniyatlararo to‘qnashuvlar, diskriminatsiyalar, stereotiplar, turli madaniyatlardagi ramzlar, tabular va evfemizmlarning talqini, gender va h.k. masalalarni tadqiq etadi.

“Amerika Qo ‘shma Shtatlarida kollejni tamomlab Quvaytga qaytganimda madaniyatimiz va dinimiz haqida hamma narsani bilib olgandim. Biroq men boshqa dunyo (AQSh)dagi kishilarning Yaqin Sharq yoki musulmonlar haqida qanday o‘ylashlarini bilmasdim. Shunday qilib, bu mamlakatda nafaqat mening irqimga qarshi, balki boshqa guruhlarga ham qarshi bo‘lgan ko‘plab diskriminatsiya holatlarining guvohi bo‘ldim... Shunday bo‘lsa-da, amerikaliklarning hammasi ham bizdan nafratlanmasligini tushundim, men bilan hamkorlik ailegan menga mehr va xavrxohlik ko‘rsatoan iuda ko‘n

“Dunyoni pul boshqardi. Dunyoda kuchli, qudratli bo‘lishning birdan-bir yo‘li bu iqtisodiy maqomga ega bo‘lishdir. Iqtisodiy maqomni qo‘lga kiritishning asosi esa turli madaniyat vakillari bilan muzokara olib borish va hamkorlik qilish hisoblanadi. Hozirgi kundagi mavjud texnologiyalar bu vazifani osonlashtiradi” (Aleks).

“Madaniyatlararo muloqot” tushunchasining mohiyati va o‘ziga xos

³ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. —P. 4.

xususiyati

9

Madaniyatlararo muloqot (Intercultural Communication) – turli madaniyat vakillari orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot bo‘lib, unda kishilar o‘rtasidagi bilvosita aloqa, shuningdek, kommunikatsiyaning bilvosita shakli (til, nutq, yozuv, elektron muoqot) nazarda tutiladi. Ba’zan madaniyatlararo muloqot “madaniyatlar kesihuvi” (“cross-cultural)ni ham ifodalaydi.

Inson boshqa odamlardan ayro holda yashay olmaganidek, bironta ham madanyat boshqa xalqlarning madaniy yutuqlaridan ihotalan holda to‘laqonli mavjud bo‘la olmaydi. Kishilar hayot faoliyati davomida muntazam ravishda o‘z o‘tmishiga yoki boshqa madaniyatlarning tajribasiga murojaat qiladilar. Hozirgi kunda Yer kurrasining chekka joylarida qolib ketgan ayrim kichik mahalliy qabilalarni istisno qilganda, dunyodan mutlaqo uzilgan madaniy hamjamiyatlar mavjud emas. Bugungi kunda har qanday xalq o‘zga madaniyat tajribasini qabul qilishga va o‘z madaniyati mahsulini boshqa xalqlar bilan bo‘lishishga tayyorligi tabiiydir. Boshqa xalqlar madaniyatiga bo‘lgan bunday munosabat “madaniyatlararo muloqot” yoki “madaniyatlarning o‘zaro aloqasi” deb nomlanadi⁴.

Madaniyatlarning o‘zaro aloqasi haqida so‘z yuritilganda, yirik guruuhlar (madaniyatlar va submadaniyatlar) orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi. Zamонавиј rivojlanish sharoitida madaniy aloqalar inson hayotining turli sohalarida – turizm, sport, shaxsiy aloqalar va h.k.da amalga oshadi. Bundan tashqari, keying yillarda dunyoda yuz bergan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar xalqlarning katta miqyosdagi migratsiyasiga, ko‘chishiga va ularning aralashuviga olib keldi. Ushbu jarayonlar natijasida aksariyat kishilar ilgari ularni ajratib turgan madaniy to‘sislarni yengib bormoqda. Ular o‘zga madaniyatlar bilan tanishishga, ular bilan aralashib ketishga majbur bo‘lmoqda. Shuning uchun madaniyatlarning o‘zaro aloqasi alohida kishilar orasidagi munosabatlar orqali amalga oshmoqda.

Ma’limki, madaniyatlararo muloqot “xabar yuboruvchi” va “xabarni qabul qilivchi” turli madaniyatlarga mansub bo‘lganda, shuningdek, kommunikatsiya ishtirokchilari bir-birining madaniy farqlarini tushunib yetganda amalga oshadi.

Madaniyatlararo muloqot – muayyan madaniyat va til sohiblarining o‘zga madaniyat va til vakillari bilan verbal (nutqli) va noverbal (nutqsiz) muloqot vositasidagi o‘zaro aloqa jarayonidir. Bunday muloqotning har bir ishtirokchisi o‘zining shaxsiy qoidalari tizimiga ega bo‘ladi.

Madaniyatlararo muloqot – turli madaniyat vakillari orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot bo‘lib, unda kishilar o‘rtasidagi bilvosita aloqa, shuningdek, kommunikatsiyaning bilvosita shakli (til, nutq, yozuv, elektron muoqot) nazarda tutiladi.

⁴ <http://www.grandars.ru/college/sociologiya/mezhkulturnaya-kommunikaciya.html>

Madaniyatlararo muloqot mohiyatan maxsus vaziyatdagi shaxslararo kommunikatsiya bo‘lib, u bir ishtirokchi boshqa ishtirokchining madaniy farqini sezganda yuzaga chiqadi. Bunday muloqot turli madaniyatlardagi har qanday insonga xos bo‘lgan farqli umidlar va ishonchlar bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Madaniyatlararo muloqot madaniyat farqlari ko‘rinib turgan individlar va guruhlar orasidagi ramziy o‘zaro munosabat jarayoniga asoslanadi. Ushbu farqlarning qabul qilinishi va ularga munosabat bildirilishi muloqotning ko‘rinishi, shakli va natijasiga ta’sir ko‘rsatadi. Madaniyatlararo muloqotda jarayoniga madaniyat farqlari bilan birga, muloqotchilarning yoshi, jinsi, kasbi, va ijtimoiy maqomi, shuningdek, uning sabr-bardoshi, uddaburonligi va shaxsiy tajribasi ham ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, madaniyatlararo muloqot turli madaniyat vakillari orasidagi o‘zaro aloqa, muloqotdir. Madaniyatlararo muloqot kommunikativ aktning farqli madaniyatlarga tegishli bo‘lgan ikki ishtirokchisining o‘zaro bir-birini tushunishidir.

Madaniyatlar o‘zaro ta’sirining darajalari

Madaniyatlar o‘zaro ta’sirining turli darajalari farqlanadi. O‘zaro ta’sirining *etnik darjasasi* mahalliy xalqlar, tarixiy-etnografik, etnokonfessial va boshqa hamjamiyatlar o‘rtasidagi munosabatlarga xosdir. O‘zaro ta’sirining *milliy darajasida* boshqaruv vazifalari ko‘proq davlatning siyosiy strukturalari tomonidan bajariladi. O‘zaro ta’sirining *sivilizatsiya darjasasi* o‘z-o‘zidan yuz beradigan tarixiy shakllarga ega bo‘ladi; biroq mazkur darajada ilgari bo‘lgani kabi hozirda ham ma’naviy, badiiy va ilmiy yutuqlarni almashish natijalari ko‘proq ahamiyat kasb etadi⁵.

Dunyo mamlakatlari va xalqlarining kundalik muloqot amaliyotida ko‘pincha har uchchala darajaga ham xos bo‘lgan jarayonlar va munosabatlarning kesishishi kuzatiladi. Madaniyatlararo aloqalarda, ayniqsa, ko‘pmillatli davlatlar ichida bir paytning o‘zida etnik tarkibni boshqaradigan ma’muriy-davlat shakllariga ega bo‘lgan va bunday shakllarga ega bo‘lmagan katta va mayda millatlar ishtirok etadi. Bunda son jihatdan ko‘pchilikni tashkil etadigan va madaniy jihatdan shakllangan xalqlar mayda millatlarga nisbatan o‘zaro aloqa jarayoniga ko‘proq ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shunga ko‘ra, tadqiqotchilar donor-madaniyat (ko‘proq berib, kamroq oladigan) va retsipyent-madaniyat (asosan qabul qiladigan madaniyat)ga ajratishadi. Tarixiy davrlarning muayyan bosqichida mazkur rollar o‘zgarishi mumkin.

Madaniyatlar o‘zaro ta’sirida uning strukturasi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zaro ta’sirning qadimiy va keng tarqalgan shakllaridan biri xo‘jalik texnologiyalari, mutaxassislar almashinuvindir; o‘zaro ta’sirning barqaror shakli davlatlararo munosabatlari, siyosiy va huquqiy aloqalar hisoblanadi.

⁵ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 7.

Madaniyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida o‘zaro aloqadagi xalqlarning tilida, badiiy yoki diniy amaliyotida, shuningdek, urf-odatlarida o‘zgarishlar yuz berishi mumkin.

Madaniyatlar o‘zaro ta’sirining shakllari va tamoyillari farqlanadi. Tarixan o‘zaro ta’sirning do‘stona, ixtiyoriy (bunday holatlarda o‘zaro aloqa teng hamkorlikka asoslanadi) hamda zo‘rlash, mustamlakaga aylantirish, harbiy yo‘l bilan bosib olishga (bunday holatlarda o‘zaro aloqa bir tomonlama manfaatga asoslangan) asoslangan shakllari ma’lum.

Xalqaro aloqalar amaliyoti alohida ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlar orasidagi madaniyatlararo aloqalarni boshqaradigan siyosiy shaklning faoliyati jarayonida maxsus tashkilotlar va uyushmalar (masalan: BMT, YUNESKO) tomonidan maqsadga yo‘naltirilgan o‘zaro aloqalar yo‘lga qo‘yiladi.

Shaxs va uni shakllantiruvchi omillar

Shaxs aksariyat kishilar uchun munozarali masalalardan biridir. Shaxs bu bizning kimligimizni va biz haqqimizda boshqalarning nima deb o‘ylashlarini anglatuvchi konsept. Biz o‘zimizning kimligimizni qanday anglaymiz? Bizning shaxsimiz boshqa shaxslar bilan qanday munosabatda bo‘ladi? Kishilar o‘zlarini qanday ko‘rsatishadi va ular boshqalarning o‘zlarini haqidagi taassurotlarini qaysi shaklda boshqarishadi. Taassurotlarni boshqarish nazariyasi individlarning boshqalarning o‘zlarini haqidagi taassurotlarini nazorat qilishda qaysi usullardan foydalinishga urinishlarini ifodalaydi. Ayrim tadqiqotchilar individlar doimiy ravishda o‘zlarining kuchili va yaxshi fazilatlarini bo‘rttirish uchun “foyda nazorati”ni, nuqsonlarini kamaytirish uchun esa “zarar nazorati”ni olib borishlarini qayd etadilar (Tedeschi, Lindskold, & Rosenfeld, 1985; Rosenfeld and Giacalone, 1991). Shunday bo‘lsa-da, individlar boshqalarning taassurotlarini to‘laligicha nazorat qila olmaydilar, bu o‘rinda shaxsning rivojlanishi va shakllanishida o‘zaro ta’sir ham muhim rol o‘ynaydi.

Shaxsning tavsiflari qanday? Shaxs va kommunikatsiyaga uch nuqtayi nazardan yo‘ndashiladi:

Shaxs va kommunikatsiyaga uch nuqtayi nazardan yondashuv		
Ijtimoiy fanlar	Talginiy	Tanqidiy
<p>Shaxs kishinig o‘zi tomonidan yaratiladi (guruhrilar bilan munosabatda).</p> <p>Individual, yaqin va ma’naviy o‘zlikka urg‘u beriladi</p>	<p>Shaxs boshqa kishilar bilan muloqot orqaladi shakllanadi.</p> <p>Tan olish va nisbat berish o‘lchoviga urg‘u beriladi</p>	<p>Shaxs ijtimoiy, tarixiy kuchlar orqali shakllanadi.</p> <p>Vaziyat va shaxsga nisbat berishga urg‘u beriladi</p>

E.M. Vereshchagin⁶ aytganidek: “Odamzot rus yoki nemis yoxud yapon bo‘lib tug‘ilmaydi, balki unga mos ijtimoiy guruh doirasida o‘sha millat kishisiga aylanadi”. Bir hisobda biz o‘z tilimiz va uning tarkibidagi madaniyatning mahsulimiz. Til o‘z so‘zlashuvchilarini aks ettiradi, shu bilan birga, ular tashkil etgan jamiyatning milliy xarakteri va mentaliteti ham unda o‘z ifodasini topadi. “Mentalitet” tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko‘p bo‘lman bo‘lsa-da, hozirda juda keng doirada qo‘llanilmoqda. Tor ma’noda mentalitet “fikrlash doirasi, dunyoqarash” mazmunida foydalanilsa, keng ma’noda esa “xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri tushuniladi”. Tilshunos olimlardan biri Kotenka “mentalitet” va “dunyo tasviri” tushunchalari orasiga tenglik belgisini qo‘yadi va uni “intellektual, ma’naviy va irodaviy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan ona tili doirasida olamni anglash⁷”, deb aytib o‘tadi. Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet – bu “xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma’naviy jabhalarida ham o‘z aksini topgan xarakteridir⁸”. Shunday ekan, yuqorida aytib o‘tilganidek, “milliy xarakter” xalqning dini, siyosati, urf – odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o‘rni bilan ham chambarchas bog‘liq.

Milliy xarakter tushunchasi o‘rganish obyekti sifatida murakkab, ammo o‘rganish mumkin bo‘lgan ijtimoiy tarixiy hodisadir. U millat hayotidagi tarixiy kategoriya bo‘lib, uni o‘rganish, tushuntirib berish uchun bevosita o‘sha millat tilini, tarixini, hayotini, madaniyatini ham yaxshi bilish zarur. Har bir xalq butun xususiyatlari bilan olingandagina va betakror bo‘lib ko‘rinishi mumkin, uning har bir etnik xususiyati alohida olib ko‘rilsa, mutloq noyob xususiyat bo‘la olmaydi. Milliy xarakter muammosini o‘rganishdagi murakkablik va chalkashliklar ko‘pincha dialektikadagi umumiylit va xususiylik, mushtaraklik va alohidalikni tushunmaslik natijasida vujudga keladi, degan edi I.S.Kon. Uning ta’kidlashicha, rus milliy xarakteriga bag‘ishlangan ishlarda ko‘pincha ularda emotsiunal vazminlik, deb ataladigan hislat ko‘rsatiladi. Milliy xarakter va etnik psixologiyani o‘rganishning muxoliflari, milliy xarakterdagi keltirilgan hislatlarni qaysi biri birorta xalqda yoki millatda mavjud emas? deb savol qo‘yishadi. Milliy xarakterni o‘rganishda tadqiqotchilar uchraydigan qiyinchilik ham mana shunda. Darhaqiqat, xarakterning qaysi bir xususiyatini olib ko‘rmaylik, albatta, u barcha xalqlar va millatlarda ham mavjud ekanligini ko‘ramiz. Xo‘s, millat o‘zi nima?

Millat – arabcha (xalq) kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiylit madaniyat va ruhiyatiga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi. Millatning tili esa uning madaniyatini aks ettiruvchi ko‘zgu hisoblanadi. Tilshunos Terminasova takidlaganidek, tilni va insoniyatni bir biridan ajratib bo‘lmaydi. Bularning ikkisi ham bir birisiz mavjud bo‘la olmaydigan tushunchalardir. Demakki, insoniyatni ham, u yaratgan madaniyatni ham tildan xoli ravishda

⁶ Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. – М., 1980. – С.35.

⁷ Котенка Р. Вопрос о человеке в философии М. Бубера // Человек, 1997. – № 4. – С.14.

⁸ Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества// Избр. труды по языкоznанию. – М., 1984. – С.348.

o‘rgana olmas ekanmiz. Til bizni o‘rab turgan olamni o‘zida aks ettiradi, biz yaratayotgan madaniyatni ko‘rsatib beradi va uni ajdodardan avlodlarga o‘tishini ta’minlaydi. Demak, u insoniyat tafakkuri, mentaliteti, dunyoqarashi, milliy xarakterini o‘zida mujassam etgan madaniyat yaratuvchisi ekan.

Umumiy turmush tarziga ega, bir tilda so‘zlashuvchi odamlar majmui xalq deb, odamlarning o‘zini insonlar sifatida anglab, muayyan maqsadlar atrofida ongli uyushgan holati esa millat deb ataladi. Millat so‘zining mohiyatida e’tiqod yo‘lida birlashganlar maslagi, g‘oyasi yakdil fidoiylar degan mazmun mujassamdir.

Xalq millatga nisbatan tarqoq tushuncha bo‘lib, ko‘proq o‘zini etnik jihatdan himoya qilishga intiladi va shu ko‘lamlarda uning faollik darajasi cheklanadi. Millatga aylangan xalq esa o‘z-o‘zini siyosiy, ma’naviy, axloqiy, intellektual, mafkuraviy jihatlardan himoya qiladi. Millatga aylangan xalq tarkibidagi insonlar ozod va shijoatkor, doimiy o‘sish, o‘zgarishlar ishtirokida yashaydi.

Milliy xarakterni tadqiq etishga XIX asrda e’tibor kuchaydi. Bu borada qator izlanishlar olib borgan etnopsixolog olimlar o‘z asarlarida milliy xarakterning real voqelik sifatida mavjudligini e’tirof etgan. Faylasuf E. Fridrix Angliya tarixini o‘rganar ekan, fransuz va nemislarda bo‘lmagan o‘ziga xos mustaqillik, o‘ziga ishonch xususiyatlari rivojlanganini ko‘rsatib beradi. Olim ingliz milliy xarakteri nemislarnikidan ham, shuningdek, fransuzlarnikidan ham keskin farqlanishini aytib o‘tgan. Ammo buni inkor etuvchilar milliy xarakter mavjud emas, degan fikrni olg‘a suradilar va bir biriga qardosh xalqlar orasida tafovut bo‘lmaydi deyishadi. Diqqat qilib o‘rganish va tekshirish jarayonida hamma xalqlarning milliy xarakterida bir biridan farq qiluvchi xususiyatlar borligini payqab olish mumkin. Milliy xarakterdagи bu farqlarni xatto kundalik hayotimizda ham ko‘p uchratamiz.

Xalqlarning turlicha xarakter hislatlariga ega bo‘lishligi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, tarixiy taraqqiyoti va tabiiy yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Bunda ijtimoiy munosabatlar milliy xarakter rivojlanishida yetakchi o‘rinni egallaydi. Har bir tarixiy davr, shu davrdagi ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida milliy mafkura manfaatlariga mos bo‘lib tushadigan o‘z milliy xarakter idealini yaratadi. Shu davrdagi xarakter tipi kishilarning yashash tarzini aks ettiradi.

Xalqning butun tarixi davomida orttirgan har bir xarakter hislatlarining vujudga kelishi kishilar ruhiyatiga atrofdagi voqeliklarning uzoq vaqt davomida ta’sir etib turishi bilan bog‘liqdir. Milliy xarakterga qanday ruhiy hislat va sifatlarni kiritish mumkin? Shuni ta’kidlash kerakki, “milliy xarakter” tushunchasi haqida hali ham umumiyoq bo‘lgan bir xil qarash mavjud bo‘lmasada, lekin unga kiruvchi hislatlar to‘g‘risida umumiyoq bo‘lgan fikrlar mavjud. Ko‘p tadqiqotchilar milliy xarakterga, mehnatga munosabat (mehnatsevarlik), vatanparvarlik, erksevarlik, jangavorlik, dovyuraklik kabi hislatlarni kiritishadi. Bizning fikrimizcha, yuqoridaq hislat va sifatlar bilan bir qatorda, milliy xarakter tarkibiga yana millatning aql tuzilishi, boshqa xalqlarga bo‘lgan munosabati va shu millat vakillarining o‘zaro munosabatlarini belgilovchi xususiyatlar ham kiradi. Bu esa bevosita shu xalqning tilida, boy madaniy merosida o‘z aksini topadi.

Milliy xarakterni tadqiq etishdagi asosiy qiyinchilik shundaki, bir xalqqa yoki millatga xos bo‘lgan hislatlar boshqa millat vakillarida ham uchrashi mumkin.

Darhaqiqat, xarakternig qaysi bir xususiyatini olib ko‘rmaylik, albatta, u barcha xalqlar va millatlarda ham mavjud ekanligini ko‘ramiz. Masalan, erksevarlik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi hislatlar hamma xalqlarga xos bo‘lgan xususiyat bo‘lgani holda, bu hislatlar o‘zining namoyon bo‘lishi, tuzilishi jihatdan barcha xalqlarda bir xil kechmaydi. Zero, xarakter hislatlarini keltirib chiqaruvchi yashash tarzi, tarixiy taraqqiyot va faoliyat sharoitlari aynan bir xil bo‘limganligi sababli, yuqoridagi xarakter hislatlarining namoyon bo‘lishi ham ularda aynan bir xil bo‘lolmaydi.

Masalan, Kavkazdagi tog‘li xalqlarni o‘rgangan tadqiqotchilar ularda jangovorlik, mag‘rurlik kabi xarakter hislatlari kuchli ekanini e’tirof etishadi. “Ulardagi bu xarakter, – deb yozadi T.Ch.Chomayev, – tog‘li xalqlarning tashvishli va havf-xatarga to‘la hayotning in’ikosi bo‘lib, unga moslashish zaruriyati natijasidir. Demakki, miliy xarakterning shakllanishida, avvalo, yashash sharoiti, ya’ni relefning ta’siri kuchli ekan. Bunga yana misol sifatida Gollandiya xalqlarini olaylik. Ularning yashash sharoiti doimiy mehnatni va yerga ishlov berishni talab qiladi, shu sababli ularning milliy xarakterida tirishqoqlik va sabot bilan mehnat qilish hislatlari birinchi o‘rinda turadi. Gollandlar o‘z farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalashga alohida e’tibor qaratar ekanlar va bolalariga kaftlaridagi egri -bugri chiziqlarni ko‘rsatib, M - man – odam , W - work – mehnat, deb yoshligidanoq uqtirar ekanlar. Qarangki, o‘zbek va koreys xalqi ham mehnatsevarlik hislatini juda ulug‘laydi. Chunki qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz dehqonchilik, chorvachilik, mirishkorlik bilan shug‘ullanib kelganlar va bu mehnatkashlik bizning qonimizda ham saqlanib qolgan xarakterimizning bir qismidir. Yana shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, har bir xalqning mehnatsevarligi turli ko‘rinishda kechadi. Masalan o‘zbeklar ham, koreyslar ham, ikkalasi mehnatkash xalq. Lekin ularning mehnatsevarligi faoliyatining turli sohalarida turlicha namoyon bo‘ladi. Bir necha asrlar davomida o‘zbeklar dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan, shu boisdan ularda mahsulot ishlab chiqarishning asosiy omili bo‘lgan yerga nisbatan ehtiyyotkor, tejamkorona munosabatda bo‘lish xususiyatlari vujudga kelgan. Shu boisdan o‘zbek nutqida ona yer, ona tuproq, ona zamin kabi yerni ultiug‘lovchi iboralarga ko‘plab duch kelamiz. Bu o‘zbek milliy xarakterining nutqda aks etgan bir namunasi, xolos. Agar biz milliy xarakter va mentalitetni nutqdagi aksini chuqurroq tahlil qilib o‘rgansak, bundanda ko‘proq misollarga duch kelamiz.

Yer yuzidagi har bir xalq o‘ziga xos milliy xarakterni namoyon etadi. Ammo bu milliy xarakterni mutloqlashtirib yuborish kerak degani emas. Boshqa xalqlarda va millatlarda uchramaydigan, faqat bir xalqqagini xos bo‘lgan sof milliy xarakter umuman tabiatda uchramaydi. Milliy xarakterga oddiy shaxslar xarakterining yig‘indisi deb qarash ham noto‘g‘ri. U ommaviy fenomen sifatida, individual xarakterlarning umumiy bo‘lgan hislatlari ijtimoiy jihatidan qayta ishlanib, yangi, maxsus sifatga aylangan vaqtida tarkib topib namoyon bo‘ladi. Masalan, xor ovozi hech bir xor qatnashchisining ovoziga o‘xshamagandek, milliy xarakter ham birorta millat vakilining xarakteriga o‘xshamaydi yoki millat xarakteri hech bir millat vakilida tugaligicha aks etmaydi. Milliy xarakter o‘zgarmas, turg‘un narsa ham emas. U tarix mahsuli. Shuning uchun ham uni vujudga keltirgan tarixiy,

ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan u ham malum darajada o‘zgaradi, hatto bir ijtimoiy tizimning o‘zida ham u ayrim hislatlarni yo‘qotib, yangi hislatlarni paydo qilib turishi mumkin.

Shuningdek, har bir xalq boshqa xalq bilan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishganda undan o‘zida yo‘q narsalarni oladi va o‘zidan ham ularda bo‘lmagan narsalarni beradi. Lekin boshqa xalqlardan olingan bu xarakter hislatlari, millat vakillari tomonidan o‘zlashtirilganda aynan o‘zgarishsiz ko‘chira olmay, o‘ziga xos milliy ifodani oladi. Ma’lumki, har bir inson shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat o‘zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta’siri ostida bo‘lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to‘plangan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta’siri ostida ham shakllanadi. Urf odatlar va rasm-rusumlar kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor, qoidalar va ko‘nikmalardir. Urf-odat va rasm-rusumlar har bir millatning o‘ziga xos tizimini tashkil qiladi. Millat tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilingan. Urf-odat va rasm-rusumlarga befarq kishi o‘zini o‘z millatidan ajratib qo‘yadi.

Bunda, ayniqsa, har bir xalqqa xos bo‘lgan milliy urf-odat va an’analarning roli kattadir. Shunday ekan, lingvokulturologiyaning asosiy o‘rganish obyektlaridan bo‘lgan milliy xarakterning tildagi ifodasini ayna o‘sha urf-odat, an’ana, udum va turli marosimlarni atroflicha o‘rganish, ularning vujudga kelishi, namoyon bo‘lishi, saqlanishi va o‘zgaruvchanligi kabi qonuniyatlarini ochib berish va tahsil qilish yordamidagina chuqurroq va batafsil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Nazorat uchun savollar:

1. Madaniyatlararo muloqotga oid dastlabki tadqiqotlar qayerda va qachon vujudga keldi?
2. “Madaniyatlararo muloqot” tushunchasi ilk bor qaysi asarda ilmiy muomalaga kiritildi?
3. AQSh Dimlomatik xizmatlar institutida madaniyat farqlari haqidagi nazariyani ishlab chiqish uchun qanday imkoniyatlar mavjud edi?
4. Tilshunoslar madaniyatlararo aloqa masalalariga qanday yordam berishadi?
5. Tilda qanday mohiyatlar aks etadi?
6. Antropologiya qanday fan?
7. Antropologiya inson haqidagi fanlardan qanday xususiyati bilan ajralib turadi?
8. “Bixevoirizm” qanday nazariya?
9. Madaniyatlararo muloqotning vujudga kelishida qaysi sohalarning hissasi katta bo‘ldi?
10. Funksional yo‘ndashuvning mohiyatini tushuntirib bering.
11. Izohlovchi yondashuvning maqsadi nimadan iborat?
12. Tanqidiy yondashuv tarafдорлари kommunikatsiyaning qaysi jihatni bilan qiziqdilar?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. E. T. Hallning “Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi” mavzusida referat yozish.
2. “Tilshunoslik, antropologiya va psixologiya” mavzusida taqdimot tayyorlash.

Adabiyotlar

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
2. Boldyrev V.E. Vvedeniye v teoriyu mejkulturnoy kommunikatsii. Kurs leksiy. —M.: Russkiy yazыk, 2009. -141 c.
3. Ter-Minasova S. G. Yazыk i mejkulturnaya kommunikatsiya. —M.: Clovo, 2000. -624 s.
4. Falkova Ye.G. Mejkulturnaya kommunikatsiya v osnovnyx ponyatiyax i opredeleniyax. Metodicheskoye posobiye. SPb.: F-t filologii i iskusstv SPbGU, 2007. -77 s.

6-MAVZU: TIL, MADANIYAT, MADANIYATLAR TIPOLOGIYASI VA KOMMUNIKATSİYA. KOMMUNİKATİV FAOLİYAT (2 SOAT)

Reja:

1. Madaniyatlararo muloqotning shakllanishi va rivojlanishi
2. Madaniyatlararo muloqotning boshqa fanlar bilan aloqasi
3. Madaniyatlararo muloqotni o‘rganishdagi uch yondashuv

Tayanch so‘z va iboralar: *Dimlomatik xizmatlar instituti, milliy madaniyat, etnik madaniyat, tilshunoslik, milliy komponent, antropologiya, fizik antropologiya, madaniy antropologiya, psixologiya, geshtalt, bixevoirizm, funksional yondashuv, izohlovchi yondashuv, tanqidiy yondashuv.*

Madaniyatlararo muloqotning shakllanishi va rivojlanishi

Madaniyatlararo muloqotga oid tadqiqotlar negizini Ikkinchi Jahon urushidan keyin Amerika Qo‘shma Shtatlarining xalqaro miqyosdagi nufuzining ortishi bilan bog‘lash mumkin. Bu davrda xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan hukumat vakillari va ishbilarmonlarning turli madaniyat vakillari bilan ishslash uchun hali tayyor emasligi sezilib qoldi. Bunga javoban AQSh hukumati tomonidan 1946-yilda “Diplomatik xizmat haqida”gi Qonun qabul qilindi va Dimlomatik xizmatlar instituti – Foreign Service Institute (FSI) tashkil etildi. Dimlomatik xizmatlar instituti qoshida xorijga yuboriladigan kadrlar uchun maxsus tayyorlov kurslari ochilib, ularni rivoshlantirish uchun Edvard T. Hall boshchiligidagi antropolog olimlar va tilshunoslar (Ray Birdwhistell va George Trager) jalb etildi. Bu davrda madaniyatlararo o‘quv materiallari deyarli mavjud emasdi. Shuning uchun o‘quv materiallar kurslarga jalb etilgan mutaxassislar tomonidan tayyorlandi.

“Madaniyatlararo muloqot” tushunchasi birinchi marta 1954-yilda G.Trager va E. Hallning “Madaniyat va kommunikatsiya. Tahlil modeli” nomli asarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Mazkur asarda “madaniyatlararo muloqot” insonning o‘z istaklari yo‘lida intilishi lozim bo‘lgan ideal maqsadi, uni o‘rab turgan tashqi dunyoga yaxshiroq va samaraliroq moslashishi sifatida talqin qilindi. Shuningdek, asarda madaniyat va kommunikatsiyani o‘rganishning yangi usullari ishlab chiqildi. Shu tariqa madaniyatlararo muloqot yo‘nalishi shakllantirildi va u hozirgi kunda tadqiqotchilar tomonidan nazariy jihatdan yetarli darajada rivojlantirib kelinmoqda.

Dimlomatik xizmatlar instituti tomonidan katta qiziqish bildirilgan hodisalardan biri noverbal muloqot edi. Kommunikatsiyaning noverbal jihatlari tilshunoslar tomonidan atroficha tadqiq etildi. Tilshunoslar noverbal muloqot ham xuddi til singari madaniyatga bog‘liq bo‘ladi, degan xulosaga keldilar. Madaniyat va kommunikatsiya tadqiqining muboshiri bo‘lgan E. T. Hallning “Sukut tili” - The Silent Language (1959) va “Yashirin jihat” - The Hidden Dimension (1966) kabi asarlari yangi yo‘nalishning shakllanishiga asos bo‘ldi.

Dimlomatik xizmatlar instituti xodimlari tomonidan hukumat vakillarining madaniyat va kommunikatsiya nazariyasi emas, balki ularni ko‘proq xizmatga boradigan mamlakatlardagi boshqaruv tamoyillari qiziqtirayotgani aniqlandi. E. T. Hallning xorijga yuboriladigan kadrlarlarni maxsus tayyorlov kurslari uchun o‘quv materiallarini rivojlantirishdagi asosiy strategiyasi turli madaniyatlar orasidagi farqlarni o‘rganish edi. Dimlomatik xizmatlar institutida E. T. Hall bilan birga ishlaydiganlarning aksariyati turli tillarda so‘zlashadigan farqli madaniyat vakillari bo‘lgani uchun bu yerda madaniyat farqlari haqidagi nazariyani ishlab chiqish imkoniyat katta edi. Masalan, u italyanlar suhbat chog‘ida bir-birlari bilan juda yaqin turishini, yunonlar o‘zaro muloqotda qo‘l harakatlarini ko‘p ishlatishlarini, yoki xitoyliklar so‘zlashuv paytida juda kam qo‘l harakatlaridan foydalanishlarini kuzatishi va tajribalarini tasdiqlash uchun turli madaniy guruh a’zolaridan maslahat olishi mumkin edi. Bugungi kunda ham madaniyatlararo muloqot sohasida yaratilgan ko‘pchilik o‘quv qo‘llanmalarida ushbu tamoyilning saqlanib qolganligini ko‘rish mumkin⁹.

Madaniyatlararo muloqotni tasvirlashda dastlab madaniyatni klassik tushunishdan foydalanildi. Bunda milliy yoki etnik madaniyatning me’yorlari, qadriyatları, strukturalari va artefaktlari nazarda tutildi. Hozirgi kunga kelib, madaniyatni dinamik tushunish ustuvorlik qilmoqda. Ya’ni, madaniyat har qanday ijtimoiy guruhning (masalan: shahar madaniyati, avlodlar madaniyati, tashkilotlar madaniyati) turmush tarzi, fe’l-atvori, me’yorlari, qadriyatları va h.k. tizimi sifatida talqin qilinmoqda.

Madaniyatlararo muloqotning boshqa fanlar bilan aloqasi

AQSh Dimlomatik xizmatlar institutida turli soha mutaxassislari, jumladan, tilshunoslar, antropologlar va psixologlar faoliyat olib borishdi. Kommunikatsiyaga oid tadqiqotlarni amalga oshirishda har bir mutaxassis o‘zining sohasidagi nazariyalarga tayanib ish ko‘rdi. Natijada tilshunoslik, antropologiya va psixologiya sohalarining kesishmasida kommunikatsiyaga kompleks yondashuv yuzaga keldi. Bugungi kunda ham mazkur yondashuv o‘z samarasini bermoqda.

Tilshunoslik. Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda “til va madaniyat” masalasiga katta e’tibor qaratiladi. Til – madaniyatning ko‘zgusi bo‘lib, unda nafaqat insonni o‘rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an’analari, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlar yig‘indisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

Agar tilga uning strukturasi, vazifalari va uni o‘zlashtirish jihatidan qaraladigan bo‘lsa, u holda ijtimoiy qatlam yoki madaniyatning komponenti tilning tarkibiy qismi bo‘ladi. Ayni paytda madaniyatning komponenti til orqali xabar qilinadigan qandaydir madaniy informatsiya emas. U tilning barcha sathlariga tegishli bo‘lgan tilga xos ajralmas xususiyatdir.

Tilshunoslar madaniyatlararo aloqa masalalarida tilning ahamiyati va rolini tushunishda yordam berishadi. Ular tillarning botiniy va zohiriyl strukturalari

⁹⁹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. — New York: McGraw-Hill, 2010. — P. 45-46.

jihatidan farqlanishini, til va real borliq orasidagi o‘zaro aloqalarni yoritib beradilar. Shuningdek, tilshunoslar ikkinchi yoki uchinchi tilni o‘rganish kishilarning boshqa madaniyatlar haqidagi bilimlarini kengaytirishi, ularning madaniyatlararo salohiyatini kuchaytirishiga xizmat qilishini uqtirishadi.

Antropologiya. Antropologlar madaniyatning inson hayotida muhim rol o‘ynashi va noverbal muloqotning ahamiyatini tushunishga yordam berishadi. Jumladan, antropolog Renate Rosaldo (1989) tadqiqotchilarni madaniyatni o‘rganish usullarini o‘zlashtirishga undagan va ko‘pchilik antropolog olimlar uning izidan borgan¹⁰.

Inson madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi masalasi bilan madaniy antropologiya shug‘ullanadi. Antropologiya nomidan ham ko‘rinib turganidek, inson haqidagi fandir. Biroq inson haqidagi fanlar qatoriga barcha gumanitar va ayrim tabiiy fanlar (tibbiyot va qisman biologiya) ham kiradi. Inson haqidagi fanlarning ko‘p bo‘lishi tabiiy, chunki inson murakkab, ko‘pqirrali mohiyatdir. Shuningdek, mazkur fanlarning barchasi markazida inson bo‘lgan kishilik jamiyatida rivojlanadi.

Antropologiya qayd qilingan inson haqidagi fanlardan ajralib turadi. U insonning boshqa jihatlarini birlashtirishga harakat qilib, uning fizik va madaniy rivojlanish jarayonini global va har tomonlama o‘rganadi.

Antropologiya fizik antropologiya va madaniy antropologiyaga ajraladi. Fizik antropologiya turli irqlarga mansub bo‘lgan insonning biologik kelib chiqishi va uning fizik tuzilishining evolyutsiyasini o‘rganadi. Madaniy antropologiya inson madaniyatining shakllanishi va rivojlanishini o‘rganadi.

Demak, madaniy antropologiya insoniyat madaniy rivojlanishining umumiyligi muammolarini o‘rganuvchi, o‘zida barcha gumanitar fanlar bilimlarini mujassamlashtiruvchi, insonni “Inson” qiluvchi va uni hayvonot dunyosidan ajratuvchi noyob jihatlarini tadqiq etuvchi favqulodda keng fundamental fan hisoblanadi. Binobarin, hayvonlarda muayyan xatti-harakatlar tizimi mavjud bo‘lsa-da, ularda madaniyat mavjud emas¹¹.

Madaniyat madaniy antropologiyaning predmeti sifatida millat, sinf, guruhlarning muayyan davrdagi hayot tarzini tarkib toptiradigan kishilik jamiyatini faoliyatining natijalari yig‘indisidir.

Madaniy antropologiya madaniyat rivojining barcha qirralarini, xususan, insonning hayot tarzi, mentaliteti, milliy xarakteri, ma’naviy, ijtimoiy va ishlab chiqarish faoliyatini tadqiq etadi. Madaniy antropologiya insonning madaniyatni muloqot orqali rivojlantirishdek nodir qobiliyatini o‘rganadi, til va madaniyatning o‘zaro aloqasiga alohida e’tibor qaratadi.

Psixologiya. Madaniyatlararo muloqotni shakllanishi va rivojlanishida psixologiya alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, psixologiyaning geshtalt, bixevoirizm, kommunikatsiya va faoliyat nazariyalari madaniyatlararo muloqot masalalariga bog‘lanadi.

¹⁰ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. — New York: McGraw-Hill, 2010. — P. 47-48.

¹¹ Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. — М.: Слово, 2000. — С. 15-16.

Bixevoirizm (ingl. behavior – fe'l-atvor) nazariyasi XX asrning boshlarida AQShda vujudga keldi. Mazkur nazariyaga ko'ra, psixologiyaning predmeti tafakkur emas, balki insonning fe'l-atvoridir. Chunki, bixevoiristlarning nazdida tafakkurni bevosita kuzatib yoki o'lchab bo'lmaydi. Bixevoirizm psixikaga kishining hayoti va faoliyati kontekstini kiritadi va uni tashqi ta'sirlar hamda organizmning fiziologik xususiyatlari bilan bog'laydi. Bixevoirizm nuqtayi nazaricha, mahluqqa (bu odam yoki jonivor bo'lishi mumkin va h.k.) ta'sir qiladigan qandaydir stimul (S) va ushbu stimulga qandaydir reaksiya (R) bor (S -> R).

Keyinroq ushbu formula 3 tarkibda yanada mukammallashtirildi: inson organizmi x stimullar = fe'l-atvor. Bunda tashqi predmet stimullari inson hayot faoliyatining madaniy muhitida shakllanadigan stimullarga o'zgartirildi. Ya'ni, endilikda predmetlar dunyosi o'rmini jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan madaniy belgilar egallaydi. Shunday qilib, baribir yana 2 tarkibli (S -> R) formulaga qaytiladi, faqat stimul endi "madaniy stimul" sifatida talqin qilinadi.

Bu orada boshqa bir psixologiya maktabi – geshtaltpsixologiya (nem. gestalt – shakl, (yaxlit) obraz, (tashqi) ko'rinish) yuzaga keldi. Geshtaltpsixologiya inson fe'l-atvorini "insayt" (ingl. insight – birdan tushunish, aqliga kelish) tushunchasi bilan izohladi. Mazkur tushunchaga universal xarakter berildi. Geshtaltchilar intellektual masalalarni yechishda insaytning asosiy rol o'ynashini da'vo qildilar¹². Tafakkur dinamik bir butun "maydon", uning tahlil birligi "geshtalt" – butun bir obraz sifatida talqin qilindi.

Keyingi davrdagi psixologlar, masalan, Gordon Allport stereotip tushunchasi, stereotiplarning hayotdagি funksiyalari va madaniyatlararo muloqotni tushunish yo'llarini tadqiq etdilar. Richard Brislin (1999) va Dan Landis (Landis & Wasilewski, 1999) singari psixologlar muloqot jarayoniga milliylik, etnik egalik, shaxs va gender farqlarining ta'sirini ko'rsatib berdilar¹³.

Shunday qilib, garchi madaniyatlararo muloqot kommunikatsiyaning muayyan turi bo'lsa-da, "madaniyat" tushunchasi madaniyatlararo muloqotni fanlararo metafanga aylantirdi. Madaniyatlararo muloqotning vujudga kelishida tilshunoslik, antropologiya, psixologiya, sotsiologiya, etnologiya, folklorshunoslik va h.k. sohalarning hissasi katta bo'ldi. Mazkur sohalarning nazariya va metodlari asosida madaniyatlararo muloqot integrativ xarakter kasb etdi. Bugungi kunda "Madaniyatlararo muloqot" fanining *integrativ* xarakteridan tashqari, uning *amaliy* (turli madaniyat vakillari orasidagi kommunikatsiyani qulaylashtirish, to'qnashuvlarni kamaytirish) xususiyati ham ortib bormoqda.

Madaniyatlararo muloqotni o'rganishdagi uch yondashuv

Madaniyatlararo muloqotni o'rganishda uchta: funksional, izohlovchi (interpretiv) va tanqidiy metodologik yondashuv shakllandi. Ushbu yondashuvlar

¹² Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 10-12.

¹³ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. —P. 48.

insonning tabiatini, uning fe'l-atvori va bilimlari haqidagi turli tasavvurlarga asoslanadi¹⁴.

Funksional yo'ndashuv. 1980-yillarda yuzaga kelgan funksional yo'ndashuv sotsiologiya va psixologiyaning metodlariga asoslanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, har qanday xalqning madaniyatini turli metodlar yordamida tasvirlash mumkin. Shuningdek, madaniyatdagi har qanday o'zgarishni ham tasvirlash va o'lhash mumkin. Madaniyat insonning fe'l-atvori va muomalasini belgilaydi. Shuning uchun ularni ham tasvirlash va oldindan aytish mumkin bo'ladi. Funksional yo'ndashuvning asosiy maqsadi – kommunikatsiyaga madaniyat ta'sirinining xususiyatini ko'rsatishdir. O'zaro aloqadagi tomonlarning madaniy farqlarini qiyoslash kommunikatsiyaning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini aytib berish imkonini beradi.

Kommunikatsiyaga moslashish nazariyasi funksional yo'ndashuvning natijasiga aylandi. Binobarin, madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida kishilar ko'pincha o'zlarining kommunikativ fe'l-atvor modellarini o'zgartirib, suhbatdoshlarining muloqot modeliga moslashadilar. Bunda kommunikatsiya usulining o'zgarishi bamaylixotir, erkin muloqot chog'iga yoki suhbatdoshlar o'rtaida katta farq kuzatilmagan holatlarga nisbatan tezroq yuz beradi.

Izohlovchi (yoki interpretiv) yondashuv. Bu yondashuvning maqsadi inson fe'l-atvorini oldindan aytib berish emas, balki uni tushunish va tasvirlashdan iborat. Izohlovchi yondashuv tarafдорлари madaniyatga muloqot vositasida shakllangan va o'zgaradigan insonning yashash muhiti sifatida qarashadi. Mazkur yondashuvda antropologiya va tilshunoslikning rolli o'yinlar, kuzatish va h.k. metodlaridan foydalaniladi. Odatda, asosiy e'tibor alohida guruhlар ichidagi kommunikatsiya modellarini tushunishga qaratiladi. Madaniyatlararo muloqotni izohlovchi yondashuv asosida tadqiq etish jarayonida u yoki bu kishilik hamjamiyatining kommunikatsiya qoidalari mazkur guruhning madaniy qadriyatlari va tasavvurlariga asoslanadi, degan xulosaga kelindi.

Tanqidiy yondashuv. Ushbu yondashuv tarafдорлари, avvalo, kommunikatsiyaning tarixiy vaziyati bilan qiziqishdi. Ularning tadqiqotlari muloqotda har doim kuchlar munosabati mavjudligiga asoslandi. Mazkur nuqtayi nazarga ko'ra, madaniyat jang maydoni sifatida talqin etildi. Ya'ni, madaniy hodisalarning ko'plab izoh va talqinlari bir joyga yig'iladi, har doim madaniy farqlarni belgilovchi va uning xarakterini tushuntiruvchi hukmron kuch mavjud bo'ladi. Madaniyatlararo muloqotni o'rganishdan maqsad – inson fe'l-atvorini tushuntirishdir va bu orqali insonlar hayotini o'zgartirishdir. Tanqidiy yondashuv tarafдорларining fikricha, madaniy vaziyatlardagi hukmron kuchlarni tadqiq etish va tasvirlash kishilarni qarshi tura olishga va boshqa madaniyat vakillari bilan yanada samaraliroq muloqotni yo'lga qo'yishga o'rgatadi.

Tanqidiy yondashuvning asosiy metodi matnlar tahlili hisoblanadi. Mazkur jarayon aniq madaniy aloqalar tahlili va talqiniga asoslanadi. Bu o'rinda

¹⁴ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. — New York: McGraw-Hill, 2010. — P. 50-70; Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. — С. 53-54.

madaniyatlararo muloqotni o‘rganish va o‘rgatishning samarali metodi sifatida trening belgilandi. Trening o‘quv jarayonining an’anaviy shakllaridan farqli o‘laroq, o‘qitish samaradorligi va amaliyotga yaqinligi bilan madaniyatlararo ta’limning o‘ziga xos talablari hamda qiyinchiliklariga javob bera oldi. Biografik refleksiya, tabiiy sharoitlardagi kuzatishlar, interfaol modellashtirish, rolli o‘yinlar, o‘z-o‘zini baholash va simulyatsiya shular jumlasidandir.

Nazorat uchun savollar:

1. Madaniyatlararo muloqotga oid dastlabki tadqiqotlar qayerda va qachon vujudga keldi?
2. “Madaniyatlararo muloqot” tushunchasi ilk bor qaysi asarda ilmiy muomalaga kiritildi?
3. AQSh Dimlomatik xizmatlar institutida madaniyat farqlari haqidagi nazariyani ishlab chiqish uchun qanday imkoniyatlar mavjud edi?
4. Tilshunoslar madaniyatlararo aloqa masalalariga qanday yordam berishadi?
5. Tilda qanday mohiyatlar aks etadi?
6. Antropologiya qanday fan?
7. Antropologiya inson haqidagi fanlardan qanday xususiyati bilan ajralib turadi?
8. “Bixevoirizm” qanday nazariya?
9. Madaniyatlararo muloqotning vujudga kelishida qaysi sohalarning hissasi katta bo‘ldi?
10. Funksional yo‘ndashuvning mohiyatini tushuntirib bering.
11. Izohlovchi yondashuvning maqsadi nimadan iborat?
12. Tanqidiy yondashuv tarafdorlari kommunikatsiyaning qaysi jihat bilan qiziqdilar?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. E. T. Hallning “Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga qo‘sghan hissasi” mavzusida referat yozish.
2. “Tilshunoslik, antropologiya va psixologiya” mavzusida taqdimot tayyorlash.

Adabiyotlar

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
2. Boldырев В.Е. Vvedeniye v teoriyu mejkulturnoy kommunikatsii. Kurs lekciy. —M.: Russkiy yazыk, 2009. -141 c.
3. Ter-Minasova S. G. Yazыk i mejkulturnaya kommunikatsiya. —M.: Clovo, 2000. -624 s.
4. Falkova Ye.G. Mejkulturnaya kommunikatsiya v osnovnyx ponyatiyax i opredeleniyax. Metodicheskoye posobiye. SPb.: F-t filologii i iskusstv SPbGU, 2007. -77 s.

IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-AMALIY MASHG'ULOT SHARQ MAMLAKATLARIDA ETNOLINGVISTIK VAZIYAT MASALALARI

Etnoslar yig‘indisi va unga biriktirilgan tillar hamda mamlakat ichkarisidagi hududiy taqsimlanishni qamrab olgan etnolingvistik vaziyat tushunchasidan farqli o‘laroq, til vaziyati tushunchasi ijtimoiy-funksional (vazifa, xizmat qilish) tizim sifatida mamlakatda muomala vazifasini bajaruvchi tillar yig‘indisi deb qaraladi. Mazkur tushuncha ijtimoiy o‘zaro aloqa sohasi va muomalaning turli darjasи bo‘yicha tillarni taqsimlanishini aks ettiradi. Har bir davlatda u yoki bu tilning kommunikativ hujjatlarda qo‘llash xususiyati bo‘yicha ikki muomala darajasiga, ya’ni umumdavlat rasmiy va kundalik hayot tarzida qo‘llaniladigan tillarga ajratiladi. Binobarin, mazkur darajada qo‘llaniladigan tillar rasmiy va kundalik hayot tarzi kategoriyasiga kiradi. Tillarning bunday funksional (xizmat qilish) taqsimoti ularning ijtimoiy tabaqa (qatlam) va guruhlar bo‘yicha taqsimlanishi bilan bog‘liq. Chunonchi, turli xalqlardan tashkil topgan jamiyatdagi rasmiy tildan ko‘proq yuqori ijtimoiy tabaqa va ziyorilar foydalansalar, kundalik (jonli) ishlatiladigan til – asosiy omma muomilasidagi yagona vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, agar “etnolingvistik vaziyat” atamasi tillarning hududiy taqsimlanishini, ularning o‘zaro “gorizontallik bo‘yicha” munosabatlarini bildirsa, “til vaziyati” atamasi ularning ijtimoiy tabaqa va ijtimoiy kengligi taqsimoti, ya’ni vertikalligini, guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro bo‘linish, jamiyatning ijtimoiy va kasb-hunar guruhlari o‘rtasidagi taqsimotni bildiradi.

Undan tashqari, qiyoslanayotgan tushunchalar o‘rtasida sezilarli va qator ancha xususiy farq ham mavjud:

1. Ular avvalo, o‘z xajmiga ko‘ra bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi: “til vaziyati ancha keng bo‘lib, u nafaqat mamlakatning polietnik muomalasida qo‘llaniladigan tillar yig‘indisini, balki mamlakatning monoetnik yoki bir milliy mintaqadagi ko‘p millatli davlatning aniq milliy tili mavjudligi shakllarining yig‘indisini qamrab oladi. Masalan, monoetnik davlatlarda kamida ikkita aloqa darjasи (muomala vositasi) mavjud, lekin, faqat muomalaning rasmiy va kundalik hayot (jonli til) vositasi rolini adabiy va so‘zlashuv tili bajaradi.

2. Etnolingvistik vaziyatga ma’lum bir etnoslarga suyanmagan (tegishli bo‘limgan) tillarni kirishi mumkin emas. Biroq, mustamlaka tuzumidan qutilgan mamlakatlarda haligacha G‘arbiy Yevropa tillari keng tarqalgan bo‘lib, ular mamlakat hayotida muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham G‘arbiy Yevropa tillari avtoxton (o‘sha hududda kelib chiqqan) til sifatida til vaziyatini tahlil qilishda nazarda tutilishi kerak.

Mustaqil ta’lim qattiq intizomni talab qilishi bilan bir qatorda, dastlabki vaqtarda bir muncha murakkabliklarni ham keltirib chiqaradi. Biroq, barcha qiyinchiliklar o‘z vaqtiga kelib yechimini topishi aniq bo‘lib, bu oxirgi vaqtarga kelib yengillashib boradi. Buning asosiy sababi mustaqil ta’lim olish jarayonida talaba yoki til o‘rganuvchida muamolar yechimiga doir ko‘plab ko‘nikmalarning paydo bo‘lishidir. Agar yaxshi texnologiya va turli metodologik uslublar yordamida mustaqil ta’lim samarali tashkil qilinsa bu ta’limning eng yaxshi usuli hisoblanib u test yoki imtixonlar uchun tayyorgarlik, yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun muhim omil hisoblanadi. Tahlillar natijasida mustaqil ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida quyidagi omillar yetakchi o‘rin tutishi aniqlandi: - o‘z oldiga real maqsadlarni qo‘yish; - o‘z uslubini aniqlash; - o‘rganayotgan manbani shu kunning o‘zida ko‘rib chiqish; - qisqa va xususiy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish; - o‘quv muhitini yaratish va tayyorgarlik ko‘rish. 39 Yuqorida keltirilgan mustaqil ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishidagi omillarni tahlil etsak. O‘z oldiga real maqsadlarni qo‘yish. O‘z hayotiga real yangiliklar olib kiradigan ishchi maqsadlardan vazifalarni va boshqa majbariyatlarni qo‘ya olish, mustaqil ta’limga oid odatlarni shakllantirishda juda muhim hisoblanadi. Misol sifatida, har kuni tunda ma’lum bir hajmdagi materiallarni o‘qishga odatlanish va ulardan ma’lumotlar, axborotlar va bilimlarni o‘zlashtirish yo‘li bilan ham katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritish. Bunda talaba bir haftalik tig‘iz ishini rejorashtirishi, garchi vaqtida cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, o‘z aqliy imkoniyatlariga dam berish, uni turli zamonaviy bilimlar bilan boyitishni tartibga sola bilish asl muvaffaqiyatning kaliti ekanligini tushunib yetishi lozim. O‘z uslubini aniqlash. Ta’lim olishning ko‘plab usullari va yo‘llari mavjud. Mustaqil ta’lim olish jarayonida talaba o‘z miya faoliyatini yaxshi ishlatajigan o‘rganish metodlarini topishi va o‘rganishning turli yo‘llaridan foydalanishi hisoblanadi. Misol uchun, ba’zi talabalar uchun eshitish orqali til o‘rganish foydali bo‘lsa, ba’zilar uchun yozish orqali o‘rganish foydali hisoblanadi. Demak, bu yerda o‘zi uchun eng qulay va foydali uslubni topa bilish va u orqali mustaqil ta’limdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rganayotgan manbani shu kunning o‘zida ko‘rib chiqish. Mustaqil ta’lim olish jarayonida manba yoki mavzuni belgilangan muddatda o‘rganish davomida talabaning o‘z e’tiroz yoki fikrlarini qayd etishi. O‘rganilayotgan materialning qanday maqsadga yo‘naltirilganligi va qanday muammoli masalalarni hal qilishi borasidagi fikrlar mazkur materiallarning mohiyatini tushunib yetishga va kelajakda undan olingan bilimlardan keng foydalanish imkonini beradi. Qisqa va xususiy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish. Mavzular bo‘yicha materiallarni qisqa tanaffuslarga ajratilgan kichik sessiyали bo‘limlarga taqsimlab o‘rganish. Bu o‘z navbatida qisqa muddatda katta 40 miqdordagi materiallarni va predmetlarni mustaqil ravishda o‘rganishda eng samarali usul hisoblanadi. O‘quv muhitini yaratish va tayyorgarlik ko‘rish. Mustaqil ta’lim olish jarayonida o‘z o‘quv makonini yaratish. Bunda talabaning o‘z o‘quv makonini yaratishi jarayonni to‘liq amalga oshirilishida muhim o‘rin tutadi. Masalan, talaba o‘z stolida til o‘rganish uchun tayyorlansa, o‘z o‘quv makoni onlayn kurs yoki til o‘rganish uchun

adabiyotlarni qo‘lga olgan holda mashg‘ulotlarni boshlasa, demak, u ham firkan va ham ruhan mustaqil ta’lim olishga tayyor. Umuman olganda, mustaqil ta’lim olish har qanday sohadagi ta’lim darajasi ortishining eng foydali vositasi hisoblanadi va talabalar uchun o‘ta muhim fan sohasini o‘zlashtirishga imkon beradi. Yana uning bir muhim jihat shundaki, aynan mustaqil ta’lim olish natijasida nafaqat ma’lum bir imtihonga tayyorgarlik ko‘ra olish salohiyatini va imkoniyati qo‘lga kiritadi, balki, har qanday soha bo‘lishidan qat’iy nazar professional yoki akademik ilmlar sohada ilimlarini oshira olishga erisha oladi. Mustaqil ta’lim birinchi galda, pedagogning o‘z nazariy bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish borasidagi maqsadga yo‘naltirilgan ishi bo‘lishi bilan bir qatorda, egallangan bilimlar va ko‘nikmalarni hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish yo‘lidagi faoliyatidir. Tahlillar natijasida mustaqil ta’limning quyidagi darajalari aniqlandi:


- Moslashtiruvchi;
- Muammoli qidiruv;
- Innovatsion.

Mustaqil ta’lim qachonki, maqsadga muvofiq, rejalashtirilgan va tizimlilik asosida amalga oshirilsagina u ijobiy natijalarni beradi. Shundagina u nafaqat talaba, balki pedagog uchun ham ijodiy faollikni shakllantirish, professional maxoratni oshirishga ko‘maklashishi mumkin. 41 Mustaqil ta’lim mohiyatan “ta’lim”, “uzluksiz ta’lim” singari ko‘plab fanlarni ilmiy asoslashning ob’ekti hisoblangan tushunchalar bilan o‘zaro integratsiyalashgan holatda o‘zaro mustahkam aloqada bo‘lib kelmoqda. Uzluksiz ta’lim o‘z ichiga muhim kategoriyalardan biri bo‘lgan “Edukologiya”ni ham qamrab oladi va u ta’lim haqidagi mustaqil ijtimoiy fan bo‘lib, ta’lim sohasi va alohida ta’lim tizimlarini tashkil qilishning, amal qilishi va rivojlanishining umumiyligini qonuniyatlarini o‘rganadi. Ammo bu soha bizning tadqiqot ob’ektimiz bo‘lmaganligi uchun, edukologiyani keyingi tadqiqotlarga qoldirishni lozim deb hisoblaymiz. Mustaqil ta’lim yangi bilimlarni puxta o‘zlashtirish instrumenti sifatida, mutaxassislariga nafaqat o‘z sohasi bo‘yicha, balki ta’lim makonidagi til o‘rganish sohasida ham muvaffaqiyatli yo‘nalishlarni taqdim etadi. Shuningdek, mustaqil ta’lim birinchi galda, insonning o‘zligi bo‘lib, uning ichki ruhiy shaxsiy salohiyatidir. Insonning o‘zligini anglashi va uning rivojlanishi o‘z-o‘zini yaratayotgan sub’ektning ichki salohiyatini amalga oshirishiga imkon beradi. Pedagogning mustaqil ta’limni o‘rganish, amaliyotga joriy qilish va yoshlar ta’lim sifatini oshirish jarayonida qo‘llaydigan eng asosiy maqsadlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:


- Ta’lim metodlarini kengaytirish va takomillashtirish maqsadida umupedagogik va psixologik bilimlarni kengaytirish;
- turli metodikalar bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish;
- ilg‘or pedagogik amaliyotga asoslangan pedagogik fanning yutuqlarini egallah;
- pedagogning madaniy darajasini yuksaltirish.

Axborotlashgan ta’lim muhitida talaba mustaqil ishini tashkil etish holati va uni tashkil qilishning o‘ziga xos jihatlari, o‘rni, ahamiyati, mustaqil ishni tashkil etish mohiyati, uni tashkil qilish yo‘llari hamda vositalari ko‘rsatib berilgan,

shuningdek mustaqil ishni tashkil etish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaralishi ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Axborotlashgan ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ishini takomillashtirishning metodik tizimi oliy ta'lim muassasalari xususiyatlaridan kelib chiqib, tabiiy fanlarni o'qitishda talaba mustaqil ishini tashkil etish holati, o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan hamda , ularga oid tushunchalar mohiyatiga aniqlik kiritilgan. Shundan kelib chiqib, xorijiy davlatlar oliy ta'lim tizimida erishilgan tajriba bilan mamlakatimiz oliy ta'limidagi yutuq va kamchiliklarni qiyoslash hamda bu sohada aniq vazifalarni belgilab olish maqsad qilib qo'yilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishni tashkil etish jarayoni, uning o'quv-uslubiy ta'minoti va tashkiliy tuzilmalari bilan bog'liq hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator muammolar mavjud ekani aniqlandi. O'quv rejada talaba mustaqil ishini bajarishida bir qator kamchiliklar mavjud, ya'ni talaba mustaqil ishi bo'yicha topshiriqlar soni va hajmi ko'p hollarda noto'g'ri taqsimlanadi, talabalar mustaqil ishni tezroq bajarishda unga yuzaki munosabatda bo'ladi, elektron ta'lim resurslari yetarli darajada yaratilmagan, axborot ta'lim muhitida internet vefsahifalar yetarli emas, ma'lumotlarni o'rganish jarayonida ijodiy yondashmaydi hamda mustaqil fikr bildirmaydi. Yuqoridagi fikrlarga tayanib, mustaqil ishni tashkil etish jarayonlarini quyidagicha bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



Ta'kidlash joizki, talabalarning mustaqil ishini tashkil etish muammosi psixologlar, pedagoglar, didaktlar va metodistlar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Ularning tadqiqotlari ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonidagi mustaqil ta'lim didaktik maqsadlarini umumiyl ko'rinishda shakllantirishga imkon yaratadi. Tabiiy fandan tadqiqotlar qisqa muddatli (bir haftadan bir oygacha) va uzoq muddatli (bir oydan bir necha oygacha) bo'lishi mumkin. Talabalar mustaqil ishlari bir necha bosqichda olib boriladi




TOPSHIRIQLAR MAZMUNI Ushbu savollarga javob bering

1-Topshiriq

1. Mustaqil ta’lim ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish masalalalari o‘rganilgan olimlar haqida ma’lumot bering.
2. F. Benson mustaqil ta’lim mohiyatini qanday izohlab bergen.
3. Individning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan intilishini vujudga keltiruvchi omillar qaysilar?
4. Mustaqil ta’limning darajalari haqida ma’lumot bering.
5. Pedagogning mustaqil ta’limni o‘rganish, amaliyotga joriy qilish va yoshlar ta’lim sifatini oshirish jarayonida qo’llaydigan eng asosiy maqsadlari haqida gapiring.
6. Talabalar mustaqil ta’limlari nechta bosqichga ajratilishi mumkin.
7. Mustaqil ta’lim takomillashish bosqichlari haqida ma’lumot bering.

2-Topshiriq

Jadval asosida mustaqil ta’limlar ro’yhatini ishlab chiqing



ADABIYOTLAR RO‘YHATI

- 1.Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. Avtoref. ... kan. ped. nauk. T.:2018.
- 2.Tolipova, J., To‘raev, A.B., Imomov, M.P. “Pedagogik kvalimetriya” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua. Toshkent-2019.3.
- 3.Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: Дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. 209с.
- 4.Чанилова Н.Г. Система проектного обучения как инструмент развития самостоятельности старшеклассников: Автореф. дис. . канд. пед. наук. Саратов, 1997. - 25 с.
5. Шафиков М.Т. Научно-образовательный потенциал как социальный феномен : дис. ... д-ра филос. наук. Уфа, 2006.
6. Джусупов М. Социолингвистические и лингвистические проблемы языка как средства общения и предмета изучения. Электрон ресурс: http://bilingual online.net/index.php?option=com_content&view=article&id=1967%3Ab ilingual-polilingual-russian-world (мурожаат санаси: 04.03.2019);
7. Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования.: Дис. докт. фил.наук. – Ташкент, 2016. 266 с.;
8. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. –B.430

7-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: ONLAYN RESURSLARDAN FOYDALANGAN HOLDA OLIY TA’LIM TALABALARNING NUTQ KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Tizimliliği va autentivligi bilan ajralib turuvchi turli ochiq onlayn kurslar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o‘qitishning ilg‘or usullarini joriy etgan holda bo‘lajak pedagoglarning xorijiy tillar bo‘yicha bilim, malaka, ko‘nikmalarini oshirish. Og‘zaki va yozma nutqidagi xatoliklar asosida mavzularni tanlash. Og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish. Zoom videokonferensiya platformasi orqali muloqot o‘rnatish bilan birga mashqlar bajarish va videodarslar

tomosha qilish, Telegram messenjeri orqali axborot, fikr almashish, chet tili og‘zaki va yozma nutq kompetensiyasini takomillashtirish vositasi MOOC (Massive Open Online Course – Ommaviy ochiq onlayn kurslar). MOOC kursini ongli va individual tanlash. Veb texnologiyalar va MOOC kurslaridan samarali foydalangan holda mustaqil ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish. Metodologik komponentini takomillashtirish.

Bugungi kunda mustaqil ta’limning asosiy vazifasi maksimal darajada insonni hayotga tayyorlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish va takomillashtirish ko‘nikmalarini hosil qilish, nostandard vaziyatlarda ob’ektiv fikrlash va uni to‘g‘ri baholashga undashdir. O‘z-o‘zini takomillashtirish – bu «shaxsning o‘z sifatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishini ongli boshqarish jarayoni», «intilishlarini o‘yg‘otish bilan bugungi kunni ortda qoldirish, katta natijalarga erishish, o‘z mahoratini oshirish, o‘zi uchun zaruriy shaxsiy sifatlarni qo‘lga kiritish» Ko‘rinib turibdiki, uzluksiz mustaqil ta’limning natijasi – bu bo‘lajak mutaxassisning, professional va umuman insonning kasbiy o‘zu stida ishlash va doimiy takomillashuvdir. Olimlar A.Ya. Ayzenberg, M.B. Balikaeva, N.P. Goncharuk, A.K. Gromseva, G.M. Kodjapirova, V.A. Korvyakov, A.M. Novikov, B.F. Rayskiyva boshqalarning qayd etishicha, professional jihat insonning o‘sishi va takomillashuvga erishishi uchun mustaqil ta’lim olish, o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va o‘z-o‘zini tarbiya qilishi zarur.

Misol uchun rossiyalik olim M.L.Knyazeva mustaqil ta’limning quyidagi funksiyalarini ijobiy sanagan va alohida ta’kidlab o‘tgan . - ekstensiv – yangi bilimlarga ega bo‘lish; - yo‘naltirish – o‘zida ma’lum bir madaniyat rivojlantirish va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish; - o‘rnini qoplovchi (kompensatsiya) – oldingi ta’limda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish va ularning o‘rnini zamonaviy professional bilimlar bilan to‘ldirish; - o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi – dunyoqarashini, o‘z ongini, xotirasini, fikrlashini, ijodiy sifatlarini boyitish va takomillashtirish; - metodologik – professional tor doiradan chiqa olish va dunyonи boshqacha anglash; - kommunikativ – fan, kasb, qatlam va yosh o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish salohiyati; - yoshartirish – fikrlashidagi qoliplarni yorib chiqish, ijtimoiy pozitsiyasidagi turg‘unlikni bartaraf etish (hayotini barcha mezonlar bo‘yicha mukammal tashkil qilish va rivojlanish uchun vaqtiga vaqt bilan yoshlar nuqtai-nazaridan fikr yuritishga harakat qilish); - psixologik – mavjudlikning butun bir yaxshiliklarini his qilish, ertangi kunning yorug‘ligini anglab yetish va istiqbolni ruhiy sog‘lom tomondan belgilash, insoniyatning intellektual darjasini yuqorilib borishiga hamohang harakat qilish; - gerontologik – dunyo bilan aloqaga kirishish va u orqali organizmning yashovchanligini ta’minalash va xokazo. Professional mustaqil ta’lim quyidagi funksiyalarini bajaradi.

1. Psixolingvistik, kognitiv va ijtimoiy-madaniy nuqtai nazaridan yozma nutqni rivojlantirish va takomillashtirish sohasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramasdan, o‘qituvchilarining chet tili yozma nutqini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy ishlar yetarli emas, avtonom ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish sharoitidati o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lgan katta yoshdagi o‘quvchilarining xususiyatlarini nazarda tutuvchi til ko‘nikmalarini yaxshilashga mo‘ljallangan maqsadli metodika mavjud emas.

2. Ilmiy ishlarda, shuningdek, malaka oshirish kurslarida asosiy e'tibor o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularning til qobiliyatini, shu jumladan yozma nutqini rivojlantirish, uzlucksiz ta'lim olishining muhim qismi bo'lib qolmoqda. Asosiy muammolar qatoriga o'ziga xos leksik, grammatik va kontekstual xatolar, shuningdek, tegishli registr, uslub va janrlardan foydalanish qiyinchiliklarini kiritish mumkin bo'lib, ilg'or veb-texnologiyalar bularni yengishga yordam beradi.

3. Barcha jarayonlarning globallashuvi, shu jumladan ta'lim va Internet resurslarining deyarli cheksiz imkoniyatlari ta'limning ufqlarini kengaytiradi, uni bitta sinf xonasiga cheklamaydi va o'qituvchilar kasbiy rivojlanishi uchun virtual makon imkoniyatlaridan to'liq foydalanishlari lozimligini taqozo qiladi. Korpus, korpus, Grammarly va Write&Improve kabi platformalar va dasturlar xatolarni aniqlashga va ba'zi hollarda yozma nutqni rivojlantirish bo'yicha ba'zi tavsiyalarberish salohiyatga ega.

4. Tizimliligi va autentivligi bilan ajralib turuvchi ochiq onlayn kurslar lingvistik ko'nikmalarini takomillashtirish ko'zda tutilmagan malaka oshirish kurslarida yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maqbul muqobil bo'lishi mumkin.

5. Amaldagi malaka oshirish kurslari hamda bakalavriat dasturlarining ba'zi mavzulari O'zbekistondagi yoshi katta o'quvchilarning o'ziga xos jihatlari va kontekstni hisobga olmaydi. Shu sababdan nafaqat yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha, balki dasturdan kelib chiqqan holda qo'llanmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

6. Malaka oshirish kurslari davomida o'tkazilgan tajriba natijasida o'qituvchilar yozma nutqidagi xatoliklar asosida mavzularni tanlash, ularni yozma nutqni rivojlantirish va o'quvchilar bilan ikki tomonlam aloqa o'rnatishga mo'ljallangan vositalar bilan qurollantirish, Zoom videokonferensiya platformasi orqali muloqot o'rnatish bilan birga mashqlar bajarish va videodarslar tomosha qilish, Telegram messenjeri orqali axborot, fikr almashish, shuningdek, tegishli MOOC kursini ongli va individual tanlash xalq ta'limi tizimi ingliz tili o'qituvchilarining yozma nutq kompetensiyasini sezilarli darajada oshirdi va ularni veb-texnologiyalar va MOOS kurslaridan samarali foydalangan holda mustaqil ravishda o'z-o'zini rivojlantirishga o'rgatish bilan birga metodologik komponentini ham takomillashtirdi

Nutq kompetensiyasining zamонавиј талқини quyidagi kompetensiya turlarini o'z ichiga oladi: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy, ijtimoiymadaniy, predmetli, professional. Tizimli, faoliyatga va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida biz mutaxassisligi til o'rgatishga moslashmagan oliy ta'lim muassasalaridanutq kompetensiyalarini baholashning didaktik shartlari va mezonlari, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini nazorat qilish uchun evristik-algoritmik tavsiyalar ishlab chiqildi, shu jumladan kasbiy va tashkiliy tayyorgarlik, kasbiy dinamikaning diagnostikasi maqsadlarini aniqlash va tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi.

Nofilologik oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak mutaxassislarining nutq kompetensiyasini madaniy yondashuv nuqtai nazaridan shaxsning kommunikativ


madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bunga misol qilib, muomala madaniyati, shaxslararo munosabatlar madaniyati, o'zini tutish madaniyati, nutq madaniyati, fikrlash madaniyati, hissiyot madaniyati va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Tadqiqot davomida mutaxassisligi til o'rgatishga moslashmagan oliy ta'lif muassasalarining bo'lajak mutaxassislarida nutq faoliyatining quyidagi tarkibiy qismlari aniqlandi:

- 1) kognitiv (boshlang'ich bilim va ko'nikmalar sifatida savodxonlik);
- 2) kompetensiyali;
- 3) qiymatli-semantic;
- 4) aks ettiruvchi va baholovchi;
- 5) madaniy.

Kasbiy faoliyatda nutq kompetensiyasi quyidagi uch funksiyani bajaradi: aniqlash (axborot almashish); interaktiv (o'zaro ta'sirni tashkil etish); perceptual (o'zaro aloqalarni o'rnatish uchun boshqa odamning qiyofasini idrok etish va shakllantirish).

Nutq kompetensiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan quyidagi mashg'ulot turlarini ko'rsatish mumkin: an'anaviy mashg'ulotlar (fanlarni o'rganish jarayonida yoki turli xil professional sohalar bilan tanishish jarayonida bilimlarni o'zlashtirish; faol mashg'ulotlar (kasbiy muhim fazilatlarni, amaliy ko'nikmalarini va ishbilarmonlik bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish). Shunga ko'ra, yangi ta'lif standartlarida "ona tilida (yoki davlat tilida) yozma va og'zaki muloqot" deb belgilangan universal kompetensiyaga asoslangan nutq kompetensiyasi an'anaviy va faol ta'lif usullari hamda vositalaridan foydalangan holda shakllanishi mumkin.

Nutq kompetensiyasini takomillashtirishning tarkibiy va funksional modeli



1- rasmida ifodalangan modelning tarkibiy qismlari til o‘rganish jarayonini tashkil etish holatini, uning - maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari va usullarini ochib beradi hamda ta’lim jarayoni subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani doimiy ravishda takrorlashga xizmat qiladi. Funksional komponentlar - bu tarkibiy qismlarning barqaror asosiy aloqalari, ya’ni ishni tashkil etish usuli, modelning funksiyalari, shu bilan birga nutqni rivojlantirish mexanizmlarining harakatlanishi, rivojlanishi va takomillashtirilishini o‘z ichiga oladi.

TOPSHIRIQLAR MAZMUNI

Ushbu savollarga javob bering

- 1-Topshiriq
1. Tizimliligi va autentivligi bilan ajralib turuvchi turli ochiq onlayn kurslar haqida ma’lumot bering.
 2. Bugungi kunda mustaqil ta’limning asosiy vazifasi nima?
 3. M.L.Knyazevaning mustaqil ta’lim haqida qanday fikr bildirgan?
 4. Mustaqil ta’lim haqida olimlarning fikr va mulohazalarini gapiring.
 5. MOOC kurslari qanday kurslar, ularning mohiyati nimada?
 6. Nutq kompetensiyasining zamonaviy talqini haqida ma’lumot bering.
 7. Nofilologik mutaxassislarining nutq faoliyatining qanday tarkibiy qismlari mavjud?

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

- 1.Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. Avtoref. ... kan. ped. nauk. T.:2018.
- 2.Tolipova, J., To‘raev, A.B., Imomov, M.P. “Pedagogik kvalimetriya” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua. Toshkent-2019.3.
- 3.Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: Дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. 209с.
- 4.Чанилова Н.Г. Система проектного обучения как инструмент развития самостоятельности старшеклассников: Автореф. дис. . канд. пед. наук. Саратов, 1997. - 25 с.
5. Шафиков М.Т. Научно-образовательный потенциал как социальный феномен : дис. ... д-ра филос. наук. Уфа, 2006.
6. Джусупов М. Социолингвистические и лингвистические проблемы языка как средства общения и предмета изучения. Электрон ресурс: http://bilingual online.net/index.php?option=com_content&view=article&id=1967%3Ab ilingual-polilingual-russian-world (мурожаат санаси: 04.03.2019);
164. Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования.: Дис. докт. фил.наук. – Ташкент, 2016. 266 с.;
165. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. –B.430

8-AMALIY MASHG’ULOT: SHARQ TILLARIDAN ZAMONAVIY DARSLIKLER, O‘QUV QO‘LLANMA ISHLAB CHIQISH: XORIJIY TAJRIBA

O‘quv adabiyotini ishlab chiqishda jahon ilm-fani, texnika va texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlarini ko‘rib chiiqish. Soha va fanga oid milliy va xorijiy tajriba va ma’lumotlar mantiqiy bir tizimda zamonaviy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda bayon etish. O‘quv adabiyotining ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik shifri), nomi va ixtisoslikka hamda o‘quv reja va fan dasturlariga to‘la mos kelishlarini tahlil qilish. O‘quv adabiyotida nazariy va amaliy ma’lumotlar.

O‘quv adabiyotini loyihalashning ilmiy asoslari. O‘quv adabiyotini ishlab chiqishda asosiy tamoyillar.

Zamonaviy o‘quv adabiyotini ishlab chiqish metodikasi. O‘quv adabiyot kasbga yo‘naltirilgan tamoyili asosida ishlab chiqish. Asosiy kompetensiyalarning o‘zaro bog‘liq rivojlanishi tamoyili.

Talabaning kommunikativ shaxs (chet tilida olib boriladigan madaniyatlararo muloqot kontekstida) va xalqaro xorijiy va ko‘p tilli kontekstda o‘zini o‘zi belgilash sub’ekti sifatida shakllanishini belgilash.

O‘quv adabiyotida asosiy tushuncha va xulosalarning ta’riflari aniq va ravshan yozilshi, talabalarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olinganligi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi, mustaqil ta’lim olishga qiziqish uyg‘otish.

O‘quv rejasi fanning mazmunini, uning hajmini, o‘quv materialini taqdim etish ketma-ketligini, berilgan o‘quv predmeti bo‘yicha egallanishi lozim

bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmini belgilab beruvchi asosiy davlat hujjatidir. Keling, savollar qanday amalga oshirilishini ko‘rib chiqaylik ta’lim dasturlarida chet tili lug’atini o’rganish, shuningdek, xitoy tili bo‘yicha o‘quv metodik adabiyotlarda til va talab qilinadigan ustuvor sohalarni ajratib ko‘rsatish o‘rganilayotgan muammoning jihatini yanada takomillashtirish. Xitoy tili o‘quv dasturida 5120100-Filologiya va kadrlar tayyorlash mutaxassisligi uchun tillar (sharq tillari), zaruriyati ko‘rsatilgan mutaxassislik maqsadlariga mos keladigan xitoy tilida fonetik, leksik, grammatick va ideografik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish. filologlar va sinologlar. “Asosiy Sharq tili» (xitoy tili) shakllanishini o‘z ichiga oladi grafik, imlo, leksik-grammatik bilim va ko‘nikmalar, so‘z yasalish elementlari va o‘zlashtirilgan so‘zlarni shakllantirish qoidalarini bilish, shuningdek yozma lug’atdan foydalanish va bilish qobiliyati dialektik lug’atning asosiy xususiyatlari.

Dasturning asosiy nazariy qismi xitoy tilini o‘rganishning har bir darajasiga qo‘yiladigan talablarga muvofiq tuzilgan. Barcha darajalarda “Til bilimi”, “Til bilimi” va “Taktika” bandlari mavjud. “Til bilimi” bo‘limida fonetika, ierogliflar, so‘zlar, grammatica, dialog va matnlar. “Til ko‘nikmalari” bo‘limi nutqiy faoliyat turlari, tinglash, gapirish, o‘qish va yozishni aks ettiradi. Shunday qilib, bizning fikrimizcha, Dasturning maqsadlarida asosiy elementlar yetarli darajada to‘liq ifodalangan leksik ko‘nikmalar, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish. Ayni paytda, asosiy nazariy qismning dasturiy materialida bu haqda hech qanday ma’lumot yo‘q, ierogliflar va lug’atni aks ettiruvchi paragraf bundan mustasno. U xitoy tilini o‘rganishning har bir bosqichida o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan lug’at mavzulari soni, shuningdek, Xitoy madaniyati va uning xalqi dinida ierogliflarning o‘rni haqida cheklangan ma’lumotlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, xitoy tilining leksik qatlamida diomatik iboralarning qo’llanilishi haqida juda kam ma’lumot mavjud, bizning fikrimizcha, bu kamchilikdir, chunki idiomalar voqelikning turli tomonlarini aks ettiradi, nutqni yanada ifodali qiladi, majoziy va majoziy yordam beradi. fikrlarni to‘g’ri yetkazish.

Konfutsiy institutlar bosh qarorgohi «Hanban» tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro xitoy tilini o‘qitish dasturida, tizimlashtirilgan va tavsiflangan xitoy tilini o‘qitishning obyektlari va mazmuni. Dasturning asosiy maqsadi yordam berishdir o‘quv dasturlari va materialarni ishlab chiqishda ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar. Xalqaro dastur maktab va litsey o‘quvchilari, tayyorgarlik kurslari talabalari, Konfutsiy institutlari talabalari va talabalarga mo‘ljallangan. U tildan sintetik foydalanishga yordam beradi, lingvistik bilim va ko‘nikmalarni, madaniy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Til bilimlari, jumladan, fonetika, ierogliflar, so‘zlar va grammatica qo’shimcha ma’lumotnoma shaklida alohida tavsiflanadi. Til ko‘nikmalari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozish) bosqichma-bosqich tavsiflanadi va alohida-alohida batafsilroq tushuntiriladi. Umuman olganda, Xalqaro xitoy tilini o‘qitish dasturi ma’lumotnoma sifatida tasniflanishi kerak va shuning uchun asosiy xitoy tili o‘quv dasturini ishlab chiqishda ma’lumotnoma sifatida foydalanish mumkin.

Xalqaro dasturning tahlili shuni ko‘rsatdiki, unda o‘qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha innovatsion ta’lim texnologiyasining

texnologik bosqichlari mavjud emas, shuningdek, filologiya fanlari talabalarining baholash tafakkurini yaxshilaydigan bunday kognitiv jarayonlar hisobga olinmaydi. Bu borada darslik katta kognitiv funktsiyaga ega. R.K. Beloruchevaning ta'kidlashicha, darslik "o'qituvchining vazifalarini u yoki bu darajada to'liq amalga oshirishga qodir bo'lgan keng qamrovli o'qitish vositasidir. Darslik mazmuni mashqlar, ma'lumotnomalar va illyustrativ materiallardan iborat".

Bugungi kunda o'quv-uslubiy O'zbekiston Respublikasining Xitoya ta'lim beradigan oliy ta'lim muassasalarining komplekslari, o'quv va ish dasturlari – O'zbek tili bo'lgan sinflarda xitoy tili asosiy til sifatida va rus tili darsligi asosida "Yangi Xitoy tilining amaliy kursi" tahriri ostida Liu Xiong [2] darslik, mashqlar to'plami, o'qituvchilar uchun qo'llanma, CD, dars uchun DVD dan iborat bo'lib, faqat 5 va 6-jildlarga ilova qilingan. o'qituvchilar uchun qo'llanmalar. O'quv majmuasi olti jilddan iborat bo'lib, 70 ta darsni o'z ichiga oladi. Birinchi to'rt jild boshlang'ichdir darajasi, ular o'z ichiga oladi 50 darslari, va beshinchi va oltinchi jildlar - o'rta daraja, 20 ta darsni o'z ichiga oladi. Birinchi olti darsdagagi leksik material hajmi oshmaydi 20 ta yangi so'z, 8-darsdan boshlab, yangi lug'at soni 30-35 so'zga etadi, qo'shimcha so'zlar - taxminan. Ushbu darslikning olti jildidagi lug'at boyligining umumiy miqdori uch ming so'zni tashkil etadi, bu HSK 5-darajasiga to'g'ri keladi (CEFR bo'yicha C 1). Har bir darsning mazmuni matnli material, yangi so'zlar, sharhlar, nutq amaliyoti, o'qish va takrorlash, mashqlar fonetika va talaffuz, grammatika, ieroglyphs, madaniy ma'lumotlar.

Bugungi kunda "Xitoy kursi" xitoy tili darsligi juda mashhur. til" (kāngāngāng) [1]. Jami 6 ta darslik mavjud. 1-dan 25-darsgacha 2 akademik soatni o'rganish tavsiya etiladi, 26 dan 30 gacha - 4 akademik soat (bir akademik soat - 40 daqiqa). Birinchi va ikkinchi darsliklar 15 ta darsdan iborat. Uchinchi va to'rtinchi darsliklarda 1 dan 20 gacha darslar. Xitoy tili kursining har bir darsligida har biri 10 ta dars. Har bir dars uchun tavsiya etilgan vaqt - 4 ta o'quv soati (2 juft). Beshinchi va oltinchi darsliklar 1 dan 26 gacha bo'lgan darsliklarni o'z ichiga oladi darslar. Har bir darslik 13 ta darsdan iborat. Tavsiya etilgan bir dars uchun vaqt - 6-7 o'quv soati. "Xitoy tili kursi" 76 tadan iborat. Darslar fonetika, grammatika, lug'at, ieroglyphs o'z ichiga oladi va har bir dars uchun mashqlarni o'z ichiga oladi. Ushbu darslik xitoy tilini o'rgatishda talabalarda muloqot ko'nikmalarini nutq faoliyatining to'rt jihatni orqali - tinglash, gapirish, o'qish, yozish bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratilgan.

Rossiyaning sharqiy qo'shnilarini va birinchi navbatda Xitoy bilan munosabatlarining kelajagi 40 yildan ko'proq vaqtini Rossiya bag'ishlagan. Xitoy tarixi, falsafasi, madaniyati, geografiyasi, etnografiyasini o'rganuvchi hamda vatandoshlar o'rtasida Osmon imperiyasi haqidagi bilimlarni tarqatuvchi ilmiy va ma'rifiy faoliyat. Muayyan hissa N.Ya Bichurin tomonidan qo'shildi. U Rossiyada xitoy tilini o'qitish va o'rganishning uslubiy asoslarini ishlab chiqishda, 19-asrning 30-yillarida uning tashabbusi bilan tashkil etilgan "tirik xitoy tili" maktabida 4 yillik o'quv dasturini yaratishda. chegaradagi Kyaxta shahrida va darslik yozish / "Xan Ven Qi Meng. Rohib Iakintos tomonidan tuzilgan Xitoy grammatikasi" (1832-1838). 1839 yilda Fanlar akademiyasining Demidov mukofotiga sazovor bo'lgan ushbu qo'llanma 20-asr boshlarigacha o'qitish uchun ishlatilgan.

N.Ya. Bichurinning “Xitoy grammatikasi” rus tilida so'zlashuvchilar uchun xitoy tilini o'rganish bo'yicha tarixdagi birinchi darslik bo'lib, uning xususiyatlariiga batafsil to'xtolib o'tamiz. Grammatika ikki qismdan iborat. Birinchisida, xitoy tili va xitoy yozuv uslublarining rivojlanishi haqida umumlashtirilgan ma'lumotlar berilgandan so'ng, nutq tovushlarining tasnifi izchillik bilan berilgan, xitoycha talaffuzning xususiyatlari, ierogliflar va bo'g'in tuzilishi, ieroglip belgilarini yozish tartibi va xususiyatlari tasvirlangan. (jumladan, xorijiy so'zlarni ierogliflarda yozish tamoyillari) ko'rib chiqiladi. Ikkinci qismda xitoy tilidagi sakkizta asosiy qismdan foydalanish xususiyatlari tavsifi berilgan rus tilining tuzilishida mavjud bo'lgan nutq (ot, sifat, olmosh, fe'l, ergash gap, predlog, bog'lovchi, kesim); Xitoy grammatikasidan keyin raqamlar sifatlar sifatida tasniflanadi. Xitoy mualliflarining asarlari va nutqiy va adabiy nutqni mustaqil o'rganish jarayonida shakllangan o'zimizning xulosalarimiz asosida. (yozma) xitoy tili, N.Ya.Bichurin ham “qo'shimcha so'zlar”ni aniqlaydi va tahlil qiladi. Xitoy tilining sintaktik (morphologik bo'limgan) mohiyatini uning tipologik xususiyati sifatida tushunishga asoslanib, grammatik qoidalarni taqdim etishda muallif so'zlarning nutqning turli qismlari sifatida harakat qilish qobiliyatiga alohida e'tibor beradi. Ko'rgazmali material sifatida qo'llanma mazmuni amaliy xarakterga ega bo'lgan jadvallarni o'z ichiga oladi. Alohida-alohida, birinchi berishga urinish haqida gapirish kerak xitoy tilidagi tovushlarni qiyosiy tarzda transkripsiya qilish ("Rus, frantsuz, portugal va ingлиз harflarida xitoycha tovushlar" jadvali). Grammatikadan tashqari N.Ya. Bichurin birinchi ruscha-xitoycha lug'atni ham tuzdi (xitoycha lug'at asosida).

Biz chet tili darsligi nolingistik universitetda asosiy o'quv quroli ekanligini tan olamiz va o'quv jarayoni, Yu. K. Babanskiyga ko'ra, biz maqsadli, rag'batlantiruvchi-motivatsion, mazmunga asoslangan, operativ-samarali, nazorat-tartibga soluvchi va baholovchi-natijaviy komponentlardan tashkil topgan murakkab hodisa sifatida ko'rib chiqamiz. Shunga asoslanib va ko'rib chiqilayotganlarni tizimlashtirishni hisobga olgan holda strukturani tashkil etish va tanlashga qo'yiladigan talablar Darsliklarning mazmunini hisobga olgan holda, o'quv qo'llanmalarimizni yaratishning bir qator ustuvor mezonlarini belgilab oldik, ularga rioya qilish samaradorlikni ta'minlaydi. ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi:

1. Kontseptual asosning mavjudligi. Darslikning maqsad va vazifalarini aniqlash, va shuningdek, “metodik tizimga ega Ta'limning ma'lum bir falsafasi” o'quv materialini tanlash va o'quv qo'llanma tuzilmasini tuzishda asosiy hisoblanadi.

2. Talabalarning keljakdagi kasbiy faoliyati doirasida talab qilinadigan kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlanirish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida darslik mazmunining talabalarni tayyorlash yoki ixtisoslashtirish yo'nalishiga muvofiqligi.

3. To'ldirishning to'liqligi va ekvivalentligi idrokni shakllantirish uchun mazmun va qabul qilish qobiliyatları. Nutq faoliyatining barcha turlarini shakllantirish zarurati nutq faoliyatining kengroq kasbiy yoki insonning kognitiv faoliyati. Pertseptiv va retseptiv kompetensiyalar talabalarning kommunikativ

kompetentsiyasini shakllantiradi, uning shakllanishi fanini o'zlashtirish maqsadi "Xorijiy til» va jarayonning samaradorligini belgilaydi madaniyatlararo muloqot.

4. Darslikdan foydalanish imkoniyati sinfda ishlash uchun ham, mustaqil ta'lim uchun ham. Zamonaviy dunyoda o'z-o'zini tarbiyalash "insonning umrbod ta'lim olishining zaruriy tarkibiy qismi, uning martaba o'sishi sharti va pirovardida jamiyatning ilg'or rivojlanishining sharti" deb hisoblanadi. O'z-o'zini tarbiyalash qobiliyati ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi o'z-o'zini o'rganish va echimlarni topish o'quv, ilmiy va kasbiy faoliyatda belgilangan vazifalar. O'z-o'zidan darslik muayyan talablarga javob berishi kerak, o'z-o'zini o'rganish zaif tomonlarini qoplash, masalan, izchillik yo'qligi va ta'lim natijalarini monitoring qilish.

5. Lingvistik va ekstralengvistik materiallardan foydalanish orqali amalga oshiriladigan darslikning ravshanligi mezoni ta'limni tushunishni yaxshilashga yordam beradi. Material, talabalarning fikrlashini rag'batlantiradi va ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

6. O'quv materialini o'zgaruvchan o'rganish imkoniyati tilni hisobga olgan holda o'quv materialini tanlash doirasida zaruriy shart sifatida tan olinadi. talabalarni tayyorlash, ularning yosh xususiyatlari va qiziqishlari, kasbiy ta'limning yo'naltirilganligi va tabaqalashtirilgan vazifalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu talabalar tomonidan lingvistik va semantik jihatdan o'quv materialining mavjudligiga yordam beradi, vaziyatni yaratadi. muvaffaqiyat va natijada ularning ortishi ta'lim motivatsiyasi.

7. Nazorat va tartibga solishning mavjudligi komponent. Amalga oshirish zarurati nutq ko'nikmalari va ko'nikmalarini shakllantirishni bosqichma-bosqich nazorat qilish shubhasizdir, bu esa majburiy mavjudligini belgilaydi. har birining oxirida o'z-o'zini tekshirish bo'limlari o'rganilgan mavzu, muhim bosqich va yakuniy test ishlarini ishlab chiqish.

TOPSHIRIQLAR MAZMUNI

Ushbu savollarga javob bering

1. O'quv adabiyotini loyihalashning ilmiy asoslari haqida ma'lumot bering.
2. O'quv adabiyotini ishlab chiqishda asosiy tamoyillar haqida ma'lumot bering.
3. Zamonaviy o'quv adabiyotini ishlab chiqish metodikasi xususida gapiring.
4. O'quv rejasi haqida ma'lumot bering.
5. Xalqaro xitoy tilini o'qitish dasturida ma'lumot bering.
6. R.K. Belorucheva darslik haqida qanday fikr bildirgan.
7. Rossiyada xitoy tili darsliklarini ishlab chiqish masalasi.
8. Yu. K. Babanskiy nazaridagi o'quv qo'llanma yaratish mezonlari haqida ma'lumot bering.
9. O'quv qo'llanmalar analizi haqida ma'lumot bering.
- 10.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Курс китай ского языка. Ян Цзичжоу. – Пекин: Издво Пекинского университета языков, 2009.汉语教 程. 杨寄洲。北京语言大学出版社。2009。 – 168 с.
2. Лю Сюн. Новый практический курс китай ского языка. – Пекин: Издво Пекинского университета языков, 2011. 新实用汉语课本。刘珣主编。北京: 北京语言大学出版社, 2011.– 131 с.
3. Международная программа по обучению китай скому языку//Foreign language teaching and research press. – Пекин, 2009. – 129 с.
4. Миньяр-Белоручев Р.К. Методический словник. – М.,1996. – 144 с.
5. Тенчурина Лидия Захаровна, & Лю Сяофань (2022). ГЕНЕЗИС УЧЕБНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ПО КИТАЙСКОМУ ЯЗЫКУ В РОССИИ (XIX - XXI ВВ.). Современная высшая школа: инновационный аспект, 14 (4 (58)), 52-64.
6. Пушкарева Ирина Алексеевна (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ПРИ СОЗДАНИИ ВНУТРИВУЗОВСКИХ УЧЕБНЫХ ПОСОБИЙ ДЛЯ СТУДЕНТОВ ЮРИДИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ ПО ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ. Гуманитарные науки , (3 (59)), 47-56.
7. Назарова Сайёра Анваровна (2019). Современное состояние обучения китайскому языку: анализ действующих учебных программ и учебно-методической литературы. Modern oriental studies, 1 (1), 21-23.

9-AMALIY MASHG'ULOT MADANIYATLARARO MULOQOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. SHARQ TILI O'RGAJISHDA MADANIYATLARARO MULOQOTNING O'RNI

Reja:

1. Edvard Hall tipologiyasi
2. Erik Donald Xirsh tipologiyasi
3. Girt Xofstede tipologiyasi

Tayanch so'z va iboralar: *madaniyatlar tipologiyasi, madaniyatlar o'lchovi, monoxron model, polixron model, hokimiyat masofasi, individualizm, kollektivizm, erkaklik asosi, ayollik asosi, noaniqlikdan qochish, uzoq muddatli yo'nalish.*

Madaniyatlar tipologiyasining bir qancha o'lchovlari mavjud. Mazkur o'lchovlardan biri turli madaniyatlarning vaqtga bo'lgan munosabati hisoblanadi. E. Hall ushbu o'lchov asosida ikki madaniyat turini ajratishni taklif qilgan. Uning fikricha, barcha madaniyatlar o'z vaqtini ikki: *monoxron* va *polixron* modellarga ko'ra taqsimlaydi²⁰.

Monoxron modelda vaqt inson uchun kesimlarga ajralgan yo'l sifatida obrazli gavdalanadi. Vaqtning bunday qismlarga bo'lininshi tufayli ushbu madaniyatdagi inson vaqtini muayyan darjada boshqarish mumkin deb o'ylaydi: u faqat bir ish bilan shug'ullanadi, shuningdek, vaqtini ish uchun va hissiy aloqalar uchun taqsimlaydi. Monoxron madaniyatlarda 10-15 daqiqaga kech qolish mumkin, biroq bunday holatlarda kechirim so'rash kerak bo'ladi.

AQShning aksariyat universitetlarida ish tartibi vaqtning monoxron o'lchoviga asoslanadi. Darslar, uchrashuvlar, yig'ilishlar qat'iy jadval asosida o'tkaziladi. Professor-o'qituvchilar har bir talabani belgilangan vaqtida qabul qiladi, majlislar o'z vaqtida o'tkaziladi, har qanday favqulodda holatlarda ham belgilangan uchrashuv qoldirilmaydi. Oilaviy va shaxsiy muammolar universitetdagi o'quv jarayonini oqsatishga sabab bo'lolmaydi²¹.

Polixron modelda qat'iy jadval bo'lmaydi, bir vaqtning o'zida bir qancha hodisalar yuz berishi va inson bir paytda bir qancha ish bilan shug'ullanishi mumkin. Bu yerda vaqt chatishgan chiziq ko'rinishida tushuniladi. Mazkur madaniyat vakillari uchun vaqt "moddiylik"dan kamroq hisoblanadi, shuning uchun vaqtini behudaga sarflash tushunchasi ular uchun begonadir. Tilda vaqt tushunchasini ifodalaydigan bironta ham so'z bo'lмаган madaniyatlarda (masalan, Shimoliy Amerikaning ayrim hindu qabilalarida) 40-60 daqiqaga kechikish va buning uchun kechirim so'ramaslik me'yoriy hol hisoblanadi²².

²⁰ Hall E.T. The hidden dimension. Garden City, NY: Doubleday, 1966.

²¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. — New York: McGraw-Hill, 2010. — P. 278.

²² Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. — М.: Русский язык, 2009. — С. 76.

Agar monoxron madaniyatda vaqt har doim tejalsa va “vaqt – bu pul” hisoblansa, polixron madaniyatda bunga ehtiyoj yo‘q, vaqt dan to‘g‘ri foydalanish haqida “gap bo‘lishi mumkin emas”. Polixron madaniyatga rus, Lotin Amerika, fransuz, koreys, o‘zbek, turk madaniyatları, monoxron madaniyatga esa nemis, Shimoliy Amerika, yapon madaniyatları misol bo‘la oladi.

Xalqaro biznes uchrashuvlari va texnik yordam loyihalari vaqt o‘lchovidagi farqlar tufayli barbod bo‘lgan holatlar juda ko‘p uchraydi. Masalan, AQSh ishbilarmonlari ko‘pincha O‘rta Sharq mamlakatlaridagi uchrashuvlarning o‘z vaqtida boshlanmasligidan, kishilarning uchrashuv chog‘ida qapga tushib ketishlaridan, shuningdek, shaxsiy majburiyatlar tufayli uchrashuvlarning bekor qilinishidan shikoyat qilishadi. Ko‘pincha vazifalar va shaxsiy munosabatlar ajratilmasdan, birga amalga oshiriladi.

AQShdagi chet ellik talabalar va ishbilarmonlar amerikaliklarning jadvallarga bog‘lanib qolganliklari, ular kishilar o‘rtasidagi munosabatlar bilan yetarli darajada qiziqmasliklarini qayd etishadi. Amerikaliklarning o‘z xizmat vazifalarini bajarish va uchrashuvlarni vaqtida o‘tkazish uchun do‘stlari va oilalarini “qurban qilishlari”ni ta’kidlashadi²³.

“Nyu-Yorklik bo‘lish – bu yapon, xitoy yoki koreys bo‘lish emas. Bu xarakterni o‘zgartirish degani. Har bir nyu-yorlikning harakatida qandaydir maqsad bordek tuyuladi. Shuningdek, bu sharqi qishloqlardagi osiyoliklarning ko‘pincha tanballik bilan u yoqdan bu yoqqa yurishiga o‘xshaydi. Biroq bu yerdagi odamlarning hatto gaplashishga yoki birovga qarashga ham vaqt yo‘q. Nyu-Yorliklar orasida bo‘lish – hayotga ilgari bo‘lмаган yangicha, ishning ko‘zini biladigan odamdek qarashni shakllantiradi. Hatto spektaklga ketayotgan odam ham bunga keragicha tayyorlanadi va ishbilarmon odamdek ko‘rinadi. Uning har bir harakati dadil, qat’iy va o‘ylangan bo‘ladi. U nima xohlashini aniq bilishi lozim. Uning maqsadi barcha narsaning vaqtি matematik anqlik asosida belgilangan markaziy temiryo l’bekatiga o‘xshaydi.”

Kommunikatsiya ishtirokchisining vaqtga bo‘lgan munosabatini tushunishda uning hayot sur’atini bilish katta ahamiyat egadir. Jumladan, megapolis shaharlarining vaqt bilan bog‘liq muhiti ularning monoxron madaniyatini namoyon qiladi. Bu o‘rinda Nyu-York shahrining vaqtga bog‘liq muhiti e’tiborga molikdir. Nyu-York shahridagi hayot sur’ati haqida o‘z taassurotini koreyalik talaba quyidagicha ifodalaydi:

Turli madaniyatlarda kechikish ko‘lami vaqtga munosabat mezonib o‘lib xizmat qiladi. Masalan, Afrika qishloqlaridagi umumiyligi majlis barcha aholi yig‘ilgandan keyin boshlanadi. Agarda siz AQShda muhim uchrashuvga kech qolsangiz, bu ishga qiziqmaslik va hamkoriga nisbatan hurmatsizlik sifatida baholanadi. Lotin Amerikada esa deyarli bir soatga kechikish ham odatiy hol hisoblanadi. Shunga ko‘ra AQSh bilan Lotin Amerika ishbilarmonlarining

²³ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. — New York: McGraw-Hill, 2010. — P. 278.

uchrashuvi boshqa madaniyatning vaqtdan foydalanish xususiyatlarini bilmasliklari tufayli mufavvaqiyatsiz yakunlanishi mumkin.

Madaniyatlar o‘tmishga, hozirgi kunga va kelajakka “yo‘nalishi”ga ko‘ra ham farqlanadi. Birinchi guruhga an‘analarga katta ahamiyat beradigan madaniyatlar kiradi va ular ko‘pincha “konservativ” madaniyatlar sifatida tasvirlanadi. Bunday madaniyatlarga ingliz, rus, xitoy, yapon va fransuz madaniyatlarini misol qilib keltirish mumkin²⁴. Mazkur guruhga koreys va o‘zbek madaniyatini ham kiritish mumkin. Hozirgi kunga yo‘nalgan madaniyat vakillari bugungi kun bilan yashashadi. Ular ta’sirchan bo‘lib, qarorlarni “shu yerda, hozirning o‘zida” qabul qilishadi. Ushbu madaniyatlarga Lotin Amerika mamlakatlari, filippinliklar, irlandiyaliklar kiradi. Bu guruhga turklarni ham daxl qilsa bo‘ladi. Shimoliy amerikaliklar, aksincha, kelajakka yo‘nalgan madaniyatlar sirasiga kiradi. Bunday madaniyatlarda rejalashtirishga, kelajak uchun jamg‘arishga katta e’tibor qaratiladi.

Madaniyatlararo muloqot samaradorligini ta’minlashda yetarli darjadagi madaniy savodxonlikka, ya’ni mazkur madaniyat uchun xarakterli bo‘lgan asosiy bilimlar, qadriyatlar majmuyi, psixologik va ijtimoiy tenglikka ega bo‘lish lozim.

Amerikalik madaniyatshunos olim Erik Donald Xirshning madaniy savodxonlik nazariyasining asosiy maqsadi ingliz tili sohiblarining boshqa til va madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishlari uchun ularda kerakli bilim va malakalarni shakllantirish hisoblanadi²⁵.

E. Xirshga ko‘ra, tilni mukammal egallash uchun milliy madaniyatga mos keladigan turli madaniy ramzlar haqida chuqur bilimga ega bo‘lish lozim. Bunday bilim ma’lum lingvomadaniy hamjamiyatning lisoniy ma’nolari, muloqotining o‘ziga xos xususiyatlari, matnlarining mazmuni hamda diskursining o‘ziga xos jihatlarini nazarda tutadi. Boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun har bir kishi suhbatdoshi haqida muayyan madaniy bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

E. Xirsh madaniy savodxonlikni “jamoaviy hamkorlik ruhi”ni yaratish hodisasi sifatida talqin qiladi. Binobarin, madaniyat vakili muayyan gazetani olib, uning matni va ma’nosini to‘g‘ri tushungan holda o‘qishi lozim. Uning fikricha, madaniy savodxonlik “bizni dunyoni bilish hamda muluqotning standart vositasiga egalik qilishimizga va shu tariqa zamon va makonga ko‘ra yozma va og‘zaki murakkab axborotlarni qabul qilish va uzatishimizga imkon beradi”. Biroq madaniy savodxonlik faqat madaniy o‘ziga xos axborotgina bo‘lib qolmay, balki borliq haqidagi yaxlit axborot hamdir. Madaniy savodxonlik – joriy madaniy axborotni doimiy to‘ldirib borishni talab qiladigan madaniyatlararo qobiliyatning dinamik komponentidir.

²⁴ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 76.

²⁵ Hirsch E. D., Joseph F. Kett, Trefil J.. The New Dictionary of Cultural Literacy. –Boston, NY.: Houghton Mifflin Company, 2002.

Qobiliyat muloqotdan tashqarida bo‘lmaydi. Aynan aniq kommunikativ vaziyatlarda lisoniy daraja va qobiliyatning boshqa turlari oydinlashadi. Muloqot ishtirokchisi o‘zining qobiliyatsizligini muloqotning u uchun yopiq bo‘lgan sohalarida anglab yetmaydi. Madaniyatlararo muloqotda qobiliyatning har xil turlari (lisoniy, madaniy, kommunikativ) birlashadi. E. Xirsh aniq muloqot vaziyatlaridagi u yoki bu qobiliyat turining roliga ko‘ra quyidagi madaniyatlararo qobiliyatlar darajasini ajratadi:

- yashash uchun zarur bo‘lgan qobiliyat;
- begona madaniyatga kirish uchun yetarli bo‘lgan qobiliyat;
- yangi madaniyatda yashashni ta’minlay oladigan qobiliyat;
- lisoniy shaxs tengligini to‘liq amalga oshiradigan qobiliyat.

Madaniyatlararo anglashish va samarali o‘zaro aloqa uchun qobiliyatning lisoniy, kommunikativ va madaniy darajalari orasida mutanosiblik bo‘lishi lozim. Nomutanosiblik holatida tushunmovchilik ehtimoli yuqori bo‘ladi, binobarin, til biladigan kishidan shunga mos darajadagi madaniy savodxonlik kutiladi va unga yetarli ko‘lamdagi madaniy axborotlar egasi sifatida murojaat qilinadi.

Gollandiyalik olim va IBM kompaniyasining xodimi Girt Xofstede madaniyatlarning boshqa, anchayin murakkab tipologiyasini taklif qiladi. U har qanday madaniyatni tavsiflaydigan beshta asosiy o‘lchovni ajratadi: *hokimiyat masofasi, individualizm va kollektivizm nisbati, erkaklik va ayollik nisbati, noaniqlikdan qochish, uzoq muddatga qaratilgan yo‘nalish*²⁶.

Hokimiyat masofasi. Hokimiyat masofa darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda ierarxiya (pog‘ona) me’yoriy hodisa hisoblanadi. Jamiyatning har bir a’zosi jamiyatda, oilada va kasbiy faoliyatda ma’lum mavqega ega bo‘ladi. Hokimiyat masofa darajasi past bo‘lgan mamlakatlar sifatida Angliya, AQSh va Skandinaviya davlatlarini ko‘rsatish mumkin. Yaponiya, Koreya, jumladan, O‘zbekiston ham xizmat ierarxiyasi va katta yoshlilarning obro‘sni yuqori ko‘rsatkich hisoblanadigan davlatlar qatoriga kiradi. Shuningdek, G‘arbda har qanday muhim qarorlarni qabul qilishda ayollar erkaklardek hal qiluvchi ovozga ega bo‘lsa, Sharqda oxirgi so‘z erkak kishi tomonidan aytildi.

Individualizm va kollektivizm nisbati. G. Xofstedega ko‘ra, individualizm shaxslararo munosabatlar yetarli darajada erkin bo‘lgan madaniyatlarda namoyon bo‘ladi. Odamlar, asosan, faqat o‘zлari va yaqin kishilari haqida qayg‘urishadi. Individualizm darajasi yuqori bo‘lgan madaniyatlarning vakillari muayyan vazifalarni afzal deb bilishadi, ularning hayotida “Men” kishilik olmoshi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunga AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va h.k. davlatlarning madaniyatları misol bo‘la oladi.

Kollektivizm (jamoaviylik) ustuvor bo‘lgan madaniyatlarda atrofdagilar bilan munosabatda bo‘lish muhim sanaladi. Mazkur madaniyat vakillari ko‘pincha “Biz”, deb fikr qilishadi. Bunday holatlarda individni himoya qiladigan guruh

²⁶ Hofstede G. Culture’s consequences. Beverly Hills, CA: Sage, 1984; Hofstede G. Masculinity and femininity: The taboo dimension of national cultures. Thousand Oaks, CA: Sage, 1998; Hofstede G. & Hofstede G. J. Cultures and organizations: Software of the mind (2nd ed.). –Boston: McGraw-Hill, 2004.

(urug‘-aymoq, hamkasblar jamoasi) va uning qadriyatlari katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu turga Sharq madaniyati va Lotin Amerikasi kiradi²⁷.

Y.M.Dyakonovaning yozishicha, Yaponiyadagi “individum-guruuh” munosabatlari, aksariyat tadqiqotchilar qayd qilganidek, g‘arbnikidan farq qiladi. Yapon uchun guruhning qarashlari, qiziqishlari nihoyatda muhim, u “hammadek bo‘lishga” intiladi. Guruh yaponlarning xulqiga va dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yaponlar “guruh” tushunchasini ko‘pincha keng ma’noda talqin qilishadi: guruh - oila, kollej, firma, mamlakat bo‘lishi mumkin²⁸.

Yaponiyada inson hayoti tashkilot bilan bog‘liq bo‘ladi. Yapon kishisi uchun ishxona madaniy va ijtimoiy hayotning markazi hisoblanadi. Barcha xodimlar bo‘sh vaqtlarini birga o‘tkazishadi, hatto ta’til vaqtida ham dam olish uylariga birga borishadi. Shaxsiy hayotdagi hodisalar, jumladan, to‘y, ajralish va h.k. ham jamoaning g‘amxo‘rligi doirasiga kiradi. Shuningdek, kollektivizm yapon oilasining asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. Binobarin, oila a’zolari bir-birini ismi bilan emas, balki qarindoshlik terminlari bilan chaqiradi (masalan, kelin). Oilada ota vafot etganda, uning o‘rnini o‘g‘li oladi va barcha oila a’zolari, hatto onasi ham uni ota deb chaqiradi²⁹.

Jamoaviylik, ayniqsa, o‘zbek madaniyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Prof. M.Bekmurodov o‘zbek jamoaviylici haqida shunday yozadi: “Jamoaviylik o‘zbek mentalitetida kasb-korga, iqtisodiy omillarga bog‘liqlikdan ham ko‘ra, etnik va ruhiy-ma’naviy omillarga ko‘proq bog‘liqlik bilan izohlanadi”³⁰.

“Boshqalar manfaati uchun o‘z manfaatidan kechish” o‘zbek jamoaviylining eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu o‘rinda yozuvchi O‘tkir Hoshimovning amerikalik yirik noshir bilan bo‘lgan quyidagi suhbatini keltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Amerikada chiqadigan yirik gazetaning rahbari bilan hamsuhbat bo‘lib goldik. U o‘zbeklar nima uchun mahallani bunchalik hurmat qilishini, nega mahalla to‘g‘risida maxsus qonun qabul qilinganini so‘radi. Mahalla degani qanday institut ekanini tushuntirib berishimni iltimos qildi.

– Men sizga mahallani tushuntirishga ojizman, janob, – dedim rostini aytib.
– Uzr-ku, siz uni baribir tushunmaysiz... Buning uchun siz ham, men ham aybdor emasmiz... Hamma gap hayot tarzining qanday shakllanganida.

Tasavvur qiling. Sizlarda farzand voyaga yetishi bilan ota o‘g‘liga atalgan ulush – kapitalni beradi. Shu kundan boshlab yigitcha mustaqil hayotga qadam qo‘yadi va o‘z kunini o‘zi ko‘radi. O‘g‘il bir oydan keyin burnini tortib kelsa, otasi uni haydar yuboradi... Bizda esa, ota-onasi bolani voyaga yetkazadi. Uylantiradi. Uyli-joyli qiladi. Bu ham yetmagandek, nevaralariniyam ortmoqlab yuradi. Xullas, bolam-chaqam deb umri o‘tganini bilmay qoladi.

²⁷ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 78.

²⁸ Дьяконова Е.М. Текст и интерпретация текста. Психология и социология чтения в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. –М., 1985. –С. 97, 99.

²⁹ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 79.

³⁰ Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati // “Hurriyat” gazetasi, 2002-yil, 17-aprel.

Sizlarda o'n olti yashar bola otasi bilan ellik dollar talashib, sudga murojaat etsayu, g'olib chiqib, otasini ming dollar jarima to'lashga majbur qilsa, bu – demokratiya tantanasi sanaladi. Bizlarda shunday hodisa ro'y bersa, bunaqa bolani «oqpadar» deydilar va bir umr la'natlaydilar.

Sizlarda Los-Anjelesda yashaydigan ota vafot etib qolsayu, Vashingtonda turadigan o'g'il vazirlikdagi yumushlari ko'pligi uchun dafn marosimiga borolmasa, uni birov malomat qilmaydi. Bizda Surxondaryoning olis qishlog'ida yashaydigan ota vafot etib qolsayu, Toshkentda turadigan o'g'il vazirlikda ishi ko'payib ketgani uchun otasini so'ngi manzilga o'z yelkasida ko'tarib bormasa, bunaqa vazirdan hamma yuz o'giradi.

Sizlarda, masalan, bir qiz begona erkak bilan... nima desam ekan... noqulayroq vaziyatda turgan bo'lsayu, uni yon qo'shnisi ko'rib qolib, qizning otasiga xabar qilsa, ota uni sudga berishi mumkin: qizining shaxsiy hayotiga aralashgani uchun. Bizda, mabodo shunday holat ro'y berib qolsa, qo'shni qizga qattiq tanbeh berishi, qo'lidan yetaklab otasining oldiga olib borishi mumkin. Qizning otasi unga minnatdorlik bildiradi: qizning or-nomusini himoya qilgani uchun.

Sizlarda bir qo'shni ikkinchisidan «Kecha uyingizga qanday mehmon keldi?» deb so'rasha, narigi qo'shni ranjishi mumkin. Birovning uyiga kelgan mehmon bilan birovning nima ishi bor? Bizda birovnikiga mehmon kelsa, yon qo'shnisi darrov xabar oladi. Iloji bo'lsa, mehmonni o'zinikiga taklif qilib, oldiga dasturxon yozadi.

Sizlarda, deylik, o'n yil turmush kechirgan oilaning bekasi kunlarning birida eriga «Azizim, men boshqa birovni sevib qoldim, kel, orani ochiq qilaylik, bolalarni xohlagan paytingda ko'rib turasan yoki «Mehribonlik uyi»ga topshirsak ham bo'ladi», desayu, er jahl ustida qo'l ko'targudek bo'lsa, xotin o'sha zahoti advokatini chaqirib, erini sudga beradi. Mabodo, erkakning ko'ngli oilasidan sovigan bo'lsa, amalda uni ham ayoli bilan yashashga majbur qilish mumkin emas. Bu – inson erkini himoya qilish hisoblanadi.

Bizda ayol kishi nobop eridan bezor bo'lsa, advokat chaqirmaydi, sudga bormaydi, mahallaga chiqadi. Mahalladagilar ayol huquqini kamsitmaydi, «Qamatib yubor, bunday battolni», demaydi ham. Ayolga jinday sabr qilishni, ikki go'dakning ko'zyoshini oqizmaslikni maslahat beradi. Erkakni chaqirib olib, ayolini tag'in xafa qilsa, begunoh bolalarni «tirik yetim» qilsa, uni mahalladan badarg'a qilib yuborishgacha chora ko'rishini tushuntirib qo'yadi. Sizlarda bu – inson huquqini poymol qilish, ayolga «feodallarcha munosabat» deb baholanishi mumkin. Bizda esa buning oti – oilani saqlab qolish, norasida bolalar manfaatini himoya qilish deb ataladi. (Harqalay o'ttiz yashar erkak yoki ayol huquqini himoya qilgandan ko'ra yetti yoki besh yashar bola huquqini himoyalash afzalroq deb sanaladi).

Bilmadim, balki sizdagi odatlar yaxshiroqdir. Balki bizdagisi ma'quldir. Buyuk o'zbek olimi Beruniy bundan ming yil avval yaratgan «Hindiston» kitobida «Biron xalqning u yoki bu udumiga baho berishda «Bunisi menga yoqadi, unisi esa yoqmaydi», deyishga hech kimning haqi yo'q, negaki har bir xalq an'analari yillar mobaynida shakllangan va o'sha xalqning hayot tarziga aylangan», deb

yozgani bejiz emas. Sizlarda individualizm – shaxs manfaati kuchli. Bizda kollektivizm – jamoaviylik, boshqalar manfaati uchun o‘z manfaatidan kechishdan og‘rinmaslik udumi qadimdan bor...

Bilib turibman, janob, mahalla degani nimaligini baribir tushuntirib berolmadim. Ammo bor gap shu...”.

Erkaklik va ayollik nisbati. Ushbu tavsifda gap shunchaki erkak yoki ayol haqida emas, balki an’anaviy erkaklik yoki ayollik nisbati asosida tushuniladigan ustuvor qadriyatlar haqida boradi. Erkaklik nisbati yuqori bo‘lgan jamiyatda erishilgan yutuq, muvaffaqiyat va e’tirof ustuvor qadriyatlar hisoblanadi. Bunday madaniyatlarda shaxsning ijtimoiy maqomida aks etadigan kasbiy yutuqlari alohida ahamiyat kasib etadi. Bu yerda jinslarning roli qat’iy belgilangan bo‘ladi. Ayollik nisbati yuqori bo‘lgan jamiyatda yaqinlar haqida g‘amxo‘rlik qilish, boshqalar bilan hamkorlik qilish va yashash sifati ustuvor qadriyatlar hisoblanadi. Ushbu madaniyatlarda yashash sifati maqomdan muhim sanaladi va bu yerda ko‘pincha muvaffaqiyatsiz kishilarga xayrxohlik bildiriladi.

Noaniqlikdan qochish. Noaniqlikdan qochish darajasi yuqori bo‘lgan madaniyat vakillari o‘z hayotlarini qurish uchun juda ko‘p qoida va rasmiyatchilik kerak, deb hisoblashadi. Odatda, bunday mamlakatlardagi kishilar ko‘pincha o‘zlarining tashvishlari va hissiyotlarini ko‘rsatishadi. Ular hayotning barcha sohalaridagi ekspertlarga ishonishadi, to‘qnashuv va raqobatdan qochishadi. G‘arbiy davlatlar orasida Gretsiya va Portugaliya mazkur toifaning eng yuqori ko‘rsatkichlariga ega, Sharqiy Yevropa davlatlari ham bu o‘lchovlarning boshida keladi. Noaniqlikdan qochish darajasi past bo‘lgan jamiyatlarda qonun va qoidalari ko‘lami yetarlicha qisqargan bo‘ladi. Kishilar raqobat va muqarrar to‘qnashuvlardan qochishmaydi. Bunday jamiyatlarga Angliya va Amerikaning ingliz-sakson madaniyatini hamda Skandinaviya mamlakatlarini misol qilib keltirish mumkin.

Uzoq muddatga qaratilgan yo‘nalish. Mazkur o‘lchov jamiyatning an’anaviy-tarixiy yoki qisqa muddatli bahosiga emas, balki uning kelajakdagi amaliy istiqbol darajasini belgilaydi. Uzoq muddatga yo‘nalgan madaniyatlarda kishilarning ruhiy xotirjamligi tabiat va ma’naviyat bilan uyg‘unlikka erishishga qaratiladi. Uzoq muddatga qaratilgan yo‘nalishlardan biri an’analarga bo‘lgan hurmatdir. Bunday madaniyatlarga Osiyo mamlakatlari, xususan, Janubiy Koreya misol bo‘la oladi³¹.

Umuman, madaniyatning har qanday tasnifi, u qanday o‘lchovga asoslanmasin, avvalo, inson fe’l-atvorining o‘ziga xos xususiyatini uning muayyan madaniyat vakili sifatida aniqlashga yordam beradi. Binobarin, madaniy xususiyatlar insonning kommunikativ fe’l-atvorida o‘z aksini topadi.

TOPSHIRIQLAR MAZMUNI Ushbu savollarga javob bering

³¹ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 80-81.

1. E. Hall madaniyatlarning monoxron va polixron modellarini qaysi o‘lchovga ko‘ra ajratadi?
2. E. Xirshning madaniy savodxonlik nazariyasining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
3. Madaniyatlarning monoxron va polixron modellarini tushuntiring.
4. Hokimiyatning masofa darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda qaysi hodisa me’yoriy hisoblanadi?
5. Qaysi mamlakatlarda hokimiyatning masofa darajasi past bo‘ladi?
6. Individualizm qanday madaniyatlarda namoyon bo‘ladi?
7. Kollektivizm ustuvor bo‘lgan madaniyatlar uchun mima muhim sanaladi?
8. Erkaklik nisbati yuqori bo‘lgan jamiyatda nimalar ustuvor qadriyatlar hisoblanadi?
9. Ayollik nisbati yuqori bo‘lgan jamiyatda nimalar ustuvor qadriyatlar hisoblanadi?
10. Qaysi madaniyat vakillari qoida va rasmiyatchilikni kerak, deb hisoblashadi?

- 1-topshiriq. Nazariy savollarga javob bering.
1. Lingvomadaniyatlarda o‘xshatishlar qanday o‘rin tutadi?
 2. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qaysi o‘xshatishlar keltirilgan?
 3. Erkin o‘xshatishga ta’rif bering.
 4. Turg‘un o‘xshatishga ta’rif bering. 5. O‘xshatish etaloni sifatida qanday so‘zlardan ko‘proq foydalaniladi?
 6. Lingvomadaniyatlarning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettirgan o‘xshatishlarga misollar keltiring.

2-topshiriq. Assotsiativ eksperiment

Eksperiment maqsadi: respondent (talaba)ning o‘xshatishlar bilan bog‘liq o‘rtacha assotsiativ qatorlarni tushunishini aniqlash va ularning turli lingvomadaniyatlardagi o‘xshatishlar xususidagi bilimlarini mustahkamlash. Eksperiment sharti: Auditoriyaga anketa ko‘rinishidagi o‘zbek madaniyatiga xos o‘zshatish-stimul so‘zlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan stimul material tarqatiladi. Anketani olgan respondentlar stimul-so‘zlarni o‘qishadi va bu so‘zlarning qarshisiga ingliz, rus va turk tillaridagi o‘xshatish-reaksiya so‘zlarni hamda ularning ma’nolarinin yozishadi.

Eksperiment vaqt: 5 daqiqa.

ANKETA

1. Ismi-sharifi _____
2. Kursi _____

No	Stimul so‘zlar	Reaksiy a so‘zlar	Reaksiy a so‘zlar	Reaksiy a so‘zlar	Ma’nola ri
1	tulkiday				
2	ayiqday				
3	arslonday				
4	cho‘chqada				

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. “Individualizm va jamoaviylik” mavzusida referat yozish.
2. “Madaniyatlar tipologiyasi” mavzusida taqdimot tayyorlash.

Adabiyotlar

1. Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati // “Hurriyat” gazetasi, 2002-yil, 17-aprel.
2. Hall E.T. The hidden dimension. Garden City, NY: Doubleday, 1966.
3. Hirsch E. D., Joseph F. Kett, Trefil J.. The New Dictionary of Cultural Literacy. –Boston, NY.: Houghton Mifflin Company, 2002.
4. Hofstede G. & Hofstede G. J. Cultures and organizations: Software of the mind (2nd ed.). –Boston: McGraw-Hill, 2004.
5. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
6. Boldyreva V.E. Vvedeniye v teoriyu mejkulturnoy kommunikatsii. Kurs leksiya. –M.: Russkiy yazыk, 2009. -141 c.
7. Dyakonova Ye.M. Tekst i interpretatsiya teksta. Psixologiya i sotsiologiya chteniya v Yaponii // Yaponiya: kultura i obshchestvo v epoxu NTR. –M., 1985.

10-AMALIY MASHG’ULOTMADANIYATLARARO TO‘SIQLAR VA TO‘QNASHUVLAR, MADANIY VA LISONIY SHOK HODISALAR

Reja:

1. Kommunikatsiya turlari
2. Madaniyatlararo muloqotning makro va mikrodarajalari

Tayanch so‘z va iboralar: *intrapersonal kommunikatsiya, shaxslararo kommunikatsiya, guruhlararo kommunikatsiya, ommaviy kommunikatsiya, virtual kommunikatsiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, xalqaro kommunikatsiya, tashkilotlararo kommunikatsiya, makromadaniyat, mikromadaniyat.*

Madaniyatlararo muloqotning makro va mikrodarajalari


Madaniyatlararo muloqot *makromadaniyat* va *mikromadaniyat* darajalariga ajratiladi. Yer kurrasida o‘zining madaniy an’analari bilan bir ijtimoiy tizimga

birlashgan katta hududlar mavjud. Masalan, Amerika madaniyati, Afrika madaniyati, Yevropa madaniyati, Osiyo madaniyati, Sharq madaniyati va h.k. madaniyatlar haqida so‘z yuritish mumkin. Bunday madaniyatlar hududiy belgilariga ko‘ra *makromadaniyat* deyiladi³².

Makromadaniyatlar ham o‘z navbatida submadaniyatlardan, ya’ni ma’lum jamiyat ichidagi o‘ziga xos madaniy xususiyatlariga ega bo‘lgan turli ijtimoiy guruhlar madaniyatidan tarkib topadi. Bunday madaniyatga *mikromadaniyat* deyiladi. Har bir mikromadaniyat o‘zining ona madaniyati bilan o‘xshash va farqli jihatlarga ega bo‘ladi. Ona madaniyat mikromadaniyatdan a’zolarining turli etnik va diniy taalluqliligi, geografik o‘rni, iqtisodiy ahvoli, jinsi va yoshi, oilaviy ahvoli hamda ijtimoiy maqomi bilan farq qiladi.

Madaniyatlararo kommunikatsiyani mikrodarajasiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

Etnik guruhlar orasidagi kommunikatsiya turli xalq (etnik guruhlar) vakillari o‘rtasidagi muloqotdir. Ko‘pincha jamiyat o‘zining farqli submadaniyatini yaratadigan son jihatidan turlicha bo‘lgan etnik guruhlardan tarkib topadi. Etnik guruhlar o‘z submadaniyatlarini avloddan-avlodga meros qilib qoldiradi. Bu esa mazkur submadaniyatning hukmron madaniyat ichida o‘zligini saqlab qolishini ta’minlaydi.



Ijtimoiy sinf va guruhlar orasidagi kommunikatsiya u yoki bu jamiyatning ijtimoiy guruh va sinflari o‘rtasidagi farqlarga asoslanadi. Dunyoda bironqa ham ijtimoiy bir xil bo‘lgan jamiyat mavjud emas. Kishilar o‘rtasidagi tafovut ularning ijtimoiy kelib chiqishi, ma’lumoti, kasbi, ijtimoiy maqomi va h.k. oqibatida yuzaga keladi. Dunyoning barcha mamlakatlarida yuqori tabaqa bilan oddiy aholi, boylar

³² Денисова И.В., Еременко А.П. Типы межкультурных коммуникаций.
<http://www.rae.ru/forum2012/273/1603>

bilan kambag‘allar orasida katta masofa mavjud. U qarama-qarshi qarashlar, urf-odatlar, an'analar va boshqalarda ifodalanadi. Bu odamlarning barchasi bir madaniyatga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar, qayd qilingan farqlar ularni submadaniyatlarga ajratadi va ular orasidagi muloqotda aks etadi.

Turli demografik guruh vakillari orasidagi kommunikatsiya diniy (turli diniy oqimlar orasida, masalan: Turkiyada, Iroqda sunniylik va shialik yo‘nalishlari; Shimoliy Irlandiyada katolik va protestant yo‘nalishlari), jins va yosh (erkaklar va ayollar, turli avlodlar orasida)ni nazarda tutadi. Bunday holatlarda kishilar orasidagi muloqot ularning u yoki bu guruhga taalluqliligi hamda mazkur guruh madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari asosida belgilanadi.

Shahar va qishloq aholisi orasidagi kommunikatsiya shahar va qishloq aholisining hayot tarzi, ta’lim darajasi, shaxslararo munosabatlar, turlicha “hayot falsafasi” o‘rtasidagi farqlarga asoslanadi.

Hududlararo kommunikatsiya turli viloyatlarda yashovchilar orasida yuzaga keladi. Binobarin, muayyan vaziyatda turli viloyat vakillarining fe’l-atvoridagi farqlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, toshkentliklar va vodiyliliklar muloqot chog‘ida o‘ziga xos qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Jumladan, Toshkentda o‘zidan kichiklarni sensirab gapirish (bu toshkentliklar uchun samimiylit belgisi, vodiyliliklar uchun qo‘pollik belgisini ifodalaydi), vodiyning aksariyat hududlarida o‘zidan kichiklarni sizlab gapirish odatiy hol sanaladi. Yoki toshkentliklar o‘zidan kattalarni orqasidan ham sizlab gapirsa, vodiyliklarda buning aksi kuzatiladi. Yoki vodiyya mehmonga borgan qashqadaryolik, surxondaryolik va xorazmliklar vodiyliklarning sermulozamatligidan xijolat bo‘lishi, aksincha, vohaga mehmonga borgan vodiylilik esa vohaliklarning betakalluf muomalasidan ranjishi mumkin.

Xullas, madaniyatlararo kommunikatsiya turlarining barchasiga xos bo‘lgan umumiyl xususiyat muloqot ishtirokchilari tomonidan madaniyat farqlarini tushunib yetilmasligidir. Gap shundaki, aksariyat kishilar o‘zlarining dunyonи tushunishlari, hayot tarzları va yashash yo‘llarini to‘g‘ri deb hisoblashadi. O‘zlarini tanish bo‘lgan qadriyatlarni hammabop va barcha uchun tushunarli deb o‘ylashadi. Qachonki, boshqa madaniyat vakillari bilan to‘qnashganlarida o‘zlarini to‘g‘ri deb hisoblab kelgan qoliplar ish bermaganida muvaffaqiyatsizlik sababi haqida o‘ylay boshlashadi.

Kommunikatsiyaning quyidagi turlari mavjud³³:

Asosiy	Qo‘srimcha
intrapersonal (ichki dialog, L. S. Vigotskiyning ichki nutq nazariyasiga kiradi)	madaniyatlararo (turli madaniyat tashuvchilari kommunikatsiyasi; shaxslararo va guruhlararo bo‘lishi mumkin)
shaxslararo (ikki yoki andan ortiq muloqotchilar ishtirok etadi; verbal va noverbal shakllarga ega bo‘lishi mumkin)	xalqaro (xalqaro aloqalar, diplomatiya doirasida)

³³ Виды коммуникации. Коммуникация как языковая проблема. <http://vjanetta.narod.ru/lekcia8.html>

guruqlar (muayyan guruh ichida yoki guruqlararo kommunikatsiya, shuningdek, “muloqotchi va guruh” ko‘rinishida, masalan, siyosat arbobi bilan suhbat bo‘lishi mumkin)	tashkilotlar (ishlab chiqarish sohasidagi kommunikatsiya) va biznes-kommunikatsiya
ommaviy (yuboruvchi bir kommunikant bo‘lishi, oluvchi omma; matbuot, radio, televideenie kanallari vositasida amalga oshiriladi) jamoaviy (shaxslararo, masalan, ma’ruzachi, jamoat arbobi – auditoriya)	siyosiy (siyosiy faoliyatda; individlar o‘rtasida, shuningdek, boshqaruvchi va boshqariluvchilar o‘rtasida amalga oshiriladi)
virtual (shaxslararo, guruqlararo, ommaviy bo‘lishi mumkin; kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadi)	maishiy (ko‘proq shaxslar orasida kuzatiladi; yosh va gender komponentlarini o‘z ichiga oladi)

Kommunikatsiyaning qaysi shakli haqida so‘z bormasin, aynan bu jarayonga xos bo‘lgan birliklar mavjud. Bular **axborot** (xabar yoki matn), **anglash** (ratsional hamda hissiy) tushunchalari bo‘lib, kommunikatsiyaning maqsadini belgilaydi. Shuningdek, **texnologiya** tushunchasi ham axborotni samarali tushunish nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi³⁴.

Kommunikatsiya uchun **zarur bo‘lgan sharoitlar**: 1) ishtirokchilarining ayrim umumiy intersubyektiv me’yorlarga moslashuvi; 2) kommunikativ salohiyat.

Ommaviy kommunikatsiya jarayonining tarkibiy qismlari	
Kommunikatsiya manbasi (“kim”)	ijtimoiy jihatdan ahamiyatli axborotni keng tarqatish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar: ommaviy kommunikatsiya sohasini qo‘llab-quvvatlashga javobgar institutlar; bu sohani texnik ta’minotiga javobgar institutlar (davlat qo‘mitalari, davlat va xususiy teleradiokompaniyalar, ommaviy matbuot agentligi, nashriyotlar va h.k)
Axborotning hajmi, mazmuni va shakli	bilim, baho va ishonch berish majmuyi
Ommaviy axborot kanallari	ma’lumotlarning sifat va miqdoriy xususiyatlari xarakteristikasi, ularni adekvat uzatishning texnik imkoniyatlari va auditoriya mosligini ta’minlaydigan kitob, gazeta, jurnallar nashriyoti, teleradio tarmoqlari

³⁴ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 4-5.

Auditoriya	axborotni qabul qilish va qayta ishlashiga ko‘ra ijtimoiy guruhlar va ularning psixofiziologik xususiyatlari jihatidan farqlanadi
Xabarning samaradorlik omillari	xabarning ta’siri ostida yuzaga chiqadigan ijtimoiy fe’l-atvor, harakat yoki harakatsizlik
Ommaviy axborotning ifodali vositalari	axborot qabulini osonlashtiradigan to‘liqlik; xabarning aniqligi (so‘zlar, iboralar, vizual obrazlar va h.k. tushunarli bo‘lishi); xabar tilining barcha uchun tushunarli bo‘lishi

Verbal vositalar yordamidagi muloqot

Kommunikativ faoliyatning barcha vositalari ikki katta: verbal (so‘zli) va noverbal (so‘zsiz) guruhga ajraladi. Verbal vositalar yordamidagi muloqot (lot. verbalis – og‘zaki va lot. communicatio – muloqot) inson uchun asosiy hisoblanadi. Bu o‘rinda kommunikativ faoliyatning nafaqat genezisi (binobarin, dastlab noverbal muloqotdan ko‘proq foydalanilgan bo‘lishi mumkin) va “foydalanish foizi”, balki mazkur vositaning universalligi, boshqa har qanday kommunikativ vositalarni insonning verbal tiliga umum tarjima qilinishi nazarda tutiladi. Verbal vositalar tarqalishiga ko‘ra ham faol sanaladi. Mutaxassislarning fikricha, insonlarning o‘zaro kommunikativ aloqasining to‘rtadan uch foizini verbal muloqot tashkil qiladi.

Verbal vositalarga insoniyat tabiiy tillarining turli belgilari (ularning og‘zaki va yozma shakllari) kiradi. Belgi atrofimizni o‘rab olgan biron bir hodisa, narsa, jarayonning o‘rnini oladi. Belgining asosiy xususiyati uning shartlanganligidir. Belgi (ifodalovchi) va u anglatgan narsa (ifodalanuvchi) o‘rtasida obyektiv aloqa bo‘lmaydi. Ular orasidagi aloqa shartlangan, ma’lum guruhning madaniy tajribasida mustahkamlangan bo‘ladi³⁵.

Masalaning mohiyatini tushuntirish uchun ayrim tillardagi “uy” so‘zi ifodalagan ma’nolarni ko‘rib chiqamiz:

Tillar	So‘z	Ma’nolari					
o‘zbek tili	uy	yashash joyi	bino	muassa sa	xona	oila	xonardon
turk tili	ev	+	+	+	uy jihozlari	+	sulola
koreys tili	chip	yashash joyi (inson yoki hayvon-nинг)	-	-	pichoq va h.k. qini	+	-
xitoy tili	gia	+	+	+	-	+	-

³⁵ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 34-35.

hindiy tili	ghar	+	+	-	pichoq va h.k. qini	+	+
rus tili	dom	+	+	+	-	+	sulola
ingliz tili	house	+	+	-	uy xo‘jaligi		+

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari, koreys tilida *chip* “in”, “to‘plam (asarlar, maqolalar to‘plami)”; xitoy tilida “bilimdon, mutaxassis”, “maktab, o‘qish”, “mening (mening ukam, mening onam”, hisob so‘zi (korxonalar uchun); hindiy tilida *ghar* “shaxmat taxtasi”, “teshik (tugma taqish teshigi, elakning teshigi)”, “gardish (rasm yoki qimmatbaho toshning gardhishi)”, “bo‘lma, tortma”; ingliz tilida *house* “parlament palatasi”, “teatr”, “tomoshabin, auditoriya”, “mehmonxona”, “monastir” va “in” ma’nolarini ham ifodalaydi.

Ko‘rinadiki, o‘zbek, turk, xitoy va rus tillaridagi “uy” (“ev”, “gia”, “dom”) ingliz tilidagi “house”ga nisbatan kengroq ma’nolarda qo‘llaniladi. Binobarin, “uy” so‘zining semantikasi inson yashaydigan va ishlaydigan har qanday binoni qamrab oladi. Bunday holatlarda “house” so‘zini qo‘llab bo‘lmaydi: house – bu kishi ishlaydigan joy emas, u kishi yashaydigan uy. Kishi ishlaydigan joy – bu *building*. Ko‘p qavatli uy *house* emas, u *block of flats*.

O‘zbek, turk, hindiy va rus tillaridagi “uy” (“ev”, “ghar”, “dom”) so‘zlarining faqat “bino, inshoat” (каменный дом – a stone house) va “sulola” (dom Romanovых), (the house of Tudor) ma’nolarigina ingliz tilidagi “house” so‘ziga mos keladi. Boshqa ma’nolari ingliz tiliga mos kelmaydi. “Oila”, “yashash” joyi kabi ma’nolari esa ingliz tilidagi boshqa so‘zga, ya’ni “home”ga muqobil bo‘ladi.

O‘zbek, turk va rus tillaridagi “uy” (“ev”, “dom”) so‘zining “muassasa” ma’nosи koreys, hindiy va ingliz tillarida uchramaydi. Mazkur ma’no boshqa so‘zlar vositasida tarjima qilinadi: *bolalar uyi* – *detskiy dom* – *children’s home* yoki *orphanage*; *savdo uyi* – *torgoviy dom* – *commercial firm*.

Koreys tilidagi *chip* so‘zinig “in” ma’nosи o‘zbek tilida *in*, turk tilida *yuva*, rus tilida *gnezdo; berloga, nora* so‘zлari vositasida ifodalananadi.

Demak, yuqorida ko‘rib chiqilgan tillardagi “uy” so‘zi anglatadigan tushunchalar turli madaniyatlar bilan aniqlanadigan har xil narsalardir.

V.Ye Boldirev mazkur hodisani quyidagicha tushuntiradi: “Rus tilidagi [dom] tovishlar majmuasi inson yashaydigan binoni, nemis tilida ayni shunday majmua “sobor”ni anglatadi. Cunki tovishlar majmuasi vositasida ifodalangan til belgisi bilan real voqelik o‘rtasidagi aloqa oldindan berilmagan, u faqat muayyan guruh (etnos, millat) vakillarining ongidan mustahkam o‘rin olgan. Belgi nafaqat har narsani ifodalay oladi, balki har qanday obyektning o‘zi ham belgiga aylanishi mumkin. Sindirilgan novda o‘z-o‘zidan belgi bo‘la olmaydi. Agar siz o‘rmonda sindirilgan novda bilan yo‘lingizni belgilashni do‘stingiz bilan kelishgan bo‘lsangiz, u holda sindirilgan novda belgiga aylanadi”³⁶.

³⁶ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 35.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ijtimoiy ishlab chiqarish darajasi past bo‘lgani sababli, kishilarda ilmiy va madaniy bilimlar yetishmagan. Shuning uchun ham ular turli irim-chirimlarga ishonishgan. Hozirda ham ko‘pchilik orasida irim-chirimlarga ishonish saqlanib qolgan. Jumladan, o‘zbeklarda supurgini, o‘qlovni tik qo‘ymaslik, birovning orqasidan supurmaslik, axlatdan hatlamaslik, otashkurakni oyoq ostida qoldirmaslik, suprani egasiz yig‘ishmaslik, nonning ushog‘ini yerga tushirmslik, qaychini ohib qo‘ymaslik, qalampirni qo‘lga bermaslik, turkiy va eroniy xalqlarda suvni ifloslatmaslik, suvga tupurmaslik, mo‘g‘ullarda qozondan pichoq bilan go‘sht olmaslik, chodirda suv to‘kmaslik, olovga yaqin joyda daraxt kesmaslik, qamchiga tayanmaslik, koreyslar va xitoyliklarda kosadagi ovqatga qoshiqni tiqib qo‘ymaslik (faqat marhumga atalgan ovqatgagina qoshiq tiqib qo‘yiladi) va h.k. irimlarga ishoniladi.

Qayd etilgan irimlarning barchasi shartlidir. Insonlarga shunchaki belgilar va narsalar bir-biriga bog‘langan olamda yashash zarurati kerak. Cunki inson ongidagi bu bog‘lanish ong faoliyatini va insonning borliqdagi harakatini tashkil etishga ko‘maklashadi. Shunday qilib, belgilar inson faoliyatini tashkil etishga yordam beradi.

Turli madaniyatlarda mazkur madaniyat vakillarining kommunikativ faoliyatida qo‘llaniladigan belgilarga (binobarin, verbal vositalarga ham) farqli munosabat ko‘rsatiladi. Jumladan, G‘arbda notiqlik san’atining qadimgi an’analari verbal xabarlarning nihoyatda muhimligini taqozo etadi. Ushbu an’ana g‘arbliklarning mantiqiy, ratsional va analistik tafakkurini to‘liq aks ettiradi. G‘arbiy xalqlar madaniyatida nutq suhbat vaziyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda qabul qilinadi. Shuning uchun nutqqa ijtimoiy-madaniy vaziyatdan tashqarida, alohida qarash mumkin. Bunda kommunikatsiya jarayonida og‘zaki ifodasidan munosabati ma’lum bo‘lgan so‘zlovchi va tinglovchiga ikki mustaqil subyekt sifatida qaraladi.

Aksincha, Sharq madaniyati uchun ijtimoiy-madaniy vaziyat katta ahamiyat kasb etadi. So‘z muloqot ishtirokchilarning shaxsiy xususiyati, xarakteri va ularning shaxslararo munosabatini to‘laligicha o‘z ichiga oladigan kommunikativ kontekstning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu tariqa mazkur madaniyatlarda verbal ifodalar axloq, psixologiya, siyosat va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘langan kommunikativ jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur madaniyat vakillari barcha qayd etilgan omillar so‘zlovchining faqat individual yoki shaxsiy maqsadlarining ifodasigina bo‘lmay, balki ular ijtimoiy muvofiqlashishga va uyg‘unlashishga yordam beradi, deb hisoblashadi. Sharq madaniyati vakillari qo‘llanilgan so‘zlar va ularning aniq ma’nolari mutlaqo boshqa narsalarni ifodalashi mumkinligini juda yaxshi bilishadi. Shuning uchun ham sharqiy madaniyatlarda og‘zaki ifodalarning tuzish texnikasiga emas, balki suhbat ishtirokchilarining jamiyatdagi mavqeyini belgilaydigan mavjud ijtimoiy munosabatlarga mos bo‘lgan talaffuz tarziga e’tibor qaratiladi. Shu bois Sharq madaniyatida so‘zning kuchiga har doim ishonib kelgan g‘arbliklardan farqli o‘laroq, so‘zlarga ishonchszlik an’anasi yuzaga kelgan³⁷.

³⁷ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 36-37.

Uzoq Sharq madaniyatida “inkor” yoki “yo‘q” tushunchalarini ifodalashga juda ehtiyyotkorlik bilan yondashiladi. Uzoq Sharq tillarida so‘zlashuvchilar soatlab davom etgan suhbat chog‘ida o‘z fikrlarini aniq va lo‘nda ifoda etmasliklari mumkin. Binobarin, ularni o‘zaro aloqadagi ma’lum so‘z va ifodalarning ma’nosidan ko‘ra ko‘proq hissiy tomoni, nazokat jihat qiziqtiradi.

Dunyoning deyarli barcha madaniyatlarida “*Bu kitob sizniki emasmi?*” yoki “*Ertaga band emasmisiz?*” kabi inkor mantig‘idagi savollarga deyarli barcha madaniyatlarda “*Yo‘q, meniki emas*”, “*Yo‘q, band emasman*”, deb inkor ma’nosida javob beriladi. Koreys madaniyatida “*Ne, ne cheki animnida*” (“Ha, mening kitobim emas”) va “*Ne, babiji ansimmida*” (“Ha, band emasman”), yapon madaniyatida “*Hai, watashino dewa arimasen*” (“Ha, meniki emas”) deb avval, tasdiq, keyin inkor ma’nosida javob qaytariladi. Chunki koreys va yapon muloqotida asosiy e’tibor suhbatdoshga qaratilgan bo‘lib, uni ranjitmaslikka, savollarga iloji boricha ijobiy va tasdiq ma’nosida javob berishga harakat qilinadi³⁸.

Shunday qilib, Yevropa va AQSh madaniyati vakillari muloqot jarayonida sukutdan qochishga va o‘z fikrlarini aniq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalashga harakat qilishadi. Ular nimani o‘ylashsa, shuni aytishadi, ular uchun suhbat chog‘idagi ijtimoiy-madaniy vaziyat muhim ahamiyat kasb etmaydi. Aksincha, Sharq madaniyatida kommunikatsiyaning ustuvor xususiyatlari muloqotning ijtimoiy-madaniy vaziyati, uning odob-axloq qoidalari va nazokat me’yorlariga muvofiqligi hisoblanadi. Kishining nima deyishi emas, balki uning nima deb o‘ylashi muhim sanaladi.

6. 2. Verbal muloqotning asosiy qoidalari

Verbal muloqotning asosiy qoidalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. *Turli madaniyatlarda qabul qilingan nutq tezligiga, to‘xtamiga, sukutga munosabat*. Masalan, turli madaniyatlarda qabul qilingan sukutni har xil talqin qilish mumkin. Arablar “To‘xtovsiz gapirish – o‘zini yomon tutishdir”, deb hisoblaydilar. Qadimgi Xitoyda “Bilgan – sukut saqlaydi, bilmagan – gapiradi” maqoli ming yillardan beri yashab kelmoqda³⁹.

Ma’lumki, qadimgi Xitoy va Koreyada notiqlik an’analarining rivojlanishiga unchalik e’tibor berilmagan. Konfutsiy ta’limotini olgan olim-amaldorlar, odatda, o‘z fikrlarini yozma ravishda ifodalashgan. Hukmron konfutsiy asilzodalarining qiyofasi loqayd, yuzi toshday, hech qanday ifoda kasb etmagan. Mazkur an’analar hozirgi kunda ham o‘z ta’sirini yo‘qotmagan bo‘lib, xitoyliklar va koreyslar iloji boricha kam gapirishga, o‘z fikrlarini ochiq ifodalamaslikka harakat qilishadi.

Ko‘rinadiki, Sharq madaniyatida savolga javob bermaslik, sukut saqlash muloqotning uzilishi bo‘lmay, aksincha, ijtimoiy-madaniy aloqaning muhim

³⁸ Усманова Ш. Маданиятлараро мулокотда новербал воситаларнинг аҳамияти // Маданиятлараро мулокот масалалари: тил, матн, таржима. Илмий-амалий анжумани материаллари. –Тошкент: ТошДШИ, 2016. –Б. 14.

³⁹ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 44-46.

tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayni paytda, AQShda suhbat jarayonidagi to‘xtam salbiy qabul qilinadi va u suhbatdoshning g‘ashini keltirishga sabab bo‘ladi.

2. *Nutqda qo‘llaniladigan muayyan nutqiy qoliplar, ifodalar, birikmalar va savollar chastotasi*. Turli madaniyatlarda shuhbatdoshga qanday murojaat qilgan ma’qul? Murojaatda uning ism-sharifi, unvoni, darajasi yoki nazokat vositalaridan foydalanish kerakmi? Salomlashish, xayrlashish, uzr so‘rashda qaysi verbal qoliplarni qo‘llash maqsadga muvofiq?

Murojaat shakllari so‘zlovchining tinglovchiga o‘zaro munosabatini, hurmatini va uning madaniyat darajasini ifodalovchi vositalardan biri hisoblanadi. Sharq madaniyatining, ayniqsa, rasmiy murojaat shakllarida hurmat belgisi kuchli bo‘lib, shaxsning mavqeyi, mansabi, lavozimi, vazifasi, kasb-kori, unvoni va yoshiga ko‘ra darajalanish kuzatiladi. Jumladan, koreys tilida eng oliv darajadagi hurmat shakli sifatida “Zoti oliylari”, “Janobi oliylari” ma’nosida *Kakha* so‘zi ishlatiladi: *Kakha Detóngryong* (Prezident Janobi oliylari). O‘zbek tilida Prezidentga nisbatan Muhtaram Prezident (yoki Shavkat Miromonovich), deb murojaat qilinadi. Ba’zan o‘zbek madaniyatida hatto Prezidentning ismiga “aka” so‘zini qo‘sib murojaat qilish hollari ham kuzatiladi. Bunday holat boshqa madaniyat vakillari uchun madaniy shokni yuzaaga chiqarishi mumkin. Negaki, boshqa madaniyatlarning rasmiy muloqotida “ism+aka” yoki “ism+opa” qolipidagi murojaat shaklini ishlatish mumkin emas. “Ism+aka” yoki “ism+opa” qolipidan faqat qarindosh-urug‘ yoki o‘ta samimiy munosabatlardagina foydalanish mumkin⁴⁰.

3. *Suhbatga kirishishda va uni boshqarishda standart yoki “joiz bo‘lgan” mavzular*. Barcha madaniyatlarda muloqotga kirishish yoki suhbatga tortadigan standart mavzular mavjud. Masalan, amerikaliklar uchrashganda ko‘proq ob-havo va siyosat haqida, yaponlar esa ob-havo va til haqida gaplashishadi⁴¹. O‘beklar “bola-chaqadan” gap ochsalar, xitoyliklar “Ovqat yedingizmi?” (你吃饭了吗? – Ni tish le ma?), deb so‘rashadi. Mazkur standart mavzuni koreys madaniyatiga ham ko‘chganini kuzatish mumkin. Koreyslarda salomdan keyin “Ovqat yedingizmi?” (식사하셨어요? – Shiksa hashyossoyo?) yoki “Ovqat yedingmi?” (밥먹었어? – Bab mokosso?), deb so‘rash an’anaga aylangan. Buni xitoy va koreys xalqlarining ko‘p asrlik tarixida yashash uchun olib borilgan kurashi bilan izohlash mumkin (Shuni alohida ta’kidlash joizki, Koreyada 1945-yillarda, Xitoyda 1960-yillarda ocharchilik keng tarqalgan edi)⁴².

4. *Taqiqlangan yoki yopiq mavzular*. Samarali madaniyatlararo muloqot jarayonida maqbul mavzularga rioya qilish muhim jihat hisoblanadi. Kommunikatsiya chog‘ida etnik me’yorlar va odob-axloq qoidalariga rioya qilish zarurati bilan bog‘liq murakkab vaziyat yuzaga chiqishi mumkin. Yaqin Sharqda diniy mavzular, shuningdek, ishqiy va shaxsiy mavzulardan so‘z ochish qabul

⁴⁰ Усманова Ш., Каланова Д. Ўзбек ва корейс тилларида расмий мурожаат шакллари // Лингвист. Илмий маколалар тўплами. III. – Тошкент: 2012. –Б. 162-163.

⁴¹ Сибата Такэси. “Нихонго-сайхаккэн”-сайсиониацу (Возобновление [передачи] “Новое открытие японского языка”) // -Г. 1984, - № 2. –С. 2.

⁴² Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, TDSHI, 2015 yil 28 noyabr. B. 31-36.

qilinmagan. Taqiqlangan mavzular ma'lum madaniyatdagi odob-axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalariga zid bo'lgan mavzular sanaladi⁴³.

Keyingi yillarda qator mamlakatlarda yashash sharoitlarining yaxshilanib borishi natijasida kishilar vaznining og'irlashib borayotgani kuzatilmoqda. Ortiqcha vazn og'irligi, ayniqsa, ayollarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun Koreya, Xitoy kabi mamlakatlarda ayollar bilan muloqot chog'ida "vazn" mavzusidan so'z ochmagan ma'qul.

5. *Taqiq leksika va evfemizmlardan foydalanish*. Hech qaysi bir madaniyatda haqorat so'zlar yoki ifodalardan foydalanishga ruxsat berilmagan. Suhbatdoshni ranjitadigan, nafsoniyatiga tegadigan, haqorat qiladigan so'zlarni ishlatishga yo'l qo'yilmaydi. Shunday bo'lsa-da, madaniyatlararo muloqot jarayonida Sharq madaniyati uchun me'yoriy hisoblangan holatlar G'arb madaniyati uchun tabu, yoki aksincha, bo'lishi ham mumkin.

Odatda, g'arbliklar keksalikdan qo'rqishadi. Ularning fikricha, keksalik "yemirilish, inqiroz"ni tamsil etadi. Shuning uchun ham aksariyat G'arb mamlakatlarida boshqalardan yoshini so'rash beodoblik sanaladi. Chunki "yosh" juda nozik masala hisoblanadi. Binobarin, keksa yoshlilarni ifodalash uchun ingliz tilida "*senior citizen* (keksa, oqsoql), *advantage in age* (yoshdagi afzallik), *the mature* (yetilgan, pishgan), *seasoned man* (tajribali), *full of ages* (yoshi ulug'), *be feeling one's ages* (yoshi sezilarli bo'lib qolmoq), *past one's prime* (davri-davroni o'tmoq, keksayib qolmoq)" singari qator evfemizmlar qo'llaniladi⁴⁴.

Aksincha, Sharq an'analarida keksalarga chuqur hurmat-ehtirom ko'rsatiladi. "Keksalik" deganda donolik va tajriba tushuniladi. Zero, Sharqda yoshi ulug' kishilar doimo hurmat-e'tiborda bo'lib, keksalik gashtini suradilar. Sharq madaniyatida "mendan katta //kichik" shartiga amal qilinadi. Kattalarga har doim "sizlab" gapiriladi. Yoshi katta kishilarga ismi bilan murojaat qilish G'arb madaniyati me'yoriy hol sanalsa, Sharq madaniyatida taqiq sanaldi. Keksalarga *otaxon, onaxon, koreys* tilida *abonim, omonim, haraboji, halmoni*, xitoy tilida *lao* (yoshi ulug', tajribali) deb murojaat qilinadi.

6. *Umumqabul qilingan metaforalardan foydalanish*. Madaniyatlararo muloqotda umumqabul qilingan metaforalar, o'xshatishlar, latifalardan foydalanishda nihoyatda ehtiyyotkor bo'lish tavsiya etiladi. Ular muayyan madaniyat uchun qadriyat hisoblanishi, boshqa madaniyat esa ularni mutlaqo no'to'g'ri qabul qilishi mumkin. Masalan, o'zbek madaniyatida *qo'ydek* etaloni "yuvoshlik", turk madaniyatida *koyun gibi* "ahmoq, dovdir", "qaror berishda yoki xatti-harakatlarida boshqalarga tobe bo'lgan", rus madaniyatida *ovsa* etaloni "qo'rqoqlik"ni ifodalaydi. Yoki o'zbeklarda xushbichim qomatli ayollarga *sarvday*, turklarda gavdali ayollarga *at gibi* o'xshatishi qo'llaniladi. Hindlarda sohibjamol qizning yurishi filning ulug'vor va mahobatli qadam tashlashiga muqoyasa qilinadi. Yoki hind ayoli sigirga qiyoslanganda u xursand bo'ladi,

⁴³ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 45.

⁴⁴ Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P. 68.

chunki hind xalqining idrokida sigir go‘zallik timsoli sifatida gavdalanadi. Shuningdek, Hindistonda sigir muqaddas hayvon sanaladi⁴⁵.

7. *Tabaqalanish va ijtimoiy farqlar bilan bog‘liq tafovutlar.* Tabaqalanish, yosh va jins farqlari bilan bog‘liq verbal salomlashishdagi tafovutlar. Kim birinchi salom beradi (o‘tirganmi yoki turganmi, yoshi kattami yoki kichik, boshliqmi yoki unga bo‘ysunuvchi xodim, mijozmi yoki boshqaruvchi, ayolmi yoki erkak)?⁴⁶

Sharq madaniyatida salomlashish odati yoshga, sharoitga, mavqega, jinsga va marosimlarga ko‘ra amalga oshiriladi. Bunda, asosan, kichiklar kattalarga, xodimlar boshliqlarga, ko‘p hollarda ayollar erkaklarga birinchi salom berishi me’yoriy hol hisoblanadi. G‘arb madaniyatida kattalar kichiklarga, boshliqlar xodimlarga birinchi salom berishi hollari ham kuzatiladi.

Noverbal muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari

Noverbal (so‘zsiz, nutqsiz) kommunikatsiya muloqot qilayotgan individlarning bir-biriga o‘zaro ta’siri va emotsional holati haqida signal beruvchi muloqot shaklidir.

Noverbal kommunikatsiya kishilarning eng qadimiy muloqot shaklidir. Kommunikatsiyaning noverbal vositalari tildan oldin rivojlangan bo‘lib, ularning dastlabki vazifasi o‘zining barqarorligi va samaradorligi bilan ajralib turgan. Astasekin ularning verbal vositalardan afzalligi namoyon bo‘lgan: ular bevosita qabul qilingan, shuning uchun ham adresatga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Ular vositasi qandaydir sababga ko‘ra so‘z orqali berib bo‘lmaydigan eng nozik tuyg‘ular, munosabatlar ifodalangan.

Noverbal kommunikatsiya kishilar o‘rtasidagi noverbal xabarlar almashinushi va ularning talqinini bildiradi. Har bir madaniyat borliqni o‘ziga xos belgilar va ramzlar yordamida aks ettirgani uchun ham noverbal muloqot yuzaga chiqadi.

Noverbal xabar katta ko‘lamdagi ma’lumotlarni berish imkoniyatiga ega. Bu avvalo, muloqotchining shaxsiyati haqidagi ma’limotdir. Muloqot chog‘ida muloqotchining mizoji, hissiy holatini bilib olishimiz, uning shaxsiy xususiyatlari va xislatlari, kommunikativ salohiyati, ijtimoiy maqomini aniqlab olishimiz, shuningdek, uning o‘z shaxsi haqidagi fikrlarini o‘rganib olishimiz mumkin.

Shu bilan birga, noverbal vositalar orqali muloqotchilarning bir-biriga bo‘lgan munosabati, ularning yaqinligi yoki uzoqligi, munosabat turi (ustunlik-tobelik) va o‘zaro aloqalarining ta’sirini bilib olish mumkin.

Vanihoyat, muloqot ishtirokchilarining vaziyatga bo‘lgan munosabati, ya’ni ular mazkur vaziyatda o‘zlarini qanchalik erkin tutishyapti, ular uchun muloqot qiziqarlimi yoki tezroq mulotdan chiqib ketishga harakat qilishyaptimi va h.k. haqida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

⁴⁵ Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari (O‘quv qo‘llanma). –Toshkent, 2015. –B. 104.

⁴⁶ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 45.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida noverbal muloqot verbal muloqotning tarkibiy qismi va u bilan o‘zaro bog‘liq hisoblanadi. Verbal va noverbal vositalar bir-birini to‘ldirishi, inkor qilishi va almashinishi mumkin:

- noverbal muloqot verbal xabarni to‘ldirishi mumkin. Agar siz kulib: “Salom, ishlar qalay?” desangiz, u holda bu ikki harakat bir-birini to‘ldiradi.

- noverbal xatti-harakat verbal xabarga zid bo‘lishi mumkin. Agar siz suhbatdoshingizning ko‘ziga qaramay: “Siz bilan gaplashish juda yoqimli” desangiz, bunday noverbal harakat sizning ijobiy verbal xabaringizni inkor etadi.

- noverbal xatti-harakatlar verbal xabarning o‘rnini almashtirishi mumkin. Bola: “Bu o‘yinchoqni xohlayman” deyish o‘rniga o‘yinchoqni ko‘rsatishi mumkin.

- noverbal harakatlar verbal xabarni boshqarishi mumkin. Masalan, bosh qimirlatish, qarash, talaffuz yordamida so‘zlash navbati kelganini anglash mumkin.

- noverbal harakat verbal xabarni takrorlashi mumkin: Sekinroq gapisirish haqidagi iltimosni, ko‘rsatkich barmoqni labga bosish harakati bilan birga amalga oshirish mumkin.

Noverbal xabar har doim vaziyatdan kelib chiqadi, undan faqat muloqot ishtirokchilarining hozirgi holatinigina anglash mumkin. Noverbal xabardan verbal xabardagidek mavjud bo‘lmagan predmetlar yoki boshqa joyda yuz bergen hodisalar haqida ma’lumot olib bo‘lmaydi.

Odatda, noverbal xabar g‘ayriixtiyoriy va o‘z-o‘zidan yuz beradi. Kishilar o‘z maqsadlarini yashirish uchun nutqlarini nazorat qilishlari mumkin, biroq ular o‘zlarining noverbal xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydilar⁴⁷.

Noverbal kommunikatsiya noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladi. Noverbal vositalar deganda jestlar (tana, qo‘l harakatlari), imo-ishoralar (mimika), tegish (qo‘l tegizish, quchoqlash, silash, o‘pish va h.k.), tana holati, kishilar orasidagi masofa kabilar tushuniladi.

Jestlar – kommunikatsiya jarayonida inson nutqining tana, qo‘l yoki barmoqlarning harakatlari bilan birga kechadigan va kishining bevosita suhbatdoshiga qaratilgan, qandaydir hodisaga, qandaydir shaxsga, qandaydir narsaga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan turli harakatlaridir.

“Stereotip” tushunchasi

Har qanday madaniyat o‘zining dunyoni idrok qilishiga asoslangan, o‘z tafakkuri va xulq-atvorining stereotipini shakllantiradi.

Stereotip – muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo‘yoqdor va favqulodda barqaror bo‘lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o‘ziga xosligidir.

Stereotip – u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma’lumot beradi. V.A. Maslovaning ta’biricha, “stereotip dunyoda mavjud tip bo‘lib, u

⁴⁷ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 46-47.

faoliyat, xatti-harakat va h.k.ni o‘lchaydi”⁴⁸. Stereotiplar hech qachon alohida kishilarda paydo bo‘lmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi.

“Stereotip” termini (yunon. stereos – qattiq, typos – iz,tamg‘a) amerikalik sotsiolog Uolter Lippman tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U 1922-yilda nashr etilgan “Jamoat fikri” nomli kitobida stereotiplarning jamoat fikri tizimidagi o‘rni va rolini aniqlashga harakat qilgan. U. Lippman stereotipni bizning ongimizga yetib bormasidan oldin his-tuyg‘ularimizdagi ma’lumotlarga muayyan ta’sir ko‘rsatadigan atrof-muhitni alohida idrok qilish shakli sifatida tushuntirgan⁴⁹.

U. Lippmanga ko‘ra, inson uni o‘rab olgan atrof-muhitni uning butun qarama-qarshiliklari bilan anglashga harakat qilib, o‘zi bevosita kuzatmagan hodisalar haqida “o‘zining miyasida manzara” hosil qiladi. Inson o‘z hayotida bevosita qarshilashmagan juda ko‘p narsalar haqida oldindan aniq tasavvurga ega bo‘ladi. Shunga o‘xhash stereotiplar tasavvuri mazkur individumning madaniy muhiti ta’sirida shakllanadi: “Aksariyat hollarda biz u yoki bu hodisani oldin ko‘rib, keyin unga aniqlik kiritmaymiz, aksincha, oldin u yoki bu hodisani o‘zimiz uchun aniqlab, so‘ngra uni kuzatamiz. Tashqi dunyoning butun chalkashliklaridan bizning madaniyatimizga aloqadorinigina yulib olamiz va biz mazkur ma’lumotni stereotip shaklida qabul qilishga moyil bo‘lamiz”⁵⁰. Stereotiplar insonga olam haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish, o‘zining tor ijtimoiy, geografik va siyosiy muhitidan chiqishga imkon beradi.

Stereotiplarni o‘rganishga qiziqish 1930-yillardan 1950-yillargacha bo‘lgan davrda keng quloch yoydi. Xususan, etnik stereotiplarning barqarorligi va beqarorligi masalalari R.Clarke va D. Campbell; D. Katz va K. Braly; R. La Pierre kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganildi⁵¹.

Keyingi yillardagi etnik stereotiplarni o‘rganishga bag‘ishlangan qator tadqiqotlarni tahlil qilgan psixolog O. Klenberg “etnik stereotip” tushunchasini quyidagicha belgilagan: “Etnik stereotip – insonlar ongidagi o‘zları yoki boshqa milliy guruhlar haqidagi manzara. Bunday obrazlar yoki tasavvurlar jamiyatda keng tarqalgan bo‘ladi; odatda, ular obyektiv borliqqa nisbatan o‘ta jo‘n va qabul qilinmaydigandir”⁵².

Aksariyat tadqiqotchilar etnik stereotiplarni muqarrar, lekin xavfli hodisa hisoblashadi. Binobarin, qatoq lug‘atlarda “stereotip” so‘zi salbiy ma’noda qayd qilingan. Masalan, M. Korduellning psixologiyadan tuzgan lug‘atida stereotipga shunday ta’rif berilgan: “Stereotip – ma’lum guruh yoki kategoriyadagi kishilar haqidagi keskin, ko‘pincha yuzaki tasavvur. Biz umumiyatda yuzakilikka moyil bo‘lganimiz uchun ham boshqa insonlarning xulq-atvorini oldindan ko‘rish uchun stereotiplarni shakllantiramiz. Mazkur stereotiplar ko‘pincha salbiy mohiyat, soxta tasavvur va tahqirlash asosiga ega bo‘ladi. Stereotiplar har doim ham yolg‘on

⁴⁸ Маслова В.А. Связь мифа и языка // Фразеология в контексте культуры. –М., 1999. –С. 123-134.

⁴⁹ Lippman Walter. Public Opinion. –New York: Greenbook, 2010. –P . 23, 95.

⁵⁰ Lippman Walter. Public Opinion. –New York: Greenbook, 2010. –P . 81.

⁵¹ Clarke R. B. & Campbell D. T. A demonstration of bias in estimates of Negro ability // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol 51. 1955. –P. 585-588; Katz D. & Braly K. W. Racial stereotypes of one-hundred college students // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol. 28. 1933. –P. 280-290; La Pierre R. T. Social forces type-rationalizations of group antipathy // Social Forces. Vol. 15. 1936. –P. 232-237.

⁵² Klenberg O. Tensions Affecting International Understanding. –New York, 1950. –P. 93.

bo‘lmaydi; odatda, ularda ma’lum ma’noda haqiqat bo‘ladi. Stereotiplarni ko‘pchilik tomonidan bo‘lishilishi ularning singib ketishiga yordam beradi. Stereotiplar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin, lekin stereotip sohiblarining o‘zlashtirilgan tasavvurlardan qutulishi qiyin bo‘ladi”⁵³.

TOPSHIRIQLAR MAZMUNI Ushbu savollarga javob bering

1-topshiriq.

1. Frazeologizmlarda nimalar haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi?
2. Rus tilshunosi B. A. Larinning fikricha, frazeologizmlar nimani bilvosita aks ettiradi?
3. F. I. Buslayev frazeologizmlarga qanday ta’rif beradi?
4. V.A. Maslova frazeologizmlar haqida qanday gipotezani ilgari surgan?
5. Frazeologizm va metaforalar qaysi jihatni bilan boshqa atov birliklaridan ajralib turadi?
6. V.N.Teliya tilning frazeologik tarkibini qanday izohlaydi?
7. Tarkibida diniy-mifologik shaxs nomlari uchragan frazeologizmlarga misollar keltiring.
8. Milliy realiyalarni ifodalovchi frazeologizmlarga misollar keltiring.

2-topshiriq. O‘zbek frazeologizmlaridan 5 tasini lingvomadaniy tahlil qiling.

Asosiy adabiyotlar

1. Lippman Walter. Public Opinion. –New York: Greenbook, 2010. -218 p.
2. Klenberg O. Tensions Affecting International Understanding. –New York, 1950.
3. Madon S., Guyll M. Ethnic and National Stereotypes: The Princeton Trilogy Revisited and Revised. Iowa State University <http://public.psych.iastate.edu/madon/katz.braly.replication.pdf>
4. Akinshina A. A. Stereotipy natsionalnoy kultury v mejkulturnom obshenii. –N.Novgorod: NGGU, 2009.
5. Maslova V. A. Lingvokulturologiya: Ucheb. posobiye dlya stud. vysssh. ucheb, zavedeniy. –M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2001. -208 c.
6. Ter-Minasova S. G. Yazык i mejkulturnaya kommunikatsiya. –M.: Slovo, 2000. -624 s.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Clarke R. B. & Campbell D. T. A demonstration of bias in estimates of

⁵³ Кордуэлл М. Психология А-Я. Словарь-справочник. –М.: Файр-пресс, 2000. -448 с.

Negro ability // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol 51. 1955. –P. 585-588.

2. Hasegawa T., & Gudykunst W. B. Silence in Japan and the United States // Journal of Cross-Cultural Psychology. Vol. 29, 1998. –R. 668–684.

3. Katz D. & Braly K. W. Racial stereotypes of one-hundred college students // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol. 28. 1933. –P. 280-290.

4. La Pierre R. T. Social forces type-rationalizations of group antipathy // Social Forces. Vol. 15. 1936. –P. 232-237.

5. Morsbach H. The importance of silence and stillness in Japanese nonverbal communication // A cross cultural approach. In F. Poyatos (Ed.). Cross cultural perspectives in nonverbal communication –Lewiston, NY: Hogrefe, 1988. –P. 201–215.

6. Korduell M. Psixologiya A-Ya. Slovar-spravochnik. –M.: Fairpress, 2000. -448 s.

7. Maslova V.A. Svyaz mifa iazyka // Frazeologiya v kontekste kultury. –M., 1999. –C. 123-134.

8. Sorokin Yu.A. Stereotip, shtamp, klishe: K probleme opredeleniya ponyatiy // Obsheniye: Teoreticheskiye i pragmaticskiye problemy. –M., 1978. –S. 133-138.

9. Usmanova Sh. Etnomadaniy stereotiplarning lingvomadaniy tahlili // Lingvist. Ilmiy maqolalar to‘plami. VI. –Toshkent: “Akademnashr”, 2015. –B. 120-122.

11-AMALIY MASHG’ULOTSHAXS, MILLIY VA HUDUDIY XARAKTER STEREOTIPLAR, GENDER, YOSH VA DISKURS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Kommunikatsiya turlari
2. Madaniyatlararo muloqotning makro va mikrodarajalari

Tayanch so‘z va iboralar: *intrapersonal kommunikatsiya, shaxslararo kommunikatsiya, guruhlararo kommunikatsiya, ommaviy kommunikatsiya, virtual kommunikatsiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, xalqaro kommunikatsiya, tashkilotlararo kommunikatsiya, makromadaniyat, mikromadaniyat.*

Sharqiy slavyan tillarida, xususan, nemis, fransuz va boshqa tillarda ingliz tilidan farqli o‘laroq “sex” (biologik jins) va “gender” (jinsning sotsio-madaniy kategoriya sifatida tushunilishi) tushunchalari farqlanilmaydi. Biroq jinsga faqat biologik hodisa sifatida yondashish mazkur kategorial tushunchani toraytirib, yuzakilashtirib qo‘yadi, chunki maskulinizm (jasorat) va feminizm (nazokat) bir tomonidan psixikaning filogenetik bog‘langan xususiyati bo‘lsa, ikkinchi tomonidan ontogenezda to‘planadigan sotsio-madaniy hosiladir. Zamonaviy sotsiologlar va faylasuflar “jins” va “gender” tushunchalarini qarama-qarshi qo‘yishadi.

Inson o‘z hayotini gender xususiyat bilan boshlaydi. Binobarin, chaqaloq dunyoga kelganda, u qiz bo‘lsa pushti rangli, o‘g‘il bo‘lsa ko‘k rangli kiyimlar va yo‘rgaklar bilan qarshi olinadi. Tug‘ruqxonaga chaqaloqni ko‘rgani kelganlar gender xususiyatni aniqlash uchun uning o‘g‘il yoki qiz ekanligini so‘rashadi. Biroq gender biologik jins yoki jinsiy xususiyat emas. Mazkur farq bizning biologik jins haqidagi qarashlarimizning gender xususiyatga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini tushunishda juda muhim sanaladi⁵⁴.

Gender xususiyat deganda, maskulinizm va feminizm madaniy tushunchalari hamda ayollik yoki erkaklikning o‘ziga xos xususiyatlari tushuniladi.

Gender – sotsio-madaniy kategoriya bo‘lib, jinslar rolini an’anaviy o‘rganishni nazarda tutmaydi. Gender – ijtimoiy va psixologik jarayonlarning yirik majmuyi, shuningdek, jamiyatda vujudga keladigan va milliy lisoniy shaxsning axloqiga ta’sir ko‘rsatadigan madaniy ko‘rsatmalar, qoidalardir.

Jamiyatda ayol yoki erkaklik o‘rniga ega bo‘lish sezilarli darajada madaniy tushunchalarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ayrim faoliyatlar ko‘proq erkaklarga yoki ko‘proq ayollarga xosligi bilan xarakterlanadi. Shunday qilib, insonlarning ov qilishi yoki bichish-tikish bilan shug‘ullanishi, jang qilishi yoki she’r o‘qishi boshqalarning ular haqida bildirgan fikrlaridan o‘zgarishi mumkin. Kishilarning teleko‘rsatuvlar, teleserillar, futbol o‘yinlari va h.k. tomosha qilishi ularning boshqalar bilan genderlashgan kontekstlarda muloqotga kirishuviga ta’sir ko‘rsatadi⁵⁵.

Gender ko‘p qirrali tarmoq bo‘lgani uchun u nafaqat faylasuf va sotsiologlarning, balki tilshunoslarning ham e’tiborini tortgan.

1960-yillarning o‘rtalariga kelib tilshunoslikda gender masalasiga bo‘lgan qiziqish uch yo‘nalishdagi tadqiqotlarda o‘z aksini topdi:

- 1) erkak va ayol nutqining ijtimoiy tabiat;
- 2) nutqiylar muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari;
- 3) tafovutlarning kognitiv aspekti⁵⁶.

Genderolinguistika o‘z tadqiq yo‘nalishida ikki jihatga: muayyan tilda erkaklar va ayollar nutqining tafovutlari hamda muayyan til tizimida erkaklik va ayollik belgilari bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi til birliklari tadqiqiga e’tibor qaratadi.

Gender masalasi tilshunoslikning sotsiolinguistika yo‘nalishida keng miqyosda o‘rganila boshlandi. Sotsiolinguistika doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda erkak va ayollarning nutqidagi aksent, urg‘u, ohang, xos so‘zlar va so‘zlashuv shakllari o‘rganildi. Jumladan, U. Labov, o‘zining “Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy stratifikatsiyasi” (1966) nomli asarida erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlarni ko‘rsatib berishga urindi. L. Milroy Belfastda amalga oshirgan tadqiqotida (1980) ishchilar sinfini uch guruhga ajratadi. L. Milroy mazkur guruhlardagi ayollar nutqining erkaklarnikidan qaysi jihatlari bilan farq

⁵⁴ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. — New York: McGraw-Hill, 2010. — P. 180-181.

⁵⁵ Ko‘rsatilgan asar, 181-bet.

⁵⁶ Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2001. — С. 83.

qilishiga e'tibor qaratadi va ayollar nutqida erkaklarnikiga qaraganda mahalliy shevalarning kam qo'llanilganini ta'kidlaydi.

Feminizm bilan bir paytda vujudga kelgan “zo'ravonlik” nazariyasida asosiy e'tibor tildan foydalanishda erkak va ayollar o'rtasidagi tafovutlarga qaratildi va mazkur tafovutlar jamiyatdagi hukmronlik munosabatlari bilan bog'landi. Jamiyatdagi hukmronlik munosabatlariga ko'ra, erkaklarning tili me'yor sifatida qabul qilinishi, ayollarning esa bu tilda gapirishga majburlanishi turli bahslarni keltirib chiqardi.

R.Lakoffning 1972-yilda chop etgan “Language and the Women's Place” (“Til va ayolning maqomi”) nomli maqolasi (keyinroq 1975-yilda shu nom bilan nashr qilingan asari) qayd etilgan bahs-munozaralarga chek qo'ydi. R. Lakoff ushbu asarida ayollarning erkaklar qo'llaydigan tildan butunlay farq qiladigan “ayol tili”ni qo'llashlariga alohida urg'u berdi. R. Lakoffga ko'ra, mazkur “ayol tili” o'ziga xos qator xususiyatlarga ega⁵⁷.

R. Lakoffning ta'limoti gender masalasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlarda davom ettirilib, erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlar quyidagicha ko'rsatildi:

MULOQOT	ERKAKLAR	AYOLLAR
Muloqotga kirishishda	<ul style="list-style-type: none"> - salomlashishning qisqa bo'lishi; - ba'zi holatlarda salomlashmasdan to'g'ridan to'g'ri maqsadga o'tish. 	<ul style="list-style-type: none"> - salomlashish, hol-ahvol so'rashning uzun bo'lishi;
Muloqot jarayonida	<ul style="list-style-type: none"> - oldindan rejalshtirilgan fikrlarning ifodalanishi; - dalil va isbotlar keltirish; - buyuk insonlar, olimlar va faylasuflarning fikrlaridan foydalanish; - aforizmler, latifalar ve maqollarni qo'llash; - aniq, qisqa va lo'nda gapirish, suhbat chog'ida bir ma'noli so'zlardan foydalanish; - ko'proq siyosat, iqtisod, texnika va h.k. haqida gaplashish; 	<ul style="list-style-type: none"> - bir xil fikrlarni takror qo'llash; - hissiyotlarni ochiq ifodalash; - boshqalarning gaplarini suhbatdoshiga yetkazish; -tanishlarining gaplaridan foydalanish; - mavhum, uzun gapirish, suhbat chog'ida ko'p ma'noli so'zlardan foydalanish; - pazandalik, tikish-bichish, kiyim-kechak, pardoz-andoz mahsulotlari va oiladagi muammolar haqida gaplashish; - muloqot chog'ida uy jihozlari, mashinalar, taqinchoqlar,

⁵⁷ Lakoff Robin. Language and The Women's Place. –New York: Oxford University Press, 2004. -328 p.

		pardoz-andoz mahsulotlari va h.k.ning maqtanish obyekti bo‘lishi;
	- erishilgan natijalarni odatda 50%ga mubolag‘a qilish;	- erishilgan natijalarni odatda 200%ga mubolag‘a qilish;
	- muloqot chog‘ida pauzalarning uzun bo‘lishi;	- muloqot chog‘ida pauzalarning deyarli bo‘lmasligi;
	- muloqot chog‘ida sukutning uzoq davom etishi;	- muloqot chog‘ida sukutning bo‘lmasligi yoki sukutning juda qisqa davom etishi;
	- muloqot chog‘ida suhbatdoshining gapini bo‘lish hollarining juda kam bo‘lishi;	- muloqot chog‘ida suhbatdoshining gapini bo‘lish hollarining tez-tez uchrashi;
	- jumlalarning qisqa bo‘lishi.	- jumlalarning uzun bo‘lishi.

R. Lakoffning tadqiqoti ayrim doiralarda qo‘llab-quvvatlangani holda, ba’zi doiralarda ayovsiz tanqid ostiga olindi va bu tanqidlar hali ham davom etmoqda. Jumladan, 1974-yilda W. O’Barr va B. Atkinslar Shimoliy Karolinadagi Oliy mahkamada 150 soat davom etgan sud jarayonida erkaklar va ayollarning nutqini kuzatib, R. Lakoff “ayol tili” o‘rniga “zaiflik tili”dan gapirishi lozim, degan xulosaga keldilar.

Tadqiqotchi C. West Janubiy AQSHdagi oilaviy poliklinikadagi 21 ta qayd varaqasini o‘rganib chiqdi. C. Westning mazkur tadqiqotida erkak shifokorlar bemorlar bilan suhbat chog‘ida ularning gaplarini ko‘p marotaba bo‘lganini, bemorlarning esa shifokorning gapini juda kam holatlarda bo‘lganini, aksincha, shifokor ayol bo‘lgan holatlarda bemorlar uning gapini ko‘p marotaba bo‘lganini qayd qildi.

Ayrim tadqiqotlarda erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlar submadaniyat farqlariga bog‘lanini ko‘rish mumkin. Xususan, D. Tannen: “ayollar munosabat va yaqinlik tilida, erkaklar mavqe va erkinlik tilida gaplashishsa, u holda erkaklar bilan ayollar o‘rtasidagi muloqot, so‘zlashuv uslublari kesishmasidagi madaniyatlararo muloqotni yuzaga chiqaradi”⁵⁸, deb yozgandi. Xullas, D. Tannen erkak va ayollarning bir-biridan farq qiluvchi so‘zlashuv uslublari tavofutli submadaniyatlardan o‘sib chiqqanligini da’vo qiladi.

Gendershunoslik sohasida keyingi yillarda J. Wood; D. Canary va K. Hause; J. Pennebaker, M. Mehl va K. Niederhoffer kabi qator olimlar tomonidan

⁵⁸ Tannen Deborah. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. –New York: William Morrow Paperbacks, 2007. –P. 29.

amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham muloqot uslubidagi o‘ziga xos gender xususiyatlar ko‘rsatib berildi⁵⁹.

Umuman, aksariyat mutaxassislar ta’kidlashganidek, ayollar va erkaklar nutqidagi farqlar asosida jinslarning psixologiyasi, tafakkuri o‘rtasidagi tafovutlar, jamiyatdagi gender o‘lchovlarini belgilovchi me’yorlar yotadi. Jamiyatda jinsga oid faoliyat ko‘rsatmalari, me’yorlarni belgilovchi ma’lum qoidalar, o‘ziga xosliklar, tafovutli holatlar paydo bo‘ladi va shunga nisbatan ijtimoiy hayotda ayollarga va erkaklarga xos bo‘lgan ayricha tushunchalar, g‘oyalar tug‘iladi.

TOPSHIRIQLAR MAZMUNI

Ushbu savollarga javob bering

1. Gender qanday kategoriya?
2. “Jins” va “gender” tushunchalarini izohlang.
3. Gender masalasi qaysi tadqiqotlarda o‘rganilgan?
4. Tilshunoslikda gender masalasiga bo‘lgan qiziqish qaysi yo‘nalishdagi tadqiqotlarda o‘z aksini topdi?
5. Genderolingvistika o‘z tadqiq yo‘nalishida qaysi jihatlarga e’tibor qaratadi?
6. Sotsiolingvistika doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda erkak va ayollarning nutqidagi qaysi xususiyatlar o‘rganilgan?
7. “Zo‘ravonlik” nazariyasida erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tafovutlar nima bilan bog‘landi?
8. R.Lakoffning “Language and the Women’s Place” asarida qanday ta’limot ilgari surildi?
9. Qaysi tadqiqotchi erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlarni submadaniyat farqlariga bog‘langan?
10. Erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlarni ko‘rsating.
11. “Stereotip” tushunchasiga ta’rif bering.
12. “Stereotip” termini qachon va kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan?
13. U. Lippman stereotipni qanday tushuntirgan?
14. D. Kas va K. Breylilarning tadqiqotida qanday stereotiplar o‘rganildi?
15. O. Klenberg “etnik stereotip” tushunchasini qanday belgilagan?
16. M. Korduellning lug‘atida stereotipga qanday ta’rif berilgan?
17. Stereotipning qanday turlari bor?
18. Nemis stereotipini tavsiflang.
19. V.A.Maslovaning fikricha, stereotiplar qanday bo‘ladi?
20. Stereotiplar yuzaga kelishining sabablarini ko‘rsating.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. “Erkak va ayol ziddiyati” mavzusida taqdimot tayyorlash.

⁵⁹ Wood J. T. Gendered lives: Communication, gender and culture (11 th ed). –Boston: Cengage Learning, 2014; Canary D. J. & Hause K. S. Is there any reason to research sex difference in communication?// Communication Quarterly. Vol. 41. 1993. –P. 129–144; Pennebaker J. W., Mehl M.R., & Niederhoffer K.G. Psychological aspects of natural language use // Our words, our selves. Annual Review of Psychology. –N. 54. 2003. –P. 547–577.

2. Genderolinguistikada amalga oshirilgan tadqiqotlarni konspekt qilish.
3. Erkaklar va ayollar nutqidagi tavofutlarni ko‘rsatish.
4. Etnomadaniy stereotipining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish.
5. “Stereotip va madaniyatlararo muloqot” mavzusida taqdimot tayyorlash.
5. Stereotiplarni tasniflash.

Asosiy adabiyotlar

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
2. Lakoff Robin. Language and The Women’s Place. —New York: Oxford University Press, 2004. -328 p.
3. Wood J. T. Gendered lives: Communication, gender and culture (11 th ed). —Boston: Cengage Learning, 2014. -341 p.
4. Maslova V. A. Lingvokulturologiya. Uchebnoye posobiye dlya studentov vysshix uchebnix zavedeniy. —M.: Izd. Sentr «Akademiya», 2001. -208 c.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Canary D. J. & Hause K. S. Is there any reason to research sex difference in communication?// Communication Quarterly. Vol. 41. 1993. —P. 129–144.
2. Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolinguistik. —Toshkent: Universitet, 2014. -136 b.
3. Kindaichi H. The Japanese Language. —Tokyo, 1978. -256 p.
4. Pennebaker J. W., Mehl M.R., & Niederhoffer K.G. Psychological aspects of natural language use // Our words, our selves. Annual Review of Psychology. — №. 54. 2003. —P. 547–577.
5. Tannen Deborah. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. —New York: William Morrow Paperbacks, 2007. -342 p.
6. Buber M. Problema cheloveka. Perevod s nemeskogo. —Kiyev: “Nika-Sentr”, “Vist-S”, 1998. -132 s.
7. Latyshev I. A. Semeynaya jizn yaponsev. —M.: Nauka, 1985. -287 s.
8. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. I tom. —Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1960. -499 b.
9. Sorokin Yu.A. Rechevyie markerы etnicheskix i institutsionalnyix portretov i avtoportretov // Voprosy yazykoznaniya. 1995. -№ 6.
10. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. —Qarshi: Nasaf, 1999. -172 b.
11. Qadimgi hikmatlar. —Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. - 432 b.
12. <http://eksion.net/turk-mitolojisi-ve-tanricalar>
13. <http://aykiriakademi.com/haber/haber-goster/227-turkiye-de-kadin-acemisi-oldugumuz-bir-kelime>
14. <http://www.jasstudies.com>
15. <http://www.bilinmeyenturktarihi.com>
16. <http://newsgroups.derkeiler.com>


12-AMALIY MASHG’ULOTKODLAR ARALASHUVI HAMDA INTERFERENSIYA MASALALARI. O’RGANILAYOTGAN TILNI

O'QITISHDA TURLI MADANIYAT VAKILLARI MULOQOTIDAGI QIYINCHILIKLAR


Til ham madaniyat, ham tabiat hodisasi sifatida mavjud. Shubhasiz, til madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri sanaladi. Lekin boshqa tomondan tilning materiyasida insonning biologik tabiati namoyon bo'ladi. Bu o'rinda ko'p narsa nutqiy faoliyatning fiziologik va psixofiziologik imkoniyatlari bilan aniqlangan. Masalan, dunyoning barcha tillarida unli va undoshlar hamda ko'plab tovushlar almashinushi zanjirining mavjudligi madaniyat bilan emas, tabiat bilan bog'liqdir. Binobarin, inson faqat unlilar yoki undoshlarning o'zi bilan nutq hosil qila olmaydi. Tabiat til strukturasining teran xususiyatlarini hamda matnni hosil qilish va uni qabul qilish qonuniyatlarini aniqlaydi. Madaniyat esa tilning mazmun jihatini aniqlaydi⁶⁰.

Mashhur rus tilshunosi G.O.Vinokurning "tilni o'rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo'lgan o'sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi"⁶¹ degan tezisi tilshunoslikning shakllanishidan boshlab tasdiqlanib kelmoqda.

Til va madaniyatning o'zaro munosabati V. fon Gumboldtning ta'limotida (1985) batafsil yoritilgan: 1) moddiy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlashadi:




2) har qanday madaniyat milliydir, uning milliy xarakteri tilda dunyoni o'ziga xos ko'rish vositasi bilan ifodalanadi:




3) tilga har bir xalq uchun o'ziga xos bo'lgan ichki shakl xosdir, tilning ichki shakli – "xalq ruhi" va uning madaniyatining ifodasi:

⁶⁰ Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. И. 2 изд. –М.: Аспект Пресс, 2000. –207 с.

⁶¹ Винокур Г. О. Избранные работы по русскому языку. –М.: Учпедгиз, 1959. –С. 211.



4) til inson va uning o‘rab olgan dunyo orasidagi halqa hisoblanadi:



Tilshunoslarning hech biri “til va madaniyat” masalalari bilan amerikalik mashhur tilshunos va madaniyatshunos Edvard Sepirchalik (1884-1939) ko‘p va samarali shug‘ullanmagan deyish mumkin⁶². E.Sepirning “Tilshunoslik va madaniyatshunoslik bo‘yicha tanlangan asarlari” da “til va madaniyat” masalalariga doir qator savollar quyidagicha yoritilgan.


Til oldin paydo bo‘lganmi yoki madaniyat? E.Sepir til madaniyatdan oldin paydo bo‘lgan, chunki til madaniyatga nisbatan ma’no ifodalovchi vosita sanaladi, deb hisoblagan (42-bet). Til milliy madaniyat mavjudligi va uning ifodalanishining asosiy shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq E.Sepirga ko‘ra, til ijtimoiy va madaniy rivojlanish mahsulidir. Til madaniyatning ijtimoiylashgan qismidir (265-bet).

Til va madaniyatning mushtarakligi nimada? Birinchidan, nutq ham madaniyat ham konseptual tanlab olishni talab qiladi (60-bet). Ikkinchidan, tillar ham, madaniyatlar ham kamdan kam holatlarda o‘z-o‘zicha yetarli bo‘ladi (173-bet). Bu ikki hodisaning farqini E.Sepir shunday izohlagan: “Jamiyatning **nima** qilishi va **nimani** o‘ylashiga qarab madaniyatni, **qanday** o‘ylashiga qarab esa tilni aniqlash mumkin” (193-bet).

Til va madaniyat qanday o‘zaro ta’sir qiladi? Til madaniyatga nisbatan

⁶² Sapir E. Language: An introduction to the study of speech. -New York: Harcourt, Brace and company, 1921. 258 p.

madaniyatni to‘plash va uni meros qilish kumulyativ (lot. cumulatio - to‘plash, yig‘ish, jamg‘arish) xususiyatiga ega bo‘ladi:



Til madaniyatning tarkibiy qismi va uning vositasi, ruhimizning borlig‘i, madaniyatimizning ko‘rinishi ekanligi haqida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi fikrlarni qayd etganlar: “Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so‘zлari bilan aytganda, “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”⁶³.

Shuningdek, I.A.Karimov jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasidagi ishlar haqida ham alohida to‘xtalib o‘tganlar: “Ayni vaqtida miyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko‘p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarur. Ayniqsa, ba’zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma’lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo’shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Bu haqda so‘z yuritganda, bobomiz Alisher Navoiyning “Tilga e’tiborsiz – elga e’tiborsiz” degan so‘zlarida naqadar chuqr hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz”⁶⁴.

O‘zbek tilshunosligida “til va madaniyat” masalalari bilan eng ko‘p va xo‘p shug‘ullangan olim sifatida professor Nizomiddin Mahmudovni ko‘rsatish mumkin. Jumladan, olim o‘zining “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida “til” va “madaniyat” tushunchalari haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi”⁶⁵.

⁶³ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 65.

⁶⁴ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 65.

⁶⁵ Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқики йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. -№ 5. –Б. 10.

Kishilarning biron hodisa yoki holatni tushuntirish maqsadida ishlata digan qo‘l harakatlari turli madaniyatlarda turlicha ma’no kasb etadi. Buning sababi madaniyatlararo ramzlar va tushunchalarning farqlanishidadir⁶⁶.

Salomlashuv. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar o‘zaro insoniy munosabat, muomala va muloqotni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog‘liq o‘z urf-odatlari bor. Masalan, Indoneziyaning Bali orolida ikki sevishgan bir-birini pishillab salomlashi mumkin. Birma, Mo‘g‘iliston va Laplandiyaliklar salomlashish tariqasida bir-birinini hidlashi, eskimoslar notanish kishining boshiga va yelkasiga mushtlashi mumkin. Amazonka xalqi o‘zaro yelkaga qoqish orqali, Polineziya xalqi esa suhbattoshini quchoqlab, yelkasini silash orqali o‘zining salomini ifodalaydi⁶⁷.

O‘zbek, yapon va koreys xalqlarining salomlashish odati yoshga, sharoitga, mavqega, jinsga va marosimlarga ko‘ra turli shakllarda ijro etiladi. Jumladan, o‘zbeklar “assalomu alaykum” (arabcha “sizga tinchlik tilayman”), “vaalaykum assalom” (“sizga ham tinchlik tilayman”) deya⁶⁸ ikki qo‘llab, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, quchoqlashib, kiftlarini, yelkalarini silab-siypab, peshona o‘pib, uzoq vaqt ko‘rishmaganda bir-birini ko‘tarishib, ayollar yelka qoqishib, o‘pishib so‘rashishadi.

O‘zbek madaniyatida qo‘l qovushtirib salomlashish (ikki qo‘lni kindik ustiga qovushtirib, bosh sal oldinga egilgan holat) odati erkaklarga xos bo‘lib, quyidagi vaziyatlarda amalga oshiriladi:

- 1) g‘oyat hurmatli keksani uchratganda;
- 2) to‘xona darvozasi yonida turganda (mehmonlarni kutib yoki kuzatayotganda);

3) ta’ziyaga borganda; to‘y, bayram, boshqa yig‘in dasturxonlariga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida yosh yigitlar shunday holatda turadi (“xizmatingizga tayyorman”)⁶⁹.

Odatda, yaponlar salomlashganda “Ohayou” (“Xayrli tong”), “Konnichiwa” (“Assalomu alaykum”, “Salom”) deb egilib, ya’ni ta’zim qilib (“ojigi”) ko‘rishishadi.

Yapon madaniyatida salomlashish iyerarxik munosabatlarni qamragan 15, 30, 45, 90 darajali ta’zim qilish vositasida ifodalanadi. Ta’zimning darjasи qarshidagi kishining yoshiga, jinsiga, mansabiga, mavqeyiga, shuningdek, salomlashish joyiga qarab farqlanadi.

Tik oyoqda, turgan holatda ijro etiladigan ta’zim:

- a) 15° – yengil ta’zim, faqat yo‘lda uchragan tanishlarga mo‘ljallangan.
- b) 45° – o‘rtacha ta’zim, mavqeyi va mansabi yuqori bo‘lgan shaxslar, o‘qituvchilar va boshqa rasmiy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.
- c) 90° – yuksak ehtiromli ta’zim, turli marosimlar chog‘ida yuksak martabali

⁶⁶ Schober O. Beden Dili: Davranış Anahtarı. Çeviren: Süeda Özbent. –İstanbul: Arion Yayinevi, 2003. – S. 163.

⁶⁷ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 42.

⁶⁸ Саттор М. Ўзбек удумлари. –Тошкент, 1993. –Б. 61.

⁶⁹ <http://fikr.uz/posts/buxdu/14537.html>

mehmonlarga, shuningdek, jiddiy iltimos bilan murojaat qilinganda ijro etiladi.

O'tirgan holatda ijro etiladigan ta'zim:

- a) 15° – yengil ta'zim, qo'l ostidagilar va tanishlar uchun qo'llaniladi;
- b) 30° – o'rtacha ta'zim, ehtirom darajasi biroz yuqori bo'lib, tashkilotlarga kelgan mehmonlar uchun ijro etiladi;
- c) agar ta'zim xizmat doirasida mansabi yuqori bo'lganlarga qaratilgan bo'lsa, u holda o'rindan turish lozim bo'ladi⁷⁰.

Shunga o'xhash holatni koreys madaniyatida ham kuzatish mumkin. Koreyslar salomlashishganda bosh hamda gavdaning butun yuqori qismini egib, belni bukib *ta'zim qilishadi*. *Ta'zim qilish* chog'ida nazokat va ehtiromning darajasi, qarshidagi kishining yoshiga, jinsiga, mansabiga, mavqeyiga qarab ortib boradi. Erkaklar qo'llari yonda, erkin holda, ayollar bo'lsa, erkaklarga nisbatan ko'proq egilgan holda, qo'llarini tizzalarining ustiga qo'yib "annyonghaseyo", "annyonghashibnikka" ("eson-omonmisiz?") deb so'rashishadi.

Koreys an'analari va marosimlarida ham *ta'zim qilish* odati juda keng tarqalgan. Jumladan, nikoh to'yida kelin ikki marta, kuyov bir marta bir-birlariga, so'ngra kelinning ota-onasiga, kuyovning ota-onasiga va mehmonlarga *ta'zim qilishadi*.

Bundan tashqari, *ta'zim qilish* harakati koreys kundalik-muomalasida "tabriklash", "iltimos qilish", "kechirim so'rash" va "minnatdorchilik izhor qilish" kabi qator ma'nolarni ham kasb etgan. Ayni ma'nolar yapon madaniyati uchun ham xosdir. O'zbeklar bu ma'nolarni biroz egilib, *qo'l ni ko'ksiga qo'yish* bilan ifodalashadi.

Qator madaniyatlarda *qo'l olishib* so'rashish, "tinchlik, omonlik tilash" ma'nosini ifodalaydi. Qadimda odamlar qabila-qabila bo'lib yashashgan, aksariyat hollarda bir-birlariga raqobatda bo'lgan guruhlarning vakillari, "man, qo'limda qurolim (bolta, pichoq, tosh) yo'q, qo'lim ochiq" mazmunida *qo'l olishib* ko'rishishgan. Shu bilan bir-birlariga tinchlik, omonlik tilashgan⁷¹.

O'zbek madaniyatida *qo'l berib* salomlashish me'yoriy hol sanaladi. Biroq *qo'l berib* so'rashish odati yapon va koreys madaniyatiga xos emas. Shunga qaramay, bu odat Koreyada 1945-yildan keyin amerikaliklarning ta'sirida tarqala boshladi⁷². Keyingi yillarda yaponlar orasida ham *qo'l siqishib* so'rashish tarqalib bormoqda.

Xayrlashuv. O'zbek madaniyatida yoshi katta va mavqeyi yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan *qo'l ni ko'ksiga qo'yib*, koreys va yapon madaniyatlarida *ta'zim qilib* xayrlashiladi. O'zbek noverbal muloqotida "xayr" ishorasi yoshi teng yoki kichik bo'lgan, shuningdek, sinfdosh, kursdosh yohud kasbdoshlarga nisbatan *qo'l ni ko'tarib, kaftini yuqoridan pastga silkitib*, koreys va yapon noverbal muloqotida esa, *qo'l ni ko'tarib, chapdan o'ngga silkitib* xayrlashiladi.

⁷⁰ Рогозная Н. Н., Мацура Аки. Японские невербальные средства общения // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. –М.: МАКС Пресс, 2001. .Вып. 16. –С. 68.

⁷¹ Саттор М. Ўзбек удумлари. –Тошкент, 1993. –Б. 62.

<http://www.happycampus.com/pages/2000/10/23/D1014397.html> 03-06-05;

<http://www.elections.spb.ru/elections/razdel9/bodysign.htm> 03-06-15.

⁷² Choi Yunhee. Biono komunikeishon. –Seul, 1999. Р. 62-63.

Aytilganlar bilan birga, yapon madaniyatida erkaklar do'stlari bilan xayrlashish chog'ida *o'ng qo'lini ko'ksiga ko'tarib, keyin tezda pastga tushirishadi*. Shuningdek, *bir qo'lni yelgaga qadar pastdan yuqoriga ko'tarib ham xayrlashiladi*⁷³.

Rozilik. “Biror fikrni tasdiqlash, rozilikni ifodalash” ma’nosidagi *bosh irg'atish* – boshni yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga bir marta yoki bir necha marta silkitish harakati deyarli barcha xalqlarning noverbal muloqotida kuzatiladi. Ba’zan mazkur harakat suhbatdoshini eshitish, uning gaplarini ma’qullash ma’nosida ham qo’llaniladi. Bundan tashqari, yapon madaniyatida “rozilik” *bir marta yoki bir necha marta chapak chalish* yoki *qo'llarni bosh uzra ko'tarib halqa hosil qilish*⁷⁴ harakatlari vositasida ham ifodalanadi.

Bosh irg'atish harakati ba’zan ifodaga mos bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, o‘zbeklar *bosh irg'atib*, “yaxshi, o‘ylab ko‘ramiz, maslahatlashib ko‘ramiz” deganida, “rozilik” emas, balki “yo‘q” ma’nosi ko‘zda tutilgan hollar ham kuzatiladi. Yoki ba’zan yaponlar suhbat chog’ida *bosh irg'atib o‘zlarini xuddi “xo‘p”* degan tinglovchidek tutishlari qarshidagi suhbatdoshda “hamma narsani tasdiqlayapti” degan taassurot qoldirishi mumkin. Aslida, mutlaqo teskarisi bo‘lishi ham mumkin. Shuning uchun yaponlar bilan muloqot chog’ida ular bilan uyg‘un munosabatda bo‘lish, bahslardan qochish hamda ularning tuyg‘ularni ifodalash tarzini tushunishga harakat qilish maqsadga muvofiqdir.

Inkor. “Yo‘q” javobini bildirish ma’nosidagi *bosh chayqamoq* – boshni ikki yonga bir necha marta burish madaniyatlarning aksariyatida keng tarqalgan harakatlardan biridir. O‘zbek madaniyatida *boshni ikki yelka tomon bir necha marta egish* harakatiga ham *bosh chayqamoq* deyiladi va u “taassuflanish” ma’nosida qo’llaniladi. Mazkur harakat koreyslarda “ikkilanmoq, taraddudlanmoq” (“*halka-malka*”) ma’nosida ijro etiladi.

Yapon madaniyatida inkor ma’nosi *bosh chayqash* bilan birga, *yuzning oldida bir qo'lni o'ngdan chapga harakat qildirib, bosh chayqash* orqali beriladi. *Bilaklarni yuqoriga va pastga harakatlantirish* vositasida ham inkor ma’nosi ifodalanadi. Odatda, ushbu qo'l harakati katta yoshli ayollar tomonidan ularga xushomad qilinganda ijro etiladi. *Ko'rsatkich barmoqlarni kesishtirib (krest) qilib ko'ksiga qo'yish* orqali “taqiq”, “biron ishni bekor qilish” yoki “rozi bo‘lmaslik” anglashiladi⁷⁵.

Turk madaniyatida inkor ma’nosi *bosh chayqash* bilan birga, *boshni pastdan yuqoriga ko'tarish* harakati vositasida ham beriladi.

Aksariyat madaniyatlarda “inkor” yoki “yo‘q” tushunchalari *qo'l yoki ko'rsatkich barmoqni ikki yonga bir necha marta silkitish* orqali ham ifodalanadi.

⁷³ Рогозная Н. Н., Мацура Аки. Японские невербальные средства общения // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. –М.: МАКС Пресс, 2001. .Вып. 16. –С. 67.

⁷⁴ Ko'rsatilgan asar, 69-bet.

⁷⁵ Рогозная Н. Н., Мацура Аки. Японские невербальные средства общения // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. –М.: МАКС Пресс, 2001. .Вып. 16. –С. 70.

Kechirim so‘rash. O‘zbek madaniyatida *o‘ng qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib*, koreys va yapon madaniyatida *ta‘zim qilib*, kechirim so‘raladi. Koreys kundalik muomala madaniyatida biron nojoiz harakat sodir bo‘lganda kattalarning, shuningdek, boshliqlarning qarshisida *tiz cho‘kib* (“murip kkulda”) kechirim so‘rash odati keng tarqalgan. Hokim sinf qarshisida *tiz cho‘kib* “bir qoshiq qonimdan keching” deya kechirim so‘rash odati bir paytlar o‘zbeklarda ham bo‘lgan, biroq hozirgi kunda bu odat yo‘qolib ketgan.

Koreys noverbal muloqotida “kechirim so‘rash” hamda “o‘tinib so‘ramoq, iltijo qilmoq, yolvormoq” (“bildä”) ma’nolari *kaftlarni bir-biriga ishqalash* orqali anglashiladi. O‘zbek noverbal muloqotida ushbu harakat “umidvor bo‘lmoq” ma’nosini bildiradi⁷⁶.

Yapon madaniyatida kechirim so‘rash a) *ta‘zim* vositasida ifodalanishi bilan birga, b) *bir qo‘lni ko‘ksiga ko‘tarib, keyin uni xuddi biron nima kesayotgandek ikki yoki uch marta oldinga harakatlantirish*, c) *kaftlarni birlashtirish*, d) *peshanasiga bir necha marta urish*, e) *qo‘llarini boshi uzra ko‘tarib, kaftlarni birlashtirish* kabi qo‘l harakatlari vositasida kulimsirab amalga oshiriladi.

O‘zbek madaniyatida *peshanasiga urish* qo‘l harakati “e, attang” ma’nosida, koreys madaniyatida esa “qilgan ishidan afsuslanish, pushaymon bo‘lish” (“shilsu”) ma’nosida qo‘llaniladi.

Narsalarni uzatish va olish. O‘zbek madaniyatida “hurmat-izzat” ma’nosida choy, ovqat va shunga o‘xhash narsalar *o‘ng qo‘l bilan, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib uzatiladi*. Ayollar *chap qo‘lini o‘ng qo‘lining tirsagiga, ba’zan ko‘ksiga qo‘yib uzatishadi*. Uzatgan odamning yoshi ulug‘ bo‘lsa, qarshidagi kishi ham aynan shu shaklda olishi kerak bo‘ladi. Bu odat koreyslarda juda keng tarqalgan bo‘lib, kattalarga narsa berganda o‘ng qo‘li bilan, *chap qo‘lini o‘ng qo‘lining tirsagiga, ba’zan ko‘ksiga qo‘yib uzatishadi*. Shu bilan birga, narsalarni *qo‘sh qo‘llab uzatish* yoki kattalardan olganda *qo‘sh qo‘llab olish* odati ham ko‘p kuzatiladi. Hatto do‘konlardagi sotuvchilar xaridor uzatgan pulni yarim ta‘zim holatida, *ikki qo‘llab olishadi*, qaytimni ham *ikki qo‘llab qaytarishadi*. Ayni holat yapon madaniyatiga ham xosdir⁷⁷. Binobarin, A. Kumuyama yapon madaniyatida biron narsa olinganda yoki berilganda qo‘llarning muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Masalan, yaponlar tashrif qog‘ozini ikki qo‘llab uzatishadi, uni olgan kishi ham ikki qo‘llab olishi lozim bo‘ladi. Aks holda, hurmatsizlik yoki qo‘pollik qilgan sanaladi. Shunga o‘xhash holat sovg‘a olinganda ham kuzatiladi. Yaponlar sovg‘ani oyoqda tik turib, ikki qo‘llab taqdim etishadi. Sovg‘ani ikki qo‘llab olish maqsadga muvofiqdir. Yapon madaniyatida sovg‘ani ikki qo‘llab olish “qadrlash”, “minnatdor bo‘lish” va “tashakkur bildirish” ma’nolarini anglatadi⁷⁸.

Chaqirish. O‘zbeklar *qo‘lini oldinga uzatib, kaftini yuqoriga qaratib to‘rtta barmoq* yoki *ko‘rsatkich barmoq* bilan “bu yerga kel” deb ishora qilishadi.

⁷⁶ Usmanova Sh. O‘zbekcha va Koreyscha so‘zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol. 9. - Seoul, 2004. -P. 52.

⁷⁷ Усманова Ш. Маданиятлараро мулокотда новербал воситаларнинг аҳамияти // Маданиятлараро мулокот масалалари: тил, матн, таржима. Илмий-амалий анжумани материаллари. –Тошкент: ТошДШИ, 2016. –Б. 11-16.

⁷⁸ Kumayama A. Japanese/American Cross-Cultural BusinessNegotiations // Intercultural Communication Studies, 1991. Volume: 1, Number 1. -P. 51-67.

Koreyslarda bu ishora itlarni chaqirish uchun qo'llaniladi. Koreys va yapon noverbal muloqotida biron kishini chaqirish uchun *qo'lini oldinga uzatib, kaftini pastga qaratib to'rtta barmoqni silkitish* harakatidan foydalaniladi.

Ko'rsatish. O'zbek madaniyatida *ko'rsatkich barmoq to'g'riga yo'naltirish* harakati biron kishi yoki narsani ko'rsatish uchun qo'llanilsa, Uzoq Sharq madaniyatida *ko'rsatkich barmoq bilan ko'rsatish* tarbiyasizlik, odobsizlik hisoblanadi; shuning uchun ham mazkur madaniyatlarda biron kishi, narsa, joy yoki yo'l so'ralganda kaftlarini yuqoriga yozib, ko'rsatib ishora qilinadi. O'zbeklar "men", "menmi?" ma'nosida bosh yoki ko'rsatkich barmoq bilan *o'zini niqtab korsatsa*, koreyslar *kafti bilan o'zini ko'rsatadi*. Yaponlar esa ko'rsatkich barmog'i bilan burnini ko'rsatib, "men" ma'nosini ifodalaydi.

Juda yaxshi. Madaniyatlarning ko'pida *bosh barmoqni ko'rsatish* harakati "juda yaxshi", "zo'r", "mixday" ma'nolarini ifodalaydi. Koreys noverbal muloqotida "juda yaxshi" ma'nosidan tashqari "boshliq" ("udumori") va "muhr" ("dojang") kabi ma'nolarni ham bildiradi.

Va'da berish. Koreys va yapon noverbal muloqotida *jimjiloq barmoqni ilgak qilish* – ikki kishining jimjiloq barmoqlarini bir-biriga tutashtirib, ilgak holatiga keltirishi ko'pincha yosh bolalarga xos qo'l harakati bo'lib, o'zaro va'da berish, ahdlashishning ramzi sanaladi. Mazkur qo'l harakatidan arazlashib qolgan o'zbek bolalari yarashish uchun foydalanishadi.

Erkalatish. Yevropa, Amerika, O'zbekiston va h.k. mamlakatlar madaniyatida bolalarni, sevgilisini yoki biron bir hayvonni erkalatib, *boshini silash me'yoriy hol* hisoblanadi. Koreyslar "barakalla!" ("chal hesso!") ifodasini *boshni silash* harakati orqali bildirishadi. Biroq ayrim Osiyo mamlakatlarida bunday harakat noqulay vaziyatni yuzaga chiqaradi. Chunki, Hindiston va Shri-Lankada ruhning boshda bo'lishiga ishoniladi.

Pul. "Pul" tushunchasini ko'pchilik xalqlar, jumladan, o'zbeklar ham *bosh, o'rta va ko'rsatkich barmoglarning uchlarini ishqalab* ifodalasa, koreyslar va yaponlar *bosh barmog'i bilan ko'rsatkich barmog'inining uchlarini tutashtirib*, "o" halqa holiga keltirib ifodalashadi. Mazkur qo'l harakati Amerikada "muammo yo'q" yoki "muvaqqiyat" ma'nosida, Lotin Amerika va Turkiyada so'kish uchun ishlataladi.

Kulgi. Yapon va koreys madaniyatlarda ayollarning og'zini ohib, tishlarini ko'rsatishi odobsizlik sanaladi. Shuning uchun o'tmishda ayollar tishlarini qoraga bo'yab yurishgan. Hozirda ayollar kulganda og'izlarini *kaftlari bilan to'sishadi*. Bunday holatni o'zbek ayollarida ham kuzatish mumkin.

Odatda, aksariyat madaniyatlarda kulgi xursandlik, vaqtichog'lik va zavqlanishni, ayrim hollarda mazah qilishni ifodalaydi. Biroq boshqa madaniyatlardan farqli o'laroq, yaponlar uyalganda, o'zlarini yomon his qilganlarida, qayg'uli holatlarda kulimsiraydilar. Hatto yaqinlaridan biri vafot etganda ham qayg'ularini kulimsirab ifodalaydilar. Bunday holat turkiy xalqlarning madaniyatida salbiy baholanadi. Shuning uchun yaponlar bilan muloqot chog'ida ularning kulimsirashlarini har doim ham xursandlik, baxtiyorlik ifodasi sifatida tushunish to'g'ri bo'lmaydi.

Sevgili. Koreys va yapon madaniyatida erkaklar jazmanlari haqida gaplashishganda *jimjiloq barmoqni ko'rsatishadi*. *Ikkala ko'rsatkich barmoqning uchini bir-biriga tegizish* harakatidan “erkak va ayol o‘rtasidagi ishqiy munosabat” tushuniladi.

Ovqatlanish. Ma’lumki, o‘zbek madaniyatida palovni qo‘l bilan yeish odati keng tarqalgan. Ovqatni qo‘l bilan yeilganda *barmoqlarni yalash* ishorati “ovqatning juda mazali ekanligini” ifodalaydi. Koreys, yapon va xitoy madaniyatida taom qanchalik *chapillatib* yoki *xo'rillatib* yeyilsa, taom shunchalik mazali ekanligi anglashiladi. Hatto koreyslar taom ikrom qilinganda, o‘zlarining minnatdorchiliklarini *chapillatib* yeish *orgali* izhor qilishadi. Qator madaniyatlarda aksincha, ovqatni *chapillatib* yoki *xo'rillatib* yeish tarbiyasizlik sanaladi.

Ovqatdan so‘ng koreyslar *boshini egib*, “chal mogossoyo” (“mazza qildim”, “yaxshi yedim”) deb, yaponlar *kaftlarini birlashtirib ko'ksiga qo'yib* minnatdorchilik bildirishadi. Xitoyliklar esa tanovul chog‘ida ko‘rsatilgan e’tibor va iltifot uchun ikki barmog‘ini stolning chetiga bir necha marta taqillatib minnatdorchilik izhor qilishadi.

Uzoq Sharq madaniyatida ovqat qoshiq yoki sanchqi o‘rnida qo‘llaniladigan “hashi” (yapon), “chokarak” (koreys), “kuayzi” (xitoy) deb nomlanadigan tayoqchalar vositasida iste’mol qilinadi.

Tayoqchalar ovqat yeishga mo‘ljallangani uchun ularni yalash, ular bilan taomlarni qorishtirish, nimanidir yoki kimnidir ko‘rsatish, uchini dasturxon atrofida o‘tirganlardan biriga qaratish va shunga o‘xshash xatti-harakatlarni amalgalashirish madaniyatni va an’analarni haqorat qilish, dasturxon atrofidagi qonun-qoidalarga nisbatan hurmatsizlik sifatida qabul qilinadi. Tayoqchalarni tarelkaga kesishtirib, ya’ni krest shaklida qo‘yish ham haqorat hisoblanadi. Chunki, bunday xatti-harakat ovqatning yoqmaganligini ifodalaydi. Shuning uchun ovqatdan so‘ng, albatta, tayoqchalarni maxsus taglikka yoki tarelkaning oldiga uchini chap tomonga qaratib qo‘yish lozim. Ayniqsa, kosadagi guruch yoki boshqa ovqatlarga tayoqchalarni tikka qilib tiqib qo‘yish ham nomaqbul harakat sifatida qabul qilinadi. Binobarin, faqat marhumga atalgan ovqatgagina tayoqcha yoki qoshiq tiqib qo‘yiladi.

Ichkilik ichish. Uzoq Sharq madaniyatida ichkilik ichish o‘ziga xos mulozamat talab qiladi. Koreya va Yaponiyada ichkilik shishasi *ikki qo'llab ushlab* quyiladi, bunga javoban qarshidagi kishi ham qadahini *ikki qo'llab tutib* turadi.

Odob yuzasidan ayni shaklda ichkilik quyib bergen kishining qadahini to‘ldirib berish kerak bo‘ladi. Yana ichmoqchi bo‘lgan odam bo‘shagan qadahini albatta qo‘liga olishi kerak bo‘ladi. Bunday qilmasa, “bo‘ldi, boshqa ichmayman” degani bo‘ladi. Shuning uchun ham stoldagi bo‘sh qadah to‘ldirilmaydi. Stoldagi bo‘sh qadah faqat ma’rakada, marhumning xotirasi uchun to‘ldiriladi. Koreyada “Gon be!” (건 배), Yaponiyada “Kan pay!” qadah so‘zi hisoblanadi.

Xitoy ziyoftlarida mezbon qo‘lida qadah bilan har bir mehmonning yoniga borib u bilan ichishni taklif qiladi va qadah so‘zlari aytadi. Mehmon ham o‘z navbatida o‘rnidan turadi va qadahini qo‘liga olib mezbonga hurmat ko‘rsatadi.

Undan so‘ng har bir mehmon navbati bilan mezbon va boshqa mehmonlarning yoniga borib qadah taklif qiladi va shu tarzda o‘zining hurmatini bildiradi. Bundan so‘ng “Qadahni bo‘shatamiz!” “Gon be!” (干杯), deb qadahlar urishtirib ichiladi⁷⁹.

Masofa. Suhbatdoshlar orasidagi masofa noverbal muloqotning muhim komponentlaridan hisoblanadi. Kishilar o‘rtasidagi muloqotda masofaning 4 xil ko‘rinishi farqlanadi:

1) 50 sm – intim masofa. Agar suhbatdoshlar orasida bunday yaqin masofa bo‘lsa, u holda ularning o‘rtasida ishqiy munosabat mavjud bo‘ladi. Yoki bunday masofa suhbatdoshlarning juda qalin do‘st ekanligini ko‘rsatadi. Demak, insonlarni qanchalik ko‘pdan beri bilsak, suhbat chog‘ida ularga shunchalik yaqinlashamiz.

2) 50-120 sm – shaxsiy masofa. Mazkur masofa bir xil ijtimoiy mavqedagi hamkorlar uchun mo‘ljallangan.

3) 1,2 - 4 metrgacha – rasmiy muloqotga mo‘ljallangan masofa. Rahbarning uning qo‘l ostidagi xodimlari bilan muloqoti chog‘ida ana shunday oraliq saqlanadi.

4) 4 - 7,5 metrgacha – ommaviy masofa. Bir qancha kishilarning rasmiy muloqotini anglatadi.

Madaniyatlar o‘zaro suhbat chog‘ida kishilar orasidagi masofaning uzoq-yaqinligiga ko‘ra muloqotli va muloqotsiz madaniyatlarga ajraladi⁸⁰. Masalan, arablar va turkiy xalqlar madaniyati o‘zaro muloqotda oradagi masofaning yaqin bo‘lishi jihatidan muloqotli madaniyatlar qatoriga kiradi. Xususan, o‘zbek va turk muloqotida tegish (qo‘l tegizish, quchoqlash, silash, o‘pish va h.k.) darajasining yuqoriligi kuzatiladi.

O‘zbek madaniyatida salomlashish 2 daqiqadan 5 daqiqagacha davom etadi, salomlashuv so‘zlaridan keyin, albatta, suhbatdoshning ahvoli, mehnat faoliyati, oila a’zolarining umumiyligi ahvoli haqida so‘raladi. O‘zbeklar tez fursatda hol-ahvol so‘rab ketib qolishdan istihola qiladilar yoki ushbu holatni hurmatsizlikka yo‘yishadi. Salomlashish jarayoni paralingvistik vositalar (qo‘l uzatib ko‘rishish (erkaklarda), yuz urishtirib, yelkaga qoqib, qo‘lidan ushlab ko‘rishish) bilan hamohang tarzda olib boriladi. Salomlashishda emotsiya ham rol o‘ynaydi, ya’ni ochiq chehra bilan tabassum qilib, ochiqko‘ngillilik va o‘ta samimiyat bilan so‘rashiladi. Suhbatdoshlar o‘rtasidagi masofa 60-80 sm.ni tashkil etadi⁸¹.

Uzoq Sharq madaniyatida, aksincha, suhbat chog‘ida tegish darajasining pastligi va masofaning uzoqligi kuzatiladi. Yapon, koreys va xitoyliklarning muloqotida suhbatdoshga juda yaqinlashish, qo‘l tegizish, uni quchoqlash, o‘pish kabi harakatlar xushlanmaydi.

Xullas, madaniyatlararo muloqotda, ayniqsa, noverbal vositalarni to‘g‘ri talqin qilish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb

⁷⁹ Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, TDSHI, 2015 yil 28 noyabr. –B. 31-36.

⁸⁰ <http://www.krugosvet.ru/articles/82/1008258/1008258a1.htm> 03-06-16.

⁸¹ Юсупова Д.И. Маданиятлараро мулокотда ўзбек ва олмон тилларида саломлашув концептининг ифодаланиши // <http://fikr.uz/posts/poems/9374.html>

